

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITET

Qo'lyozma

huquqida

ISAKOVA XILOLA DJABIROVNA

IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM-FAN
TARAQQIYOTIGA TAYYORLASH MASALASI

5A 110901- MUTAXASSISLIGI

Bo'yicha magistr darajasini olish

PEDAGOGIKA

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: p.f..d, professor. M.M. Mirqosimova

NAMANGAN - 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASH MASALASI ILMIY -NAZARIY MUAMMO SIFATIDA.....	12
1.1. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasini ilmiy adabiyotlarda yoritilishi.....	12
1.2. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash tizimi	20
1.3. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashda qobiliyat va iqtidori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	29
Bob bo'yicha xulosalar.....	46
II BOB. IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM- FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASHNING SHART- SHAROITLARI.....	47
2.1. Iqtidorni rivojlantirishda ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rni.....	47
2.2. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash darajasini aniqlashning pedagogik va psixologik diagnostika metodlari	62
2.3. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashda ijod haqidagi nazariyalar tahlili.....	73
Bob bo'yicha xulosalar.....	82
III BOB IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASHGA OID TAJRIBA – SINOV ISHLARINING UMUMIY MOHIYATI	83
3.1. Tajriba – sinov ishlari metodikasining mazmuni va	

	mexanizmi.....	83
3. 2.	Tajriba – sinov ishlarining yakuni va samaradorlik ko'rsatgichlari Bob bo'yicha xulosalar.....	94
	UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	95
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	98
	ILOVALAR.....	102

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, o'zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongi yuksalib, yon atrofda bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi ortib borayotganini anglab yetish qiyin emas.

Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi yurtimizda ko'p partiyaviylik tizimini tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub'ekti, ya'ni davlat boshlig'i prezident, qonun shiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Mamlaktimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» nomli ma'ruzalarida davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarni, xususan parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalar rolini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini, saylov qonunshiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunshilik tashabbuslarini ilgari surdilar [1.2.3]

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligida so'zlagan nutqida «Ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor» ligiga alohida e'tibor qaratgan edilar.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash madaniyati tarkib topa boshladi. Shu maqsadda pedagogik-psixologik hamda metodik markazlar tashkil etish va ular ishini tizimli asosda yo'lga qo'yish muhimdir. Ayniqsa, modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida

o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, uni o'quv jarayonining yangi tarkibi va mazmuniga moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-yilligida so'zlagan nutqida 2010-yilda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari bo'yisha amalga oshirilgan eng muhim ishlar xususida uzoq to'xtalib o'tdilar. Avvalo, ushbu yilda bolalar va yoshlarni huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ huquqiy bazani yanada takomillashtirish masalalariga e'tibor berildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan aholi, birinchi navbatda o'quvchi va talabalarga axborot texnologiyalari asosida axborot-kutubxona, internet xizmati ko'rsatishni yaxshilash maqsadida «Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasini rivojlantirish, uning moddiy texnikaviy bazasini mustahkamlash, yangi o'quv muassasalarini qurish va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi.

Hozirgi keskin raqobat sharoitida innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. .[1.4.2]

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta'lim-tarbiya tizimini va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptiruvchi, tashabbuskorlik hamda bunyodkorlikni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

Barkamol yetuk shaxsni tarbiyalash, respublikamizda kadrlar tayyorlashni davr talablari darajasiga ko'tarish, ta'limning rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mexanizmni yaratish, uning mazmunini takomillashtirish o'quvchi va o'qituvchilardagi ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatni, qarashlarni shakllantirish kabi masalalarni qamrab olgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bosqichma-bosqich amalga joriy etilmoqda. Xususan, uning asosiy yo'nalishlaridan biri «Iqtidorli o'quvchilar va iste'dodli yoshlar» bo'limida ta'lim oluvchilardagi layoqatni ma'lum shart-sharoitlar asosida qobiliyat

darajasiga ko'tarish zarurati alohida qayd qilinadi. Bugungi kunda ularga keng imkoniyatlar yaratish, mazmunli dastur asosida o'qitish, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish muhim vazifa ekanligi ko'rsatilgan. [1.9.16]

Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida iqtidorli yoshlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni saralash va qobiliyatini rivojlanishida ularga oqilona ko'rsatma berish, respublikada aql-zakovatli, ijodiy fikrlovchi yangi avlodni tarbiyalashning muhim manbaidir. Bu boradagi tadbirlar asosan qobiliyatli yoshlarni saralash, ular bilan ishlash, qiziqishlari, iqtidorini o'rganish va qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq. Shaxs va uning kamoloti muammosi taraqqiy etishi va o'z taraqqiyotini yuksak cho'qqisiga intilishi uchun imkoniyatlarning cheksizligini ta'minlash zarur.

Iste'dodli o'quvchilar va iqtidorli yoshlar davlatning intellektual salohiyatini oshirib boruvchi va aniq maqsadlar yo'lida samarali foydalanishi uchun zarur bo'lgan «oltin zahirasi» dir. Bu-davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol, iste'dodli, ijodkor, qobiliyatli kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir. Shunki ijodkor, iste'dodli, ya'ni yuksak ma'naviy, ruhiy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan shaxsgina jamiyatni, xalqni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantiradi. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Iste'dod, qobiliyat komillikning eng asosi, uzviy qismi bo'lib, iste'dodli shaxslarni tarbiyalash, ularni iqtidorini yuzaga chiqarish jamiyatimizda eng muhim, dolzarb vazifasidir.[1.11.2]

Bu esa asosan yangi tipdagi o'quv muassasasi bo'lgan kasb-hunar kollejlari oldida turgan muhim vazifalaridan biridir. Kishik mutaxassis tayyorlashda ularning qiziqishlari, moyilligi, layoqati va qobiliyatlarini bilish katta ahamiyatga ega.

Yuqorida qayd etib o'tilgan qonunlar mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'la oshib berilgan.

Biroq, kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga qo'yilayotgan yangi va yanada yuqoriroq talablar, shuningdek o'quvchilarning

individual xususiyatlarini inobatga olib, ular bilan ishlash, qiziqish va layoqatlarini aniqlashda turli psixodiagnostika testlardan, savolnomalardan foydalanish va rivojlantirish texnologiyalari hozirgi ta'lim tizimida hali o'z yechimini to'liq topmagan. Ana shu vazifalarni hal qilishda yuzaga chiqadigan mana shunday ziddiyatlarni bartaraf etish tadqiqot muammosi sanalib, uning dolzarbligini belgilab beradi.

Iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga oqilona ko'rsatma berish, darsda va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarga jalb qilib, ularni qobiliyatini muayyan yo'nalishlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos bo'lgan individual – psixologik xususiyatlarini, ichki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarini oshish, takomillashtirish, taraqqiy ettirish, ta'sir o'tkazuvshan omilkor vositalar topish, ya'ni ularni jamiyat ehtiyoji, talabi, rivoji imkoniyatiga mos ravishda maqsadga muvofiq yo'naltirish O'zbekistonimizni mustaqil taraqqiyoti, istiqbol rejalarining, dunyo hamjamiyatida eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishini amalga oshirishning negizidir. Aynan mana shunday yondashuv yuqori darajada rivojlangan intellektual va ijodiy sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur muammo pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va falsafa fanlarida ma'lum darajada yoritilib, tadqiq qilingan. Sharq mutaffakirlari Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Sa'diy Sheroziy, Zahiriddin Muhammad Bobur o'z falsafiy meroslarida qobiliyatli, iste'dodli yoshlar, ularga ta'lim-tarbiya berish, shaxs ongini shakllantirishga oid masalalarni keng yoritishgan. [1.1.,2.21.26]

Insonning imkoniyatlarini o'rganishga G'arb olimlaridan A.Bine, T.Simon, F.Galton, V.Shtern, U.Ollport, K.Rodgerslar katta hissa qo'shganlar. Spirmen, Termen, Kettell va boshqalar qobiliyatlarning miqdoriy tavsifi va ularni o'lchash muammosi bo'yicha izlanishlar olib borganlar.[2.5]

Rus psixologlaridan B.M.Teplov [2.29.13], B.G.Anan'ev [2.5.8], S.L.Rubinshteyn [2.25.6] o'z ilmiy ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari

ta'siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan bo'lsalar, maxsus qobiliyatlarni o'rganish masalalari N.V.Kuzmina [2.20.89], V.A.Kruteskiy [2.28.54] kabi olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston pedagoglaridan P.N. Andrianov[2.7.112], Sh.S. Sharipov [2.34.37] o'z tadqiqot ishlarida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ish olib borganlar. Psixologlardan B.R.Qodirov [2.40.13], E.G'oziev [2.42.28] tadqiqotlarida shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, shaxsning intellektual salohiyati, yosh davr xususiyatlarini tutgan o'rni bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Lekin hozirda Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasi olib borilmayapti va rivojlantirish texnologiyalari ishlab shiqarilmayapti. Bundan kelib chiqqan holda, tadqiqot mavzusi « **Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasi** » deb nomlandi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:

“YOsh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali, shuningdek, boshqaruv kadrlarni tayyorlash muammolarini tadqiq etish” (DITD-3) yo'nalishi bo'yicha 1.1-raqamli ““Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish, rivojlantirish muammolari” Davlat texnik ilmiy dasturi doirasida hamda Namangan davlat universitetining “ pedagogika va psixologiya” kafedrasining ilmiy ishlar rejasiga muvofiq bajarildi.

Tadqiqot maqsadi: Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashning yaxlit tizimini asoslash va ilmiy metodik tavsityalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot predmeti: Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash shakl, metod, vositalari.

Tadqiqot ob'yekti: Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot ishining vazifalari:

- O'quvchi rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va iqtidor tushunchasini tahlil qilish;
- O'quvchi qobiliyatini va iqtidorini shakllantirish nazariyalarini asoslab berish;
- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash yo'llarini tahlil qilish va aniqlash borasida tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;
- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqish;
- o'quvchilar iqtidorini aniqlab, ularga yangisha sharoit yaratilishini izohlash;
- tajriba-sinov ishlarining natijalari bo'yicha xulosalar shiqarish.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

1. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashning ilmiy-metodologik asoslari.
2. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash darajasini aniqlovchi mezonlar.
3. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash jarayonining andozasi.
4. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash ning amaliy asoslari (shakl, metod va vositalari).
5. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash da yangi yutuqlarga erishishni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy farazi: agar, Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasida:

- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash tizimi

ishlab chiqilsa;

- ta'lim-tarbiya ishlari dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda individuallashtirilgan holda olib borilsa;

- iqtidorli o'quvchilarni darsdan tashqari mashg'ulotlarga intellektual musobaqalarga jalb qilinsa, ularning zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, «Ta'lim to'g'risida» qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», uzluksiz ta'lim tizimi jarayonini tashkillashtirishni belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar, barkamol shaxs rivojlanishi hamda uning kasbiy shakllanishi haqidagi nazariyalar, Sharq mutafakkirlarining iqtidor va qobiliyatlarni rivojlantirish haqidagi qarashlari, g'oyalari asos qilib olindi.

Tadqiqot metodlari: kuzatish metodi, tajriba-sinov metodi, suhbat metodi, test, sotsiometrik metodi, ilmiy natija va dalillarni matematik-statistik ishlov berish va tahlil qilish metodlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash ilmiy-metodologik asoslari o'rganil.
2. “Iqtidor”, “ijodkorlik” va “qobiliyat” tushunchalariga pedagogik nuqtai nazardan ta'riflar beriladi.
3. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqiladi.
4. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash jarayonining andozasi yaratiladi.
5. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashga yordam beruvchi amaliy asoslar (shakl, metod va vositalar) aniqlanadi.

Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashning ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasi tahlil qilindi;
- o'quvchilik davrida shaxs qobiliyatining shakllanishi tahlil qilindi;
- o'quvchilar iqtidorini shakllantirishda hamda rivojlantirishda fan to'garaklarida ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Tadqiqot natijalarini kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar qiziqishi, layoqati va iqtidorini aniqlashda psixodiagnostik vositalardan keng miqyosda foydalanish;
- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida fan to'garaklarida berilgan yo'l-yo'riqlarni amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari:

Birinchi bosqich (2012 yil, sentyabr-2013 yil, mart). Bu bosqichda avval ilmiy rahbar tayinlandi hamda tadqiqot uchun muammo qo'yildi.

Shu ilmiy muammoni hal qilishga qaratilgan tadqiqot mavzusini aniqlashdan boshlandi. Kafedra tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan ish reja asosida ish olib borildi.

Reja asosida mavzu doirasida mavjud adabiyotlar bilan tanishildi. Tadqiqot uchun material to'plandi.

To'plangan materiallarni bo'limlar bo'yicha tartibga solib, ajratildi, ortiqcha dalil va materiallar chiqarib tashlandi, tanlangan materiallarni muayyan ilmiy nazariyaga tayangan holda ilmiy-tanqidiy o'rganildi va tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich (2011yil, 2012yillari). Bu bosqichda ham adabiyotlar bilan ishlash davom ettirildi. Sharq mutafakkirlari, g'arb olimlari tomonidan o'rganilgan bu muammo to'g'risidagi fikrlari tahlil qilindi. Ilmiy ishning mazmuni qisqa ilmiy axborot shaklida rasmiylashtirildi. Bunda tadqiqot ishining I-II boblari yozildi.

Uchinchi bosqich (2013 yil, oktyabr-2014 yil, may oylari).

Bu bosqichda tadqiqot muammosini qanchalik to'g'ri tahlil qilinganligini aniqlash uchun Namangan pedagogika kolleji tajriba sinov maydoni sifatida olindi. Olingan natijalar tahlil qilinib, dastlabki muhokamadan o'tkazildi.

Kafedrada uni muhokama etib, oshiq himoyaga ruxsat berildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan tashkil topgan. 8 ta jadval va 2 ta diagramma mavjud. Dissertatsiya 101 sahifadan iborat bo'lib, 87 betda asosiy mazmun yoritilgan.

I BOB. IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASH ILMIY -NAZARIY MUAMMO SIFATIDA

1.1. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasini ilmiy adabiyotlarda yoritilishi

Barkamol inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib qolgan. Barkamol inson g'oyasi zardushtiyning muqaddas kitobi «Avesto»da, Qur'oni Karim va hadislarda, Sharq mutafakkirlari asarlarida o'zining teran ifodasini topgan.

Uyg'onish davrida Sharq mutafakkirlari o'zlarining ta'lim va tarbiya to'g'risidagi asarlarida barkamol shaxsni shakllantirish muammosi yer yuzida insonning baxtga erishuvi uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi g'oyalari diqqatga sazovordir. Pedagogika tarixida al-Forobiyning fozil inson sifatlari, bilimlarni olish yo'llari va metodlari haqidagi konsepsiyasi, al-Beruniyning kasbiy bilimlarni egallash metodlari haqidagi qarashlari, Ibn Sinoning aqliy, ma'naviy hamda jismoniy komillikka erishish haqidagi ta'limoti, al-Xorazmiyning ilmiy bilimlari, hayotiy muammolarni hal qilish yo'llari to'g'risidagi asarlari o'zining alohida o'rniga ega.

Jumladan, al-Xorazmiy shaxs sifatlarini shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda fanning yuksak o'rnini qayd etadi. U shaxsni kuzatish, tajriba-sinovlar o'tkazish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga, aqliy sifatlarni rivojlantirishning boshqa vositalariga katta ahamiyat bergan. Bu to'g'ridagi fikrlarini u « Al jabr val muqobala», «Hisob al - Hind» va boshqa asarlarida bayon qilgan.

Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilganda tarbiyaning ahamiyati katta ekanligini ko'rishimiz

mumkin.

Tarbiyaviy ishning samaradorligini mana shunga bog'liqligi ko'rsatiladi. Ya'ni birinchi navbatda, tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir tarbiyachi avvalo o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur etib olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur ekan. Bu maqsad jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.[2.30.11]

Inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati amalga osha boradi. Bunda insonning normal jismoniy rivojlanishi uchun ham sharoitlar bo'lishi kerak.

Insonning aqliy rivojlanishi ijtimoiy muloqot va tarbiya ta'sirida intensiv rivojlanib boradi. Agar tarbiyachilar o'z vaqtida va o'rnida rejali ravishda uning bilish faoliyatiga ta'sir etib borsagina, aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli ko'shadi. Demak, aqliy tarbiya deganda tarbiyachining o'quvchilar aqliy kuchini va tafakkurini rivojlantirish, unda aqliy mehnat madaniyatini tarkib toptirishga qaratilgan maqsad yo'lidagi faoliyati tushuniladi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, uning mazmunini barsha fanlar bo'yicha bilimlar sistemasini bilib olishni va shu asosda yoshlarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, tafakkur va ijodiy qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Aqliy tarbiya barsha fanlardan umumiy ma'lumot berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga ta'lim dasturlari asosida bilim berilib, ularda xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish kabi xislatlar taraqqiy ettiriladi.

Abu Nasr Forobiyning ijodiy merosida u tomondan birinchi bo'lib yaratilgan fanlar tasnifi alohida o'ringa ega. Allohning qayd etishicha, inson o'zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun birinchi navbatda, ilmiy bilimlarni egallamog'i lozim, shuningdek shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi. O'zining «Fozil odamlar shahri», «Baxtga erishish haqida» kabi asarlarida al-Forobiy barkamol shaxsni

tarbiyalash mazmuni, maqsadi, vazifalari, yo'llari hamda vositalari to'g'risida so'z yuritadi. Al-Forobiy «o'qitish» va «tarbiyalash» tushunchalariga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim sanaladi. Forobiy insonning aql-zakovati xususida fikr yuritib bunday deydi:

- Barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda tushuna oladigan, uning ma'nosini anglaydigan, so'zlovshining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin;

- xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;

- zexni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

- so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqshi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

- bilim va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin.

Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mehnat unumdorligini oshiradi va mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi [2.1.38].

Demak, Abu Nasr Forobiy axloqiy fazilatlar deganda, bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik fikrini, manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksalishga intilish, adolatlilik kabi xislatlarni e'tirof etadi. Eng muhimi, har bir inson bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq sifatida qaraydi. Bundan Forobiyning axloqning xulq ta'sirlari ifodasi sifatida ham tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Abu Ali ibn Sino «Xay ibn Yaqdan» asarida ilm-ma'rifatni o'rnatishga kirishishi natijasida ko'zi ochilgani, uning natijasida ilm ham o'z jamolini namoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilm aqlni uyqu bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan barvasti nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishganini, bu yo'lda aqlni ishga solib olganligini qayd etadi.

Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyaning o'zaro aloqada amalga oshirishning usullarini yaratib, ta'lim-tarbiya sohasida o'z o'rniga ega bo'ldi. «Tib qonunlari» asarida Ibn Sino gigienik tarbiyaning inson xulqiga, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga ta'sirini ilmiy-amaliy yo'l bilan asoslab bergan.

Uning fikricha, kimki aqliy va jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo'lmasin, agar undagi bilim va kuch axloq me'yorlariga mos tushmasa, bunday kishi jamiyatning haqiqiy a'zosi hisoblana olmaydi va u jamiyatga foyda keltira olmaydi. O'zi uchungina yashashdan xalq uchun, umum manfaat uchun yashashga intiluvchi kishilarni Ibn Sino yaxshi axloqli insonlar deb hisoblaydi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qish nazariyasida alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha, buyumlarning chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqichi ikki xil fikrni idrok etishdir. Aql rivojlanishining uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi. Ibn Sino aql deganda, insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri - nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarninig mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatdir. [2.30.47]

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarida bilimni buyuk, o'quvni ulug' deb ta'riflaydi, chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi, olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi

mumkinligini aytadi. O'sha davrlardayoq olim «bilim hatto osmon sari yo'l oshur» deb bashorat qiladi. Bu dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan deb uqtiradi. Hatto hukmdorlar ham, yurti, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa el-yurt farovon bo'ladi, tinch hayot kechiradi. Dunyoda inson bilim va zakovat tufayli orzu tilaklariga, ulug'likka erishish mumkinligini aytadi.

Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga xuddi o'zlariga o'xshagan donolar va zakovatlilar yetadi. Johil va nodonlar bunday xislatlarga ega emas deydi, chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo'lishidan u qayg'uga tushadi.

Olim bilimni ziyoga tengi yo'q javohirga o'xshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorlarini bilib olishga yordam beradi, deydi.

Inson nimaga erishgan bo'lsa, bilim tufayli erishganligini ta'kidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim o'g'rilay olmaydi, deb bilim va zakovatni muqaddas do'st, mehribon qarindosh sifatida ta'riflaydi.[2.30.54]

Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-xaqoyiq», Jomiyning «Bahoriston» kabi asarlarida barkamol shaxsni shakllantirishning mazmuni, metodlari hamda tarbiya vositalari to'g'risida mulohazalar bayon qilingan.

Buyuk allomalarimizdan Abu Rayxon Beruniy ham qobiliyatlar to'g'risida fikr yuritganlar. Beruniyning ta'kidlashicha, o'quvchining bilimi soddadan murakkabga qarab boradi. Bu ilk yoshlikdan boshlanadi. Bu mutafakkir noyob qobiliyatlarni miya asab tizimini xususiyatlari bilan belgilaydi. Lekin bunday alomatli kishilar mashxur bo'lishi turgan gap, degan ma'noni bermaydi. Hamma narsani keyinchalik olib boriladigan ta'lim-tarbiya hal qiladi. Yaxshi me'yori ta'lim-tarbiya natijasida ba'zi hollarda qobiliyatli o'quvchilar o'sib ulg'ayib, u yoki bu sohada iste'dodli kishilar bo'lib yetishadilar.

Ta'lim-tarbiya berishni e'tirof etgan Beruniy o'quvchilikdan yarqirab turgan noyob qobiliyatlar yoshi o'tishi bilan so'nishi ham mumkinligini o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Tug'ma qobiliyat nazariyasiga nisbatan faqat Beruniy emas, balki o'sha zamon fani ham yuqoridagi xulosada edi. Lekin qobiliyatli, iste'dodli kishilar shu xislatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lib, ko'p mehnat qilishlari zarur, aks holda qobiliyat so'nishi ham mumkin.[2.30.44]

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarida ham qobiliyatlar to'g'risida o'z fikrini bildiradi. Sa'diyning fikricha, qobiliyatli va kam qobiliyatli o'quvchilar bo'ladi. Ammo qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi, uning rivojlanishi uchun o'quvchini tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa o'quvchidagi bor qobiliyat ham yo'qoladi. Uning kamolot topishi uchun kamolotga asos bo'ladigan qobiliyat negizi bo'lishi kerak.

Xoja Samandar Termiziyning ta'kidlashisha, iste'dod egalarini tarbiyalash shunday bir kimyodirki, u qora tuproqni toza oltinga, noqis toshni esa aybsiz gavharga aylantiradi.

Sharq allomalaridan Mo'yniddin Juvayniy, iste'dod egasini tarbiyasiz qoldirmoq zulmdir. Iste'dodsiz kishini tarbiyalash esa ularni umrini zoe o'tkazishdir, deb ta'kidlagan.

O'zbek xalqining ulug' farzandi, ma'rifatparvar Alisher Navoiy shaxs kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruhiy, ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb hisoblaydi. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarni umuman bitta jamiyat bo'lib yashash, bir fikrda bo'lish, odamiylik ideallariga tayanish kabi ma'nolarda tushunadi.

Navoiy o'z davrida komil insonlarni «ahli ma'ni» deb bilgan. «Ahli ma'ni» bu fikrli odamlardir. Fikrlash - haqiqatni anglashdir. «Ahli ma'ni» deganda oqil va dono, kamtar va olijanob, qobiliyatli, haqiqatparvar va fidoiy kishilarni tushunish kerak. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilarning tafakkur qilishi keng bo'ladi.

Alisher Navoiyning fikricha, ahli ma'ni, ya'ni ma'nili kishilar yetuk shaxslardir. Uning fikricha, yosh avlodni kamolotga yetkazish deganda, uni bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar qilib yetishtirish anglatiladi. Bunda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi, shu bilan birga Navoiy tarbiya ta'siriga beriluvchi,

qobiliyatli o'quvchi o'quvchilar bo'lgani singari, yomon xulqli o'quvchilar ham borligini, ularni tuzatish mumkinligini aytadi. O'quvchi shaxsining kamolotida tarbiyaning yuksakligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Inson go'zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid-niyatlar bilan komillikka-kamolotga intilib boradi. Hayotning hamma achchiq-chuchugini, rohatu azobini, mehnatu mashaqqatini totib, bulardan namunayu ibrat olib, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi, inson minglarcha yillar mobaynida boshidan kechirgan barcha tajriba-saboqlaridan xulosa chiqarib, munavvar yo'lga chiqqan.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim, degan odam xato qiladi. Inson o'z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yadi, ammo shu nuqsonu kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlamaslikka harakat qiladigan kishi barkamol insondir. Inson kamolotiga chek-chegara yo'q. Muttasil kamolot sari intilmoq – taraqqiyot boisidir.

Inson koinotdagi barsha mavjudotlar ichida hammadan ulug'i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, chunki, inson haqiqat haqida chuqur o'ylaydi. Kamolot yo'liga chiqish uchun u asta-sekin o'zligini izlaydi, olamni taniydi. Alisher Navoiy «Kamol et kasbim» deya da'vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko'p xususiyatlarni nazarda tutgan. Kishi o'zini hirs-ta'ma, nafs, g'aflat, nodonlik singari mayllardan poklamasa, u hech payt komil bo'la olmaydi. «Olam uyi»da yashash - uning fuqarosiga aylanishdir. Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeiga ko'tarilishini xohlagan. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning oliy cho'qqisi deb bilgan. Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-mashaqqatni, har kanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql ne'mati bilan yengadi va hal etadi. Ruhiy kamolot odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi.

Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idrok qilish, e'tiqod qo'yish, hayot tajribasini egallash bilan ro'yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog'liq bo'lganidek, odam o'quvchisining komil

inson bo'lib etishishi uchun murg'aklikdan tarbiyalashga e'tibor berib borish lozim. Tarbiyaning vazifalari keng va ko'pqirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya esa yosh avlodni jamiyatimizga, o'ziga, oilasiga nafi tegadigan qilib tarbiyalash, ulardagi layoqatlarini qobiliyat darajasiga o'stirish va shakllantirishdan iborat [2.30.92.]

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yetishib chiqqan milliy pedagogikamiz darg'alari, o'zbek milliy ilm va ma'rifatining atoqli vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylar ham shaxs tarbiyasi borasida o'zlarining qimmatli merosini qoldirganlar.

Fitrat o'z asarlarida ta'lim-tarbiya va uning maqsadlari, maktab -maorif ishlari, bilim berish usullari va vositalari haqida, ma'rifatli komil insonni tarbiyalash yo'llari to'g'risida fikr bildiradi. U o'zining "Rahbari najot" degan asarida o'quvchilarni barkamol qilib tarbiyalashga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan butun qavm a'zolari javobgar ekanligini uqtiradi. [2.30.144]

Abdulla Avloniy ham o'zining «Turkiy guliston yohud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab, shunday degan edi: «Janoba haq» insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladur. Agar o'quvchi yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, u xastaning badanidagi kasaliga qilgani kabi tarbiyani o'quvchining vujudidagi jahl makoniga «yaxshi xulq» degan davoni ishidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir deb korsatib o'tadi.

O'quvchining o'sishi va tarbiya uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin va o'qish faoliyati, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar o'quvchining hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchining bunday xilma-xil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish, uni

qiziqishlarini inobatga olgan holda ish yuritish, undagi qobiliyatlarini tarkib toptirish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.[2.30.151]

Yuqorida bildirilgan mulohazalarni umumlashtirib, qayd etish mumkinki, Sharqda qadimgi davrlardan quyidagilar barkamol shaxs sifatleri bo'lib hisoblangan: a) aqliy komillik, sog'lom fikr, iqtidorlilik, intellekt; b) yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar; v) jismoniy komillik, tan va ruh sog'ligi; g) estetik komillik. Bundan tashqari, barkamol shaxs mezonlarini, unga taalluqli ijobiy sifatleri belgilashda Sharq mutafakkirlari insonni savobli, yaxshi amallar qilishga da'vat etuvchi, salbiy harakat va hayollardan saqllovshi omil sifatida komillikka intil

1.2. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash tizimi

Shaxsning yosh davrlari ishida o'quvchilik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'quvchilik 11-13 yoshni, katta o'quvchilik 14-16 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim xislati shundan iboratki, u o'quvchilikdan kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o'tish davridir.

O'quvchilik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanadi. Bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlarning faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham fe'lining o'zgaruvshan va ba'zan noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular, albatta, asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, o'quvchi tezda achchiqlanadigan bo'lib qoladi.

O'quvchi jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog'at bo'lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi.[2.4.7]

Psixik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama-qarshilikni o'z ichiga oladi. O'quvchining psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi tizimning

qarama-qarshilikda namoyon bo'lishidir.

Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy-aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi.

Bu taraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun ham to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati o'quvchi psixikasining muvozanatiga ta'sir ko'rsatib, uning turli fikr-o'ylardan chalg'ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, bu davrda diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda o'quvchi mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki, bu davrda u ko'proq o'z fikr- uylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi. Buning sababi - yana o'sha kattalikka o'tish bo'lib, o'quvchida o'ziga xos «kattalik» hissi paydo bo'lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. Shuning uchun ham ta'limda beriladigan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samimiyluk muhiti unda mustaqil fikrlashga katta imkoniyatlar oshishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Shunga bog'liq tarzda o'quvchining o'z falsafasi, o'z siyosati, baxt va muhabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o'rganishi esa unga o'zisha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o'ziga xos o'quvchilik egotsentrizmining shakllanishiga - butun olam va uning qonuniyatlari unga bo'ysunishi kerakligi fikrining paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o'quvchilik paytida o'quvchilar o'z ota-onalari bilan hadeb tortishaveradilar.

Shunday bo'lishiga qaramay, o'quvchilik yuqorida ta'kidlanganidek, qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar «inqirozlar, tanazzullar» davri ham deb ataydilar. Sababi – o'quvchi ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ko'p bo'ladiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, uni hal qilish imkoniyati, kuchi va aqli yetishmaydi. Shularning barchasi o'quvchilik davridagi ruhiy tug'yonlarga sabab bo'ladi. Lekin shularga qaramay, o'quvchi o'zi bilib, bilmay o'z aqliy salohiyatini o'stirishga tirishadi, chiroyli fikrlashga tashna bo'ladi va bu uning psixik taraqqiyotidagi eng muhim o'zgarish

hisoblanadi. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichga ko'tarilishini bildiradi. Kamol topish o'quvchidan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtasidagi ishki munosabatlarni o'rnatish muhim qonun, xossa, mexanizm va tushunchalarni anglash, ihtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini-o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi. O'quvchi yoshi uchun qiziqishning kengligi va turli-tumanligi juda katta ahamiyatga ega. Bilishga bo'lgan qiziqishlar keng, barqaror va shijoatli tus oladi. Bilish faoliyatiga qaratilgan va u bilan bog'langan o'qish, mutolaa qilishga qiziqish rivojlanadi, ishda fikrni jamlash malakasi, mantiqiy eslab qolishning turli usullaridan foydalanish shakllanadi. Aqliy faoliyat nisbatan faol, mustaqil rivojlanadi. [2.11.95]

Fikrlash faoliyati — umumlashtirish va abstraksiyalashning oliy darajasiga ko'tariladi, hodisalarning sababiy bog'lanishlarini ongli ravishda fahmlaydi, tanqidiylik rivojlanadi. Mana shu yerda o'quvchining qiziqishlari qobiliyatning o'sishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. O'quvchilarda paydo bo'la boshlagan qiziqishlar ma'lum bir to'garakni tanlashda aniqlanadi, to'garaklardagi mashg'ulotlar vaqtida esa bu qiziqishlar o'sib mustahkamlanadi, ansha barqaror tus olib boradi.

Albatta, to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziyoq o'quvchilardagi qiziqishlarni o'stirib boradi. Har qaysi o'quv fani va har qaysi bilim qiziqarlidir. O'quvchilarda qiziqish paydo qilish va uning barqarorligini saqlab qolish uchun avvalo o'qitilayotgan darslarning yorqin va jonli bo'lishi, noan'anaviy darslarni to'g'ri tashkil etilishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, innovatsion texnologiyalardan va interaktiv metodlardan foydalanib, ularni amaliyot bilan bog'lab borish, so'ngra esa o'qib o'rganilayotgan fanlarni turmushning turli sohalaridagi ahamiyatini to'g'ri, ilmiy asosda asoslab berish katta ahamiyatga egadir.[2.22.319]

O'quvchilik davrida fanga bo'lgan qiziqish mustahkamlanish bilan birga,

kelajak kasbga birmuncha barqaror qiziqish shakllana boshlaydi. Har bir o'quvchining qiziqishlari keng bo'lishiga qaramay, ma'lum faoliyatga layoqati bo'ladi. Bu layoqat ham, ta'lim-tarbiyadan, faoliyatdan tashqarida kamol topmaydi. Ko'pincha o'quvchi o'z layoqatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va layoqatiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Lekin, shunday bo'lsa-da, o'quvchi o'zini nima qilib bo'lsa ham hech bo'lmaganda tengqurlar tomonidan tan olinishiga erishishga intiladi. Agar mabodo o'quvchi shu davrda biror sabab bilan tengqurlari, kattalar tomonidan inkor qilinsa, u bunga juda katta mudhish voqeaday qaraydi, qiziqishlari so'na boshlaydi va hatto yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bunday davrdagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli va foydali yo'li bu uning biror narsaga turg'un qiziqishiga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir. Mustaqil fikrlashlariga halal bermaslik kerak. Masalan, shu davrda o'quvchi texnikaga qiziqib qolgan o'quvchi qiziqishini qondirish uchun shart-sharoitining yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakatini rag'batlantirish, unga bir ish qo'lidan keladigan odamday munosabatda bo'lish pedagogik ahamiyatga ega. Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga yangidan-yangi maqsadlar qo'yish o'quvchi qobiliyatining shakllanishiga asosdir. Shundagina uning o'zi to'g'risidagi tasavvurlari ijobiy, o'z-o'ziga bahosi adolatli bo'ladi, uning tak tubida yashirinib yotgan layoqatlari yuzaga chiqib, biror faoliyatga bo'lgan qobiliyati namoyon bo'ladi.[2.11.95]

O'quvchi o'g'il-qizlar shaxsining kamol topishida o'zini anglashi muhim ahamiyatga ega. Shunki o'zini anglash jarayonida o'ziga berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular esa o'quvchilikning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatining shakllanishiga ta'sir qiladi. O'quvchidagi kattalik hissi ijtimoiy axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi.

O'quvchilik davri o'ziga xos ijtimoiy guruhni tashkil etadi. U hayot, mehnat va tajribalarning muhim sharti, ijtimoiy xulq va psixologiyasi, yo'nalganlikning muhim tizimi sifatida tavsif qilinadi.

O'quvchilik davrida insonning hayot va mehnat faoliyati belgilab olinadi, uni mustaqil mehnat faoliyatiga bo'lgan to'laqonli qobiliyatli qiladigan psixik, g'oyaviy yetuklik darajasiga erishadi.

O'quvchi o'g'il va qizlar shaxsi o'zlari o'rin egallay boshlagan jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi yangi muhit ta'sirida qaror topadi.

O'quvchilik davridagi asosiy faoliyat turi o'rganish, ta'lim olish, ishlab shiqarish mehnatidir. Bu jarayonda o'quvchi o'g'il va qizlarning aqliy rivojlanishida xarakterli o'zgarishlar yuz beradi, mehnat va o'rganishga bo'lgan ongli munosabat ham oshadi, kelgusidagi mehnat faoliyatida olingan bilim, malaka va ko'nikmalar unda to'laqonli qatnashish uchun zarur shartlardan biri degan onglilik shakllanadi.

Fikrlash faoliyatining rivojlanishi nazariy tafakkurning shakllanishiga, tabiat va jamiyatning umumiy qonunlarini bilishga, falsafiy kategoriyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatning shakllanishiga omil bo'ladi.[2.38.36]

O'quvchilik yoshidagi psixik rivojlanishning asosiy xislatlaridan biri dunyoqarashning shakllanishidir, shuningdek, turli bilim sohalari va faoliyatning har xil turlarida ijodning rivojlanishi ham ajralib turadi.

O'quvchilik davri hayotning xilma-xil jihatlariga bo'lgan xissiy va emotsional munosabatlarning boyligi va rang-barangligi bilan xarakterlidir.

O'quvchilik davri xususiyatlari tahlilida faoliyatga alohida ahamiyat beriladi.

Faoliyat deb insonning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisiga aytiladi.

Sotsiologlar, faoliyatni o'rganib uni quyidagi asosiy guruhlariga ajratadilar: ijtimoiy xarakterli, maqsadga yo'nalganlik, rejalilik, davomiylik.[2.32.2]

O'quvchilik davri faoliyatining ijtimoiy xarakteri shundaki, ular bu davrda jamiyat tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy mehnat jarayonida erishilgan barsha bilimlarni o'zlarining sa'yi-harakatlari bilan o'zlashtiradilar va takomillashtiradilar.

Faoliyatning maqsadga muvofiqligi o'zining asosiy maqsadi kasbiy malaka va ko'nikmalarni egallash uchun ongli va muntazam intilishini bildiradi.

Faoliyatning rejaliligi esa bu davrdagi barsha sa'yi-harakatlar shunday tizimga ega bo'ladiki, unda ular o'zaro bog'langan, ma'lum bir tartibda joylashgan, muvofiq ravishda reja asosiga ko'rilgan bo'ladi. Faoliyatning izshilligi doimiy ravishda ma'lum bir vaqt jadvali asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

O'quvchilarda o'zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, ahloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi. O'quvchi kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi.

Demak, o'quvchida qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.[2.16.8]

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u o'quvchiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari sistemasi shu talablarga javob bera olsa, o'quvchi faoliyatni muvaffaqiyatlilik bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatini ko'rsata oladi.

Demak, o'quvchilik davri ehtiyojlari doim o'sib borish xarakteriga ega.

Ular nafaqat o'quv faoliyatini, balki ma'naviy va moddiy hayotni qamrab oladi.

Shaxsning dunyoqarashi tabiat, jamiyat, insoniyatga bo'lgan e'tiqodlari, ilmiy qarashlari asosida yuzaga kelgan tizimdir. Dunyoqarash shaxsning botiniy holati, hayot maqsadlari, qiziqishlari, munosabatlari, tutgan mavqelari bilan belgilanadi.

O'quvchilik davri – shaxsning shakllanishida muhim davr hisoblanadi.

O'quvchi o'g'il va qizlar hayoti hamda faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o'quv – ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo'lg'usi mutaxasis shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazadi.

IX sinf bitiruvchilar o'quvchi yoshda bo'lib, ularga akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishni mustaqil tanlash imkoni berilgan. Har bir o'quvchi o'z layoqatini, qobiliyatini bilib, ta'limni davom ettirishi maqsadga muvofiqdir. Xoh akademik litseyda, xoh kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan har bir o'quvchi o'zining ijobiy sifatlariga ega bo'lish bilan birga, undagi yo'q

sifatlarni ham shakllantirmog'i lozim[2.40.2].

Shaxsdagi ijobiy sifatlarni shakllantirish undagi qobiliyatlarni yuzaga chiqarish uchun zamin yaratadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, pedagog o'quvchilar bilan o'zaro muloqot jarayonida albatta ularning qadriyatlari tizimini, o'zini kasbga intiluvchanligi hamda onglilik darajasini e'tiborga olishi lozim bo'ladi.

Inson yuksak qadriyatlar hamda maqsadlarga asoslanmas ekan, o'z kasbiy mahorati hamda shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jarayonlari «ahamiyatini anglab yetmaydi, oqibatda esa pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi munosabatlari to'laqonli amalga oshmasligi mumkin.

Professor U.N. Nishonalievning fikriga ko'ra, to'g'ri tarbiyaga molik umuminsoniy ijobiy xislatlarni olti qirrali deb tasavvur etish mumkin. Bular:

Birinchidan, shaxsning umumiy xislatlari: yoqimlik, ko'rkamlik, jozibadorlik, basavlatlilik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, jiddiylik va boshqalar.

Ikkinchidan, shaxsning axloqiy xislatlari: insonparvarlik, g'amxo'rlik, samimiylik, o'quvchijonlik, kechirimlilik va boshqalar.

Uchinchidan, ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, halollik, uddaburonlik, serharakatlilik va boshqalar.

To'rtinchidan, zukkolik, idroklilik xislatlari: zehnlilik, xotirjamlik, farosatlilik, sezgirlik, topqirlik, qiziquvchanlik, dadillik va boshqalar.

Beshinchidan, sobitlik xislatlari: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, intizomlilik, barqarorlik, erksevarlik va boshqalar.

Oltinchidan, ehtiroslilik xislatlari: nekbinnilik, ko'tarinkilik, kulib turuvchanlik, ishonuvchanlik, kelajakka ishonch, uyatchanlik, iffatlilik va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxs sifatlarini shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma mamlakatlar ham ana shu ijobiy xislatlarni o'z xalqida shakllantirishga harakat qiladi. Ana shu ma'noda tarbiyaning umumiy maqsadi dunyo pedagogik jarayonida yagona maqsadga - umuminsoniy

xislatlarni shakllantirishga qaratiladi.[2.3.192]

Odatda, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faqatgina bitta, eng asosiy xususiyatga e'tibor berish bilan cheklanib qolish, ko'zlangan maqsadga erishish imkonini bermaydi. Shu sababli bu o'rinda o'quvchi shaxsining barsha sohalardagi faoliyat ko'rsatkichlarini umumiy majmua sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog'ini oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Qo'yilgan vazifani hal qilish uchun o'quvchi qobiliyatlarini yuqorida tahlil qilib, qobiliyatli o'quvchilarda quyidagi sifatlar bo'lishini aniqladik:

- muammolarni ilg'ashdagi ziyraklik;
- mantiqan fikrlash saviyasining yuqoriligi;
- bilim va ko'nikmalarni oson qabul qilishi;
- o'z fikrini to'g'ri va batafsil ifodalashi;
- diqqatni kengroq taqsimlay olishi;
- hozirjavoblik;
- muammoni tahliliy baholay olishi;
- topqirlik;
- nutqning ravonligi;
- qiziquvchanlik;
- ishni oxirigacha yetkazishi;
- tafakkurning moslashuvshanligi va boshqalar.

Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri fan, texnikaning rivoji, uning zaminida esa kasbiy tayyorgarlik darajasi va bu kasbiy tayyorgarlik ularning shaxsiy sifatlariga munosib kelishi ushbu muammo yechimining bosh omili hisoblanadi. Bu muammo ta'lim tizimining islohoti va kadrlar tayyorlashning sifatiga bevosita aloqadordir.[2.9.98]

Yoshlarning o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini, bilim va intellektual salohiyatlarini to'liq namoyon etishlari hamda ulardan ijtimoiy hayotda o'rinli foydalanishlari uchun ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabning har bir bitiruvchisi, o'zining kelajak soha faoliyatini to'g'ri tanlashi va kelgusi ta'lim yo'lini belgilashi lozim. Bu jarayonda shaxsning o'z sohasining malakali

mutaxassisi sifatida shakllanishida uning shaxsiy sifatlari birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsiy sifatlar esa individ dunyoga kelgandan so'ng oila va uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ijtimoiylashib borishi jarayonida shakllantiriladi.[2.6.204]

Biz bugungi kunda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishning boshlang'ish, tayansh nuqtasi kasbga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etish deb bilamiz. Buning uchun o'quvchining egallagan yoki shug'ullanayotgan kasbiy faoliyatini to'g'ri tanlanganligi va ayni paytda o'quvchining o'zi kasbiy talablarga qay darajada javob bera olishi bilan belgilanadi. Demak, o'quvchini umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga o'tish davrining dolzarbligini ta'kidlovshi qobiliyatni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosini hal etilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishdan ko'zlangan samarani berishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.[2.9.118]

1.3. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashda qobiliyat va iqtidori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda ko'pgina psixologlar iqtidorning rivojlanishi-bu nasl (irsiy layoqat) va ijtimoiy muhit (o'yin, o'qish, mehnat jarayonlari) ning o'zaro murakkab ta'siri natijasida ekanini tan olmoqdalar. Lekin, shu individual iqtidorni shakllanishi asosida yotuvchi bilan birga shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalashning psixologik mexanizmlarini rolini inkor etib bo'lmaydi.

Psixologlar kreativlikni (ijodiy potensial) iqtidorning muhim va mustaqil omili deb hisoblaydilar. Amerikalik psixolog G. Torrens kreativlikni noaniq va informatsiya tanqisligida zo'riqishni bartaraf etishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasida yuzaga keladigan jarayon deb izoh beradi. Bu jarayon o'zida muammoni aniqlashtirish, farazni tekshirish kabi holatlarni mujassamlashtiradi. Bunda kutilmagan yechimlarni topishga yordam beruvchi diverent tafakkur, ijodiy samaradorligini ta'minlash uchun o'zida shaxsning o'rtadan yuqori intellektual darajasini mujassamlashtirgan kreativlik muhim ahamiyat kasb etadi, qolaversa, iqtidorli o'quvchilarning ijodiy potentsiallarini namoyon qilishlarida ularning motivatsion shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy muhit ham xal qiluvchi rol o'ynashi ko'pgina tadqiqotlarda isbotlangan. Dj. Renzulli konsepsiyasiga muvofiq, iqtidor 3 elementning o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadi: o'rtadan yuqori darajadagi intellekt, kreativlik va masalalarga jalb bo'lganlik.

Iqtidor – bu hayot davomida psixikani rivojlanish tizimidir. Bunda iqtidor u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda kuzatiladi.

Iqtidor – bu muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovshi qobiliyatlarning o'ziga xos shaklidir. Qobiliyatlarning o'zaro muvofiqligi boshqa qobiliyatlardagi kamshiliklarni to'ldirishga xizmat qiladi.

- Umumiy qobiliyatlar shaxs imkoniyatini, uning faoliyatini o'ziga xos jihatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi;
- Qobiliyatlarning layoqatini, tabiiy asoslarini xarakterini aks ettiradi;
- Faoliyatdagi muvaffaqiyatni namoyon qiluvchi ichki sharoitdan biri

talantdir. Iqtidorli o'quvchi-bu u yoki bu faoliyatda yorqin. Ba'zida uzluksiz muvaffaqiyatlari bilan ajralib turuvchi o'quvchidir.[2.29.5]

Iqtidorli o'quvchilar muammosiga oid munozarali mavzulardan biri, o'quvchilar iqtidorini namoyon bo'lishi chastotasidir. 2 ta nuqtai nazar bor: «iqtidorli» o'quvchilar kamdan-kam uchraydi. Ko'rsatilgan alternativlar quyidagi pozitsiyalar doirasida o'z yechimini topadi: turli faoliyat ko'rinishiga munosabatda iqtidorlilik potentsiali ko'pgina o'quvchilarda uchraydi, lekin yaqqol iqtidori namoyon bo'ladigan o'quvchilar sanoqlidir. [2.36.68]

U yoki bu o'quvchi ko'pgina faoliyat sohalarida aytarli muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Qolaversa, muayyan bir faoliyat ko'rinishida ko'pgina o'quvchilar o'zlarining layoqatlaridan kelib shiqib keng qamrovda yondashishlari mumkin. O'quvchining psixologik imkoniyatlari va yosh davrlari xususiyatlariga ko'ra turlicha iqtidor ko'rinishlari mavjud.

Iqtidorni namoyon bo'lishiga xalaqit beruvchi omillardan biri zaruriy bilim, ko'nikma, malakalarni yetishmasligidir. Agar o'quvchida zaruriy bilimlarni o'zlashtirilsa, uning iqtidori namoyon bo'la boshlaydi.

Ba'zi hollarda esa o'quvchi taraqqiyotidagi qiyinchiliklar ham uning iqtidorini niqoblab qo'yadi. Masalan, xavotir, qo'rquv, nizolar uning iqtidorini susaytirishi mumkin.

Shunday qilib, turli o'quvchilarda iqtidor turlicha namoyon bo'ladi. O'quvchi xulqini tahlil qilgan holda ota-onalar, psixologlar, pedagoglar o'quvchi iqtidorini «ochishga» yordam berishlari lozim.

Boshqa tomondan, iqtidorni namoyon qilish oilaning ta'minlanganligiga ham bog'liq. Bizga ayonki, moddiy ta'minlangan o'quvchilarda har tomonlama imkoniyatlar keng bo'ladi, shuning uchun iqtidorni namoyon qilish uning o'ziga bog'liq, kam ta'minlangan oila farzandlarida iqtidorni namoyon qilishga xohish bo'lgani bilan ayrim vaziyatlarda «qo'l kaltalik» qilib qolishi mumkin.

Iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos jihatlari bizning hayotimizni rang-barangligini ta'minlaydi va jamiyat uchun foydalidir.

Birinchidan, iqtidorlilarda hamma narsaga ta'sirchanlik kuzatilib,

adolatparvarlik hissi kuchli rivojlangan; ular ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritishga va o'zgartirishga qobiliyatli bo'ladilar.

Ikkinchi xususiyat, bilimni faolligi va intellektning yuqori darajadagi taraqqiyoti atrof-muhit haqida yangi ma'lumot olish imkonini beradi. Ijodiy qobiliyatlar ularga yangi konsepsiyalar yondashuvlarni yaratish imkonini beradi.

Iqtidorli o'quvchilardagi intuitiv, diskursiv (ijodiy) tafakkurning o'zaro muvofiqligi yangi bilimlar egallash jarayoni samarali bo'lib qoladi.

Uchinchi xususiyat, ko'pgina iqtidorli o'quvchilarga omma hayotida qiziqarli va muhim loyihalarni amalga oshirishga imkon beruvchi ijodiy qobiliyatlar va muhim bilimlarni egallashdagi yuqori energiya, maqsadga intiluvchanlik va qat'iyatlilik xislatlari xosdir. [2.12.71]

Iqtidorlilikni belgilari – bu iqtidorli o'quvchining real faoliyatida namoyon bo'luvchi va uning harakatlarini kuzatish natijasida baholanuvchi xususiyatdir. Iqtidorlilik belgilari faoliyatni amalga oshirish darajasi bilan bog'liqdir. Iqtidorlilik belgilarini muhokama qilishdan avval xohlayman va «qila olaman» tushunchalarini muhokama qilish kerak. Shuning uchun ham iqtidorlilik belgilari iqtidorni 2 muhim jihatini o'zida mujassam etadi: instrumental va motivasion, instrumental - bu uning faoliyati usulini xarakterlaydi. Motivasion - o'quvchi faoliyatining u yoki bu tomoniga, qolaversa o'z faoliyatiga munosabatini xarakterlaydi.

Iqtidorli o'quvchi xulqining instrumental jihati quyidagi belgilarda kuzatiladi.

1. Faoliyatning maxsus strategiyalarini mavjudligi iqtidorli o'quvchining faoliyat uslubi uning o'ziga xosligi va samaradorligi bilan farqlanib turadi, shunga muvofiq faoliyat muvafaqqiyatini uni amalga oshirish strategiyasi bilan bog'liq 3 asosiy darajasini ajratib ko'rsatilgan:

- faoliyatni tez o'zlashtirish va uni amalga oshirishda muvafaqqiyat;
- berilgan vaziyat yechimini topish sharoitida faoliyatning yangi usullarini qo'llash va yaratish.
- fanni chuqur o'zlashtirish natijasida yangi maqsadlarni ilgari surish, voqelikka o'zgacha nazar bilan yondashish.

Iqtidorli o'quvchilar uchun ko'proq 3 daraja xosdir.

- «Hamma narsani o'ziga qilish»ga asoslangan va iqtidorli o'quvchining o'zini - o'zi boshqarishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning o'ziga xos individual uslubini shakllanganligi faoliyat uslubining individualizatsiyasi faoliyat mahsulidagi g'ayrioddiylik elementida aks etadi.

- Iqtidorli o'quvchining bilim, ko'nikmalari yuqori darajada bir tizimga solingan bo'lib, bir tomondan ko'pgina ma'lumotlar yagona fakti ajrata oladi va ikkinchi tomondan, xususiy xulosa tahlillardan umumiy xulosa va tahlillarga osonlik bilan o'ta oladi.

- O'zlashtirishning maxsus tipi. U yuqori tezlikda va osonlik bilan yoki sekin va qiyinchilik bilan o'zlashtirishda namoyon bo'lishi mumkin, lekin bilim, tasavvur, ko'nikmalar strukturasining tez o'zgarishi bilan harakatlanadi.

Iqtidorli o'quvchi xulqining motivatsion jihati quyidagi belgilarda namoyon bo'ladi.

1. Qoniqish hissi bilan keshuvchi predmetli faoliyatning muayyan bir tomoniga yoki shaxsiy faollikning aniq bir shakliga nisbatan ta'sirchanlik.

2. U yoki bu fan yoki faoliyat sohasiga o'ta qiziquvchanlik qandaydir faoliyatga haddan ziyod e'tibor berish.

3. Bilim ehtiyoji va qiziquvchanlikning o'ta yuqori bo'lishi.

4. An'anaviylikdan qochish.

5. Shaxsiy faoliyat natijalariga haddan ziyod tanqid ko'zi bilan qarash, oliy maqsadlarga qo'ya bilish, komillikka intilish.

Iqtidorlilikni namoyon qiladigan psixologik xususiyatlar faqatgina iqtidorlik bilan kechadigan belgilar sifatida ko'rilishi lozim (ular, iqtidorlilikni yuzaga keltirmaydi), shuning uchun yuqorida sanab o'tilgan belgilar faqatgina iqtidorni mavjudligini taxmin qilishimizga imkon beradi, xolos.

Zamonaviy konsepsiyalarda intellekt ko'rinishlariga muvofiq iqtidor ko'rinishlari ham ajratilgan. Masalan, G. Gardner tomonidan namoyon bo'lishi xususiyatlariga ko'ra kinestik, makon mantiqiy - matematik musiqiy lingvistik va ijodiy iqtidor ko'rinishlari, Myunxen tadqiqotlarida esa iqtidorning kognitiv

omillardan xoliligi namoyish qilingan: intellektual, kreativ, ijtimoiy kompetentlik, musiqiy va sensomotor qobiliyatlar. [2.17. 67]

Iqtidorlikda sifatiy jihatlar bilan bir qatorda miqdoriy jihatlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtidorlikning sifatiy xarakterlarini tahlil qilish shaxsning u yoki bu faoliyat turida namoyon qiladigan maxsus psixik xususiyatlari bilan bog'liq iqtidorlikning miqdor xarakteristikasini tahlil qilish insonning psixik imkoniyatlarini namoyon qilish darajasi bilan bog'liq. Iqtidorlikni quyidagi mezonlarga binoan turlarga ajratish mumkin:

1. Faoliyat turi va uning psixik sohadagi o'rniga ko'ra turlari.
2. Shakllanganlik darajasiga ko'ra turlari.
3. Namoyon bo'lishiga ko'ra turlari.
4. Turli faoliyat turlarida namoyon bo'lishi kengligiga ko'ra turlari.
5. Yosh davr taraqqiyoti xususiyatlariga ko'ra turlari.

Faoliyat turlari va uning psixologiya sohalaridagi o'rniga ko'ra turlari faoliyatning 5 turi va psixologiya sohalarining o'zaro hamohangligi doirasida ajratiladi. Asosiy 5 faoliyat turlari: amaliy, nazariy, (bilim), badiiy-estetik, kommunikativ va ma'naviy-axloqiy psixik sohalar: intellektual emotsional va motivatsion-irodaviy. Shunga muvofiq, iqtidorlikning quyidagi turlari farqlanadi. Amaliy faoliyatda sportiv tashkilotshilik iqtidorini: bilim (nazariy) faoliyatlarda intellektual iqtidorni: badiiy-estetik faoliyatda xoreografik, sahnaviy she'riyat, rassomshilik va musiqiy iqtidorni; kommunikativ faoliyatlarda eng avvalo liderlik va attraktiv iqtidorni: ma'naviy-axloqiy faoliyatda esa yangi axloqiy qadriyatlar va insonlarga xizmat qiluvchi ma'rifatni yaratish iqtidorini ajratib ko'rsatishi mumkin.[2.32.40]

Iqtidorlikning har bir ko'rinishi o'zida psixologiya sohalarining borini mujassamlashtiradi, biroq faoliyat turi xususiyatiga ko'ra ularning darajasi har xil bo'ladi.

Ushbu mezon iqtidorga tizimli qarash imkonini yaratdi. Shu bilan birga faoliyat qobiliyatlarini namoyon qilish, shakllantirish vositasiga aylandi. Bir xil

iqtidor turi har bir individualda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. «Iqtidorni shakllanganlik darajasi» mezoniga ko'ra yaqqol va potensial iqtidor turlarini ajratish mumkin.

Yaqqol iqtidor – bu o'quvchining yosh va ijtimoiy qonuniyatlar bilan ishlagandagiga nisbatan faoliyatni bo'luvchi psixik taraqqiyotining erishilgan ko'rsatkichini psixologik harakteristikasidir. Bu vaziyatda keng qamrovli faoliyat turlari haqida gap ketmoqda.

Bunday iqtidor negizida o'quvchi talanti yotadi. Talantli o'quvchi – bu faoliyatni bajarishda ob'ektiv yangilik va ijtimoiy ahamiyati darajasiga javob beruvchi natijalarga erishuvchi o'quvchidir. Talantli o'quvchi faoliyati o'z ishining ustasi bo'lgan ekspertlar tomonidan baholanadi.

Potensial iqtidor – bu o'quvchining u yoki bu faoliyat turida yuqori psixik imkoniyatlarga erishishni belgilovshi psixologik xususiyatlar bo'lib, ayrim kamshiliklar tufayli ayni damda namoyon bo'lmagan iqtidordir. Ushbu potensialning rivojlanishiga atrofdagi salbiy omillar ta'sir qilayotgan bo'lishi mumkin (nomaqbul oila, noaniq motivatsiya, o'zini boshqara olmaslik va boshqalar). Potensial iqtidorni aniqlash uchun diagnostik metodikalarni qo'llash va zaruriy shoralarni ishlab chiqish ularning kelgusidagi taraqqiyoti uchun zamin hozirlaydi.

«Namoyon bo'lish shakli» mezoniga ko'ra oshkora va menirin iqtidor turlari bor: oshkora iqtidor o'quvchi iqtidorida xattoki noqulay sharoitlarda ham aytarli yaqqol va aniq ko'rinib turadi. O'quvchining intilishlari shunchalik ravshanki, uning iqtidoriga shubha qilish mumkin emas, shu bois bunday o'quvchilar bilan ishlashda mutaxassislar qiynalmaydilar.

Menirin iqtidor o'quvchi faoliyatida unchalik yorqin ko'zga tashlanmaydi, ko'pincha niqoblangan shaklda bo'ladi. Natijada o'quvchi iqtidori haqida noto'g'ri xulosa shiqarishi mumkin. Hesh kim xunuk o'rdakchani kelajakda shiroyli oqqushga aylanishini oldindan ko'ra bilmaydi. Aynan mana shunday o'quvchilar kelajakda yuqori cho'qqilarga erishadi.

Menirin iqtidorlilarni asosi sababi, u to'siqlarning mavjudligidan ular

o'quvchi iqtidorini namoyon qilishiga to'sqinlik qiladi, menirin iqtidor shakli o'z tabiatiga ko'ra murakkab fenomen sifatida namoyon bo'lishiga ko'ra betakrordir, ushbu iqtidor turini an'anaviy metodlari yordamida aniqlab bo'lmaydi, menirin iqtidor egalarini o'rganish uzoq jarayon bo'lib, u kompleks metodlari o'quvchi xulq - atvorini tahlil qilish natijasidan aniqlanishi mumkin.

«Turli faoliyat turlarida namoyon bo'lishi miqyosi « mezoniga ko'ra, umumiy (yoki aqliy) va maxsus iqtidorni ajratish mumkin. Umumiy iqtidorlikda turli faoliyat turlariga nisbatan munosabatda namoyon bo'ladi va uning samaradorligini ta'minlaydi.

Umumiy iqtidorning negizini o'zida emotsional, motivatsion - irodaviy sifatlarini mujassamlashtirgan aqliy qobiliyatlar yotadi. Umumiy iqtidor faoliyatni emotsional va motivatsion negizlarni sobit qadamlik va o'zini - o'zi boshqarish samaradorligi bilan muvofiqligi orqali aniqlanadi.

Maxsus iqtidor faqatgina muayyan bir faoliyat turida namoyon bo'ladi (sport, musiqa, she'riyat) umum iqtidor maxsus iqtidor bilan uzviy bog'liq. Umum iqtidor ta'sirida maxsus iqtidor namoyon bo'layotgan faoliyat yuqori darajada o'zlashtiriladi.[2.42.32]

«Yosh davri taraqqiyoti xususiyatlari» mezoniga ko'ra erta va kesh iqtidorni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu yerda o'quvchi psixik taraqqiyot va yosh davri muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olish zarurki, erta namoyon bo'lgan layoqat kelgusida namoyon bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga erta namoyon bo'lmagan iqtidor kelgusida yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin. Erta iqtidori namoyon bo'lgan o'quvchilarni «vunderkindlar» deb atash mumkin. Vunderkind (so'zma-so'z tarjimai «ajoyib o'quvchikay» - bu muayyan faoliyat turida musiqa, rasm shizish va boshqalar) maktabgacha yoki kishik maktab yoshi davridan yorqin muvaffaqiyatga erishgan o'quvchidir. Bunday o'quvchilar ishida intellektual vunderkindlar alohida o'ringa ega, ular 2-3 yoshdan o'qish - yozishni, birinchi sinf dasturlarini o'zlashtirib olishlari mumkin. Ularning bilish faolligi haddan ziyod yuqori bo'ladi.[2.18.11]

Yoshga bog'liq iqtidor faoliyat sohasiga ham bog'liqdir, san'at, ayniqsa,

musiqiy iqtidor juda erta namoyon bo'ladi. Tasviriy san'atga bo'lgan iqtidor esa undan keshroq namoyon bo'ladi. Ilmiy sohadagi iqtidor esa zaruriy bilimlar egallangandan so'ng namoyon bo'la boshlaydi. Bunda ayniqsa, matematik layoqatning o'rni katta.

Demak, har qanday iqtidor turlari muayyan bir mezonlar asosida klassifikasiyalanadi.

Shaxs faolligi qanchalik bo'lsa iqtidor ko'rinishi ham shunchadir. Shu bilan bir qatorda shuni ta'kidlash joizki, bularninig barini mazmun jihatdan yirik guruhlariga birlashtirib klassifikasiyalash mumkin. Har bir faoliyat guruhi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bir qobiliyatlar guruhiga ehtiyoj sezadi. Ushbu yondashuv natijasida AQSH ta'lim qo'mitasi 6 ta sohani ajratib ko'rsatadi: intellektual, akademik intilishlar, ijodiy tafakkur, muloqot va liderlik, badiiy faoliyat, psixomotor qobiliyatlar.[2.10.120]

«Maxsus qobiliyatlar» atamasi tadqiqotlardagi testologik yo'nalishida intellektni o'lchash birinchi o'ringa chiqqanida kirib keldi. Badiiy, musiqiy, texnik va boshqa shu kabi maxsus qobiliyatlar IQ ga qo'shimsha sifatida ko'rilgan. Vaholanki, «fan, texnika, musiqa va boshqa shaxs qiziqish sohasidagi ijodiy intilish har bir sohada qobiliyat va shaxs sifatlarini murakkab hamohangligini talab etadi» (A.Anastadi, 1983). Iqtidor haqidagi tasavvurlar u yoki bu faoliyatda namoyon bo'luvchi qobiliyatlar negizida yotadigan iqtidorlilik klassifikasiyasiga asoslanadi. De. Xaon va Xevixirst (1957) quyidagilarni farqladi: 1) ta'limiy «aqliy faollik» 2) ilmiy qobiliyat 3) ijod 4) ijodiy liderlik 5) tasvirlovshi, rassom, bunyodkor.

Doktor A. Gerstoun iqtidorli o'quvchilarni bir necha tipini ko'rib chiqadi:

- 1) O'z yoshiga nisbatan umumiy aqliy akselerasiyani ko'rsatuvchi IQ juda yuqori o'quvchi,
- 2) Maxsus sohalarni, ya'ni matematika, ta'lim va boshqalarda o'zini boshqalardan ustunligini ko'rsatuvchi o'quvchilar;
- 3) San'atga maxsus talanti bor yoki mexanika shaydosi bo'lgan o'quvchilar;

4) Originallik va tasavvuri boy - kreativ tip

Iqtidorlilik tiplariga bu nuqtai nazardan yondoshuvchi psixologlar ko'plab uchraydi.

Jahon psixologiyasidagi muhim yondoshuvlardan biri bu maxsus qobiliyatlarni umumiy qobiliyatlar bilan muvofiqligi muammosidir (B.M. Teplov, V. D. Shadrikov va boshqalar). [2.28.116]

B.G.Anan'ev bo'yicha maxsus qobiliyatlar jamiyat hayotining u yoki bu sohasida «faol va samarali faoliyatiga tayyorlikni ko'rsatuvchi muayyan bir shaxs sifatlarining sintezi» sifatida ko'rib chiqiladi. Alohida maxsus qobiliyatlar orasida o'zaro aloqa bo'lib, ularni birlashtirib turuvchi yagona manba - bu umumiy taraqqiyotning u yoki bu darajasidir. Umumiy taraqqiyot mahsuli - iqtidor yoki umumiy qobiliyatlardir.[2.5.168]

«Genetik planda umumiy va maxsus taraqqiyot shu bilan birga iqtidor va maxsus qobiliyatlar orasida o'zgarib, shakllanib boradi». Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida – mehnat, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, ikkinchisi bir ishni tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unum bo'ladi.

Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, kamyob usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz. Kishilarning qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi.

Qobiliyatlar to'g'risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ma'lumotlarini keltirish maqsadga muvofiq: a) qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlari ekanligi; b) mazkur xususiyatlar bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli emasdir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha «o'rta miyona» o'quvchi keyinshalik ijobiy tomonga o'zgarishi, boshqa sohada yuksak natijalarga erishishi mumkin.[2.5.106]

Ta'lim va ijtimoiy turmushda «yaproqsiz» deb baholangan insonlar keyinshalik biron-bir sohaning yetakshi mutaxassisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozimni egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da, lekin ular bilim, ko'nikma, malakalarga bevosita taalluqli emasdir, xuddi shu boisdan, ular bir-biri bilan o'zaro munosabat va nisbatan nuqtai nazardan tahlil qilinganida qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko'nikmalar mohiyat, mazmun, ma'no jihatidan bir-biridan tafovut qiladi.

Ushbu psixologik hodisani obrazliroq qilib tushuntirilganida bilim, ko'nikma, malaka mashqlanish tufayli egallaniladigan aniq voqelik deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning ruhiy olamidagi hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatidir. Qobiliyatlar imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatdagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanadi. Shaxsda namoyon bo'layotgan tasviriy san'at qobiliyati uning rassom sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi. Rassomlikni egallashi uchun maxsus ta'lim berilishi, tabiatga o'zgacha munosabati, idrok qilish hayoloti, shaxsiy fazilati, salomatligi, matolar, mo'yqalamlar, bo'yoqlar, moslama asboblari va boshqalar muhayyo bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tilgan vositalar, shart-sharoitlarsiz tasviriy san'at qobiliyatlari taraqqiy etmay turiboq ilk ko'rinishidayoq so'na borishi mumkin.

Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo'lmish bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan, ularning birligini e'tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga shiqadi, lekin shunda ham aynan shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos. Agar shaxs rasm solishni hali o'rganmagan bo'lsa, mabodo u tasviriy faoliyatning malakalarini uddalay olmasa, uning tasviriy san'atga nisbatan qobiliyatlari yuzasidan mulohaza yuritishga o'rin ham yo'q. Bularning barshasi bo'lg'usi rassomning ish uslubi, usullari, rang munosabatlarini qanchalik tez va oson o'zlashtirishida hamda borliqdagi go'zallikni idrok qilish, tasavvur etishida yuzaga keladi.[2.8.32]

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni

egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga shiqadigan farqlar qobiliyatlar to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsning faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga shiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; a) shaxsning muayyan sifatlar yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa, psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir. Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti sho'zilib ketadi, xolos.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir. Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barsha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi, balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Shuni uqtirish joizki, qobiliyatning tug'maligini inkor qilish mutlaq xususiyatga emas, albatta.[2.9.3]

Lekin qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olmaslik, miya tuzilishi bilan bog'liq differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qiladi, degan so'z emasdir.

Har bir shaxsda tug'ma layoqat nishonalari, ya'ni miya oliy nerv faoliyatining analizatorlarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Layoqat deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlariga aytiladi. Kelgusida biror bir qobiliyatni rivojlanishiga bo'lgan muayyan moyillik ana shunga bog'liqdir. Tabiiy anatomik, fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui shaxsning yuqori

cho'qqilariga ko'tarishiga sabab bo'ladi. Alohida yakka shaxs ma'lum tabiiy layoqatga ega bo'lsa, u holda o'ziga taalluqli qobiliyatlarni rivojlantirish nisbatan yengil keshadi. Shaxsning qobiliyati uning tug'ma layoqati asosida, muhitga bog'liq ravishda, olayotgan ta'lim-tarbiyaga qarab, shuningdek kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib boradi.

Tug'ma layoqat - tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga shiqqa oladi. Tug'ma layoqatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga, ona homilasida o'sish natijasi hamdir! Layoqat -kishidagi tug'ma imkoniyatdir.

Layoqat kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga etib, qobiliyatga aylanmaydi. Layoqat hali kishida «mudrab yotgan» imkoniyatlardir. Bu layoqatning «uyg'onib» yuzaga chiqish uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Qulay muhit kishidagi «mudrab yotgan» layoqatlarni uyg'otib, qobiliyat darajasiga ko'tarishi mumkin. Buni esa o'quvchilik shog'laridan shakllantirmoq kerak bo'ladi. Layoqatni xuddi uruqqa o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit bo'lmog'i darkor. Shaxsdagi tug'ma layoqatning o'sib, kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Ijtimoiy muhit layoqatning o'sib, kamol topishi qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Qulay muhit shaxsdagi mudrab yotgan layoqatlarni uyg'otib, qobiliyat darajasiga ko'taradi. O'quvchilar o'z o'yinlarida, odatda, kattalarga taqlid qiladilar. Taqlid qilish jarayonida o'quvchilarda ma'lum bir layoqatlar dastlab uyg'ona boshlaydi. Musiqachi, rassom yoki shoirlar muhitida o'sgan o'quvchilarning ko'pchiligidan layoqatning juda barvaqt uyg'onish sababi ko'proq ana shundadir.

Qobiliyatlarning shakllanishida bundan tashqari ishtiyoq va moyillik bilan ham bog'liq bo'ladi. Muayyan faoliyatga bo'lgan moyillik va unga bo'lgan qobiliyat, ko'pincha, bir-biriga mos keladi, birgalikda o'sadi. Shaxsdagi moyillik

ko'pincha, undagi mavjud qobiliyatlarning ko'rsatkichi bo'ladi.

Shaxsning qobiliyati faoliyatda o'sadi va tarkib topadi. Shuning uchun ham shaxs o'z faoliyatiga qanday munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Agar shaxs o'z ishini sevib, mehr bilan qilsa, u vaqtda shaxsning bu sohadagi salohiyatlari kuchliroq yuzaga chiqa boshlaydi, uning qobiliyati tezroq o'sib, shakllanib boradi. Ishga muhabbat qo'yish - ishga qiziqish-havas demakdir. Shu sababdan shaxsning qobiliyati uning qiziqish-havaslar bilan ham mustahkam bog'liq qiziqishning o'sib borishiga qarab shaxs qobiliyati ham o'sib boradi. [2.15.20]

Ayrim vaqtlarda kishining qobiliyati bilan qiziqishlari bir-biriga mos bo'lmasligi ham mumkin, masalan, kishi ma'lum bir sohada qobiliyat ko'rsatadi, ayni vaqtda boshqa bir sohaga ham qiziqadi. Bunday hodisa, ko'proq kishining qobiliyatlari hali to'liq tarkib topib yetmagan va oshkor bo'lmagan davrlarda uchraydi.

Shaxsning individual xislati bo'lgan qiziqish-havaslar uning hamma psixik jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, kishining bir talay xarakter xislatlari ham, shuningdek qobiliyatlarining o'sishi ham ma'lum darajada undagi qiziqish-havaslar bilan belgilanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shaxs qobiliyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ilk yoshlikdan o'quvchining o'zidagi mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, shart-sharoit yaratish, ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Ana shunda shaxsdagi qobiliyatlar shakllanib iqtidor, iste'dod darajasiga ko'tariladi. Tug'ma iqtidordagi orttirilgan sifat shuki, o'quvchi toki bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli layoqat ham layoqatligisha qolib, qobiliyatga, undan so'ng iqtidorga aylanmay qolib ketadi. Eng talantli, mashhur shaxslarning buyuk ishlari, erishgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga shanqoqlik yotgan. Shuni unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi layoqatini, qiziqishini bilmay turib kasb tanlagan bo'lsa, tabiiyki, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz

bo'lib ko'rinadi. Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qiziqish va layoqatini ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» faoliyat bilan shug'ullansa va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Oliy ta'lim lug'at – ma'lumotnomada iqtidor - tavsif jihatlaridan farqli o'laroq inson yoki insonlar guruhi ijobiy imkoniyatlarini belgilovshi qobiliyatlarning sifat jihatidan o'ziga xos uyg'unlashuvi. Iqtidor bir tomondan mulohazalilikning, aqlning, ichki sifatlar va irodaning rivojlanishi bo'yicha, boshqa tomondan bu qobiliyatlarning bilimi turli sohalarini o'zlashtirishga yo'nalganligi bo'yicha farqlanadi. Shaxsdagi ma'lum bir fan bo'yicha sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, uni biz shu fanga nisbatan iqtidori bor deymiz. Iqtidorli shaxs genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabusskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sidqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli shaxslardan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lmish imkoniyati bor, zero iste'dod - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. [2.16.44]

Iste'dod ijtimoiy tarixiy tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Demak, qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Ba'zi adabiyotlarda iste'dod - talant sinonim sifatida ishlatilgan. Talant (yunonsha talanton- qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat degan ma'noni anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyatlar majmuasidan iborat individual xususiyatdir. Shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasi talant deyiladi. Talantning asosiy belgilari: a) muvaffaqiyatni ta'minlash; b) faoliyatni mustaqil bajarish; v) originallik unsurining mavjudligi; g) qobiliyatlar majmuidan iborat ekanligi; d) individual psixologik xislatligi; e) ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyatligi kabilar. Qobiliyatlar kabi iste'dod ham faqat faoliyatda yuksak mahoratga va

anshagina muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatidan iboratdir. Qobiliyatlarning to'la-to'kis rivojlanishi iste'dodlarning uyg'onishi uchun zamin bo'ladi. Iste'dod - bu qobiliyatlar yig'indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Shaxsdagi yakka qobiliyatni, garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham, iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Shunday qilib, iste'dod shaxs psixik fazilatlarining shu qadar murakkab birikmasiki, uni qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan, hatto bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi juda qimmatli qobiliyat bo'lishiga qaramasdan, belgilab bo'lmaydi. Shaxsning iste'dodini o'rganish natijasida ba'zi bir juda muhim qobiliyatlarni aniqlashga erishish mumkin. Bunday qobiliyatlar yig'indisi aqliy iste'dod tuzilmasini tashkil etadi. Ana shunday yo'l bilan ajratilishi mumkin bo'lgan shaxsning birinchi xususiyati ziyraklik, shaylik, tirishqoqlik, doimo jiddiy tayyorgarlikdir. Darsda o'quvchi chalg'amaydi, hesh narsani e'tibordan chetda qoldirmaydi, javob berishga hamisha tayyor turadi. U o'zini qiziqtirgan narsaga butun vujudi bilan berilib ketadi. Yuksak iste'dodli o'quvchi shaxsining ikkinchi o'ziga xos xususiyati, uning birinchi xususiyati bilan bog'langan, shaxsning mehnatga tayyorgarligi mehnatga moyillikka, mehnatsevarlikka, mehnat qilishga nisbatan zo'r ehtiyojga aylanadi. Xususiyatlarning uchinchi guruhi intellektual faoliyat bilan bevosita bog'likdir. Bu tafakkurning xususiyatlari, fikrlash jarayonlarining tezligi, aqlning tartibliligi, tahlil va umumlashtirish imkoniyatlarining ko'pligi, aqliy faoliyatning yuksak mahsuldorligidir.

Umuman aqliy iste'dod tuzilishini hosil qiluvchi bu qobiliyatlar, iste'dodli o'quvchilar ustida olib borilgan ko'plab kuzatishlarning guvohlik berishicha, bunday o'quvchilarning ko'pchiligida namoyon bo'ladi va alohida olingan har bir qobiliyatning ifodalanganlik darajasi jihatidan ajralib turadi. Agar iste'dodning o'ziga xos farqlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular asosan qiziqishlarning yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Bir o'quvchi qandaydir izlanishlar davridan keyin matematikaga, boshqasi rasmga qiziqib qoladi, uchinchisi ijodga, to'rtinchisi mehnatga qiziqadi va hokazo.

Bu o'quvchilardan har biridagi qobiliyatlarning bundan keyingi taraqqiyoti

mazkur qobiliyatlarsiz amalga oshirib bo'lmaydigan aniq faoliyatlarda sodir bo'ladi. Shuning uchun ham maxsus iste'dod tuzilishi shaxsning yuqorida keltirilgan fazilatlarining uyg'un birligini o'z tarkibiga oladi va aniq faoliyat talablariga javob beradigan bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi.

Iste'dod o'zining umumiy va maxsus fazilatlari yig'indisi bilan yuqorida aytib o'tilganidek, ijodiy yutuqlar imkoniyatidan bo'lak narsa emas, u mahoratning dastlabki sharti bo'lib, ammo mahoratning aslo o'zi emas. Usta bo'lib yetishish uchun ko'p mehnat qilish kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilinmaydi, balki juda katta ijodiy, zo'r mehnatni talab qiladi. Butun insoniyat ko'z o'ngida shubhasiz iste'dodli bo'lib ko'ringan shaxslar hamisha - istisnosiz mehnat arboblari bo'lib ko'ringan. Mehnat tufayligina ular olamga taniqli bo'lganlar, mashxur mahorat darajasiga erishganlar. Mehnat jarayonida hayotiy tajriba, malaka va ko'nikmalarning zaruriy jamlamasi orttiriladi. Buningsiz hesh qanday ijodiyotning bo'lishi mumkin emas. Ijodiy faoliyat jarayonida kuchlarning alohida ko'tarinkilik paytlari, ilhomlanishning psixik holati muhim ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyatda mehnatga uning asosini tashkil qiluvchi ilhomlanishni qarama-qarshi qo'yish uchun hech qanday asos yo'q. Ilhomlanish bu ollohdan berilgan kuch, kashfiyot emas, balki mehnat bilan tayyorlangan taqdidragina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijodiy mehnatdir. Ilhomlanish diqqatning g'oyat kuchli barqarorligini, ilmiy, badiiy yoki texnik ijodkorlikda qaysi bir katta muammoni hal etishni taqozo qiladi.

Agar iste'dod imkoniyat bo'lsa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat, demakdir. Haqiqiy mahorat shaxs mahoratining faoliyatdagi ko'rinishidir. Mahorat faqat tegishli malaka va ko'nikmalar yig'indisidagina ochilib qolmasdan, balki paydo bo'lgan vazifani ijodiy tarzda hal etish uchun zarur bo'lgan istagan mehnat jarayonini malakali hal etishga psixologik jihatdan tayyorgarlikda ham ochiladi. Bu esa tashabbus ko'rsatishga, faol harakat qilishga, ijod etishga, yangiliklar yaratishga yo'llaydi. Qobiliyatlarning rivojlanishi shaxsning tarkib topishi bilan uzviy uyg'unlikka ega bo'lib, inson kamoloti yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarning birikuvini talab qiladi. [2.2.203]

Bizning fikrimizcha, kasb-hunar kollej iqtidorli o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni takomillashtirishda qobiliyat, iqtidor darajasigacha ko'tarsak ana shu yutug'imiz hisoblanadi.

BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Iqtidorli o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni takomillashtirish borasidagi olib borilayotgan tadqiqotimiz davomida pedagogik -psixologik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanish muammolari bilan B. Azizov, ijodiy jarayoninig turli jihatlari bilan K.A. Abulxanova-Slavskaya, N.V. Kuzmina, X.A. To'raqulov, talabalar ixtirochilik ijodkorligini rivojlantirish muammolari bo'yicha Sharipov Sh.S tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shaxsning shaxsiy sifatleri bo'yicha U.N. Nishonaliev, o'quvchilarning texnik ijodkorligi bo'yicha M.G. Davletshin, o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish bo'yicha N.Xalilova ish olib borganlar.

Pedagogikada ijodkorlik nazariyasining asoslarini ishlab chiqish, faoliyat turlarida qobiliyatlar jarayonlarining qonuniyatlarini tadqiq qilishda psixologiya fani beqiyos ahamiyatga ega. Jumladan L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.YA.Rubinshteyn, B.M.Teplov kabi olimlarining ishlarida shaxs, uning xususiyatlari, qobiliyatlarning rivojlantirish muammolari chuqur tadqiq kilingan.

O'zbek psixologlardan B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, V.Karimova, E.G'oziev, R.Asamova kabi olimlarda shaxs va uning xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, qobiliyat, iqtidor bo'yicha ish olib borganlar.

Shaxs imkoniyatlarini o'rganishga G'arb olimlardan T.Simon, F.Galton, Dj.Gilford, E.P.Torrens katta hissa qo'shganlar. Spirmen, Xermen, Kettel va boshqalar qobiliyatlarning miqdoriy tasnifi va ularni o'lchash muammosi bo'yicha izlanishlar olib borganlar.

Mavzularni yoritish jarayonida biz himoyaga olib chiqiladigan g'oyalarni tanlab oldik va ularni quyidagisha belgiladik:

- Barkamol shaxsni shakllantirishda sharq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni va ahamiyati.
- o'quvchilik davrida shaxs qobiliyatlarining shakllanishi;
- Iqtidorli o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni takomillashtirish birlamchi ahamiyatga ega ekanligi

II BOB. IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASHNING SHART- SHAROITLARI

2.1. Iqtidorni rivojlantirishda ta'lim metodlari va pedagogik

texnologiyalarning tutgan o'rni

Ta'lim amaliyotiga yangi atamalarning kirib kelishi, mavjudlikning esa ma'no va mazmun jihatidan yangilanib turishi, pedagogika fan taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim jihatlaridan biridir. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan biri sifatida bunday jarayon respublikamiz pedagogika fani va umuman ta'lim sohasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Pedagogik texnologiyalarni respublikamiz ta'lim tizimi mazmunini yangilashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholash mumkin. Biroq ba'zi hollarda mazkur atama ilmiy-pedagogik tushunchalarni tor psixologik muammolar, xorijda rasm bo'lgan konsepsiya yoki tuzilmalar bilan almashtirish uchun asos sifatida qabul qilinmoqda.

«Pedagogik texnologiya» atamasining o'ziga xosligini ifoda etuvchi texnologiya tushunchasi odatda ishlab shiqarish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi sifatida tasavvur etiladi va u ta'lim xodimlari uchun ham tub ma'noda yangilik emas. Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon pedagogika fani nazariyasi va amaliyotiga faol tatbiq etib kelinayotgan bo'lsa-da, mamlakatimizda bu jarayon faqatgina mustaqillik yillarida boshlandi. Ayni paytda, bu borada erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, ba'zi chalkashliklarning ham yuzaga kelganligini qayd etish lozim. Xususan, ba'zi o'qituvchilarda noan'anaviy tarzda tashkil etilgan dars jarayonida qo'llanilgan har qanday usul yoki metodlarni «pedagogik texnologiya asosidagi dars» sifatida baholashga nisbatan moyillik yuzaga kelmoqda. O'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darsni o'zlarining pedagogik texnologiya sifatida targ'ib qilish holati ko'zga tashlanmoqda. Aslida pedagogik texnologiya faqatgina metodni yangilash bilan izohlanmaydi. Bu ikki tushunchani o'zaro tenglashtirish yoki qarama-qarshi qo'yilishiga oid fikrlarning mavjudligi ularning mohiyatini to'laqonli talqin qilish zaruriyatini keltirib shiqaradi.[2.26.5]

An'anaviy yondashuvga ko'ra texnologiya xom ashyo yoki materialga ishlov berish, tayyorlash, shuningdek uning holati, xossalari va shaklini o'zlashtirishga qaratilgan metodlarning majmuasi sifatida e'tirof etiladi. Shunonshi, biron darsda o'quvchilar muayyan buyumni tayyorlash jarayonining texnologik kartasini ishlab chiqadilar. Ushbu texnologik kartada buyum tayyorlash uchun xom-ashyoni tanlashidan, uni pardozlashgacha bo'lgan barsha jarayonlar mohiyati bosqichma-bosqich aks ettiriladi, faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna hamda moslamalarni texnologiyalashtirish uchun uning qonuniyatlarini chuqur bilish va insonlarga xos xislatlar ta'sirini kamaytirish talab etiladi. Zero, buyum yasash jarayonining texnologik kartasini to'g'ri tuzish barcha o'quvchilardan bir darajada nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Bugungi kunda pedagogika fanlari, jumladan, didaktika, xususiy metodika sohasidagi ko'plab qonuniyatlar aniqlangan bo'lib, bu jarayonlarning texnologiyalari to'g'risida so'z yuritish mumkin. Ma'lumki, jarayonlar mohiyatini nazariy jihatdan anglab yetishda modelini qurish muhim bosqich sanaladi. Tadqiq etilayotgan jarayonlarning modeli aniq belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda tanlab olinadi. Modelni loyihalashda o'rganilayotgan hodisaning ba'zi belgilari, alomatlarini umumlashtirib olinishiga yo'l qo'yiladi. Shu kabi o'qitish jarayonini tadqiq qiluvchi izlanishlar odatda, bu jarayonni amalga oshirishda muhim o'rin tutuvchi o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatini asosiy ob'ekt sifatida qabul qiladilar. Chunonshi, fanlarni o'qitishning xususiy metodikasi ta'lim mazmuni, o'qitish maqsadi, shakl, metod va vositalari kabi tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi tizim ko'rinishida modellashtiriladi.[2.22.318]

Metod (yunonsha - metodos so'zidan olingan bo'lib, tadqiqot, tekshirish degan ma'noni beradi, yana aynan u yoki bu narsaga, haqiqatga yo'l demakdir) maqsadga erishish usuli, tartibga solingan faoliyat ma'nolarini anglatadi.

Ta'lim metodi ta'lim nazariyasining ajralmas qismi sanaladi. Xususiy metodikalarning vazifasi nazariy xulosalarni aniq tatbiqiy shaklga keltirishdan iboratdir. O'qitish texnologiyasi esa ta'lim jarayonining barcha o'zaro bog'liq

qismlarni tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, ularni bosqichlarga ajratish, amalga oshirish sharoitini belgilab berish, uni ro'yobga chiqarishning mavjud imkoniyatlari bilan qiyoslashga xizmat qiladi.[2.21.26]

Ishlab shiqarish jarayonlarini texnologiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad oldindan loyihalangan namunaga mos bo'lgan mahsulotni olishdan iborat bo'lganidek, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish davlatning ijtimoiy buyurtmasini aks ettiruvchi ta'lim darajasidagi shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Fanlarni o'qitish nazariyasi ushbu fanni o'qitishning metodik tizimini amalga oshirish qonuniyatlarini aniqlaydi, texnologiya esa ushbu tizim modelini amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi. Bu tahlitdagi yondashuvda texnologiyaning o'rnini oldindan ko'zlangan maqsadni tashxis qilish hamda uni amalga oshirishning shart-sharoitlarini aniqlash, ularni loyihalashtirishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, texnologiya ta'lim nazariyasi yoki metodikasi bilan o'rin almashmaydi, balki ularning asosida quriladi. Ayni vaqtda ular o'zaro bir-birini taqozo qiladi.

Fan taraqqiyotining zamonaviy bosqichida xususiy metodikalar mustaqil ilmiy soha sifatida tarkib topib, ularning o'z nazariy konsepsiyalari shakllanmoqda, ko'plab xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq qilinib, yangi tadbqiq sohalar yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, fanlarni o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish uchun mustahkam asosni yaratdi. Shuni qayd etish lozimki, ta'limni texnologiyalashtirish doimo amalga oshirib kelingan, biroq uning darajasi odatda o'z davridagi metodlarning rivojlanish darajasiga muvofiq bo'lgan. Ilgaridan qo'llanib kelingan holatlar, ya'ni mavzularning rejalashtirilishi, dars maqsadi va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi vositalar, nazorat materiallarini belgilash asosida mashg'ulotlar rejasining ishlab chiqilishi kabilar o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning ayrim ko'rinishlari hisoblanadi.[2.21.32]

Pedagogik texnologiya va ta'lim metodikasi tushunchalarining o'zaro qiyosiy tahliliga xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu ikki tushuncha o'qitish jarayoni tahlilining turli darajalarini ifodalaydi. Bu darajalar bir-birini taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonini samarali tartibda amalga oshirish,

boshqarish, ko'zlangan maqsad asosidagi natijalarga erishish imkonini yaratadi. Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi natijasida o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqishlari ortdi. O'tgan davrlardagi ta'lim tizimi avtoritar ta'lim metodlariga asoslangan edi, bu esa o'quvchini itoatkor, o'zgalar fikriga bo'ysunuvchan, yuqoridan berilgan vazifalarni so'zsiz bajaruvchi shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan edi. Hozirgi paytda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng miqyosidagi ta'lim islohotlari barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan demokratik ta'lim metodlari asosidagi milliy modelning joriy etilishi bilan ahamiyatlidir.

Demokratik ta'lim metodlari o'qitish jarayonida o'quvchi fikrining hurmat qilinishi, uni har bir tushunchani o'zlashtirishida faol mushohada etishi, o'qituvchi fikrini tahlil qilishi va o'zi asosli deb, topgan fikrlarnigina qabul qilishi mumkinligiga asoslanadi.[2.21.28]

Faol ta'lim metodlari ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimiz ta'lim xususiyatlari bilan omuxtalashtirish natijasida keng ommalashayotgan demokratik ta'lim metodlari turkumiga kiradi. U ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi fikrining o'zaro hurmat qilinishi, o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida yuqori darajadagi muloqot ko'nikmalarining shakllantirilishi bilan ahamiyatlidir. Faol ta'lim metodlarini qo'llash jarayonining xarakterli xususiyati shaxsning axborotlarni o'zlashtirishdagi barcha imkoniyat va malakalar umumiy majmua sifatida qarashidir. Ushbu o'rinda axborotlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga eshitish va ko'rish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ijodiy mushohada qilish, so'zlab berish, jismoniy harakatlar bajarish kabilar, malakalar sifatida esa loyihalash, harakatlanish, tasavvur qilish, nutq, sezgi organlari faoliyati nazarda tutiladi. Sanab o'tilgan imkoniyat va malakalar majmuasini faol ta'lim metodlari yordamida rivojlantirishda qisqa vaqtga mo'ljallangan, ta'lim mazmuniga ko'ra tizimlangan, barcha guruh a'zolarining faolligini ta'minlovchi mashqlardan foydalaniladi.

Faol ta'lim metodlarini amalga oshirishda foydalaniladigan mashqlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ta'lim oluvchilarning guruh shaklida ish olib borishiga yordam beruvchi muhitni yuzaga keltiruvchi mashqlar:

- guruh a'zolarining o'zaro yaqindan tanishib olishlariga;
- ta'lim oluvchilar ishining guruh shaklini qaror toptirishga;
- o'zgalar oldida o'z fikrini tortinmasdan, erkin bayon qilishga sharoit yaratadi.

2. Ta'lim oluvchilardagi umumiy qiziqish va ehtiyojlarni aniqlovchi mashqlar:

- ta'lim oluvchilardagi umumiy qiziqishlarini, moyilliklarini, qobiliyatlarini aniqlash yo'li bilan guruh a'zolarini o'zaro birdamlikda ishlashga;
- yangi a'zolarining guruh ishiga tezroq moslashib, o'z o'rnini topib olishiga ko'mak beradi.

3. Guruh a'zolarining yakdilligi va hamfikrligini, umumiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi mashqlar:

- guruh a'zolarining boshqa fikrlardan ozod bo'lib, guruh ishiga sho'ng'ib ketishi;
- guruh a'zolarida o'zgalar fikrini hurmat qilishi va o'z fikrini bayon qilish madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

4. Guruh a'zolarini ilhomlantiruvchi, yangi bilim sohalarini o'zlashtirishga yo'naltiruvchi;

- guruh ishini rag'batlantiradi;
- guruh a'zolarini yangi muammolar yechimiga ilhomlantirish uchun sharoit yaratadi.

5. Qobiliyatlarni rag'batlantiruvchi mashqlar:

- dunyodagi voqea-hodisalarga yangi nazar bilan qarash;
- shaxs o'zida yashiringan qobiliyat va iqtidorini yuzaga chiqarish, shaxs kamolotiga yo'l oshish imkonini beradi.

Mashg'ulotlar davomida mazkur mashqlar dars samaradorligining sezilarli ortishiga, mustaqil va ijodiy fikrlovchi o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda tabaqalashtirilgan ta'limni joriy qilinishi shaxsga nisbatan qo'yilgan talablarda uning intellektual va ma'naviy – axloqiy barkamol, qobiliyatlarini to'la namoyon eta oladigan darajada tarbiyalash zarurati paydo bo'ldi. Tabaqalashtirilgan ta'limning darajalari, mazmuni, shakli, vositalari, amalga oshirish metodlari, pedagogik hamda psixologik asoslarini aniqlash, o'quvchilar qobiliyatlarini individual yondashuv asosida rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.[2.20.27]

Iqtidorli o'quvchini aniqlash muayyan bir o'quvchi taraqqiyotini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan uzviy jarayondir. Iqtidorlikni qandaydir test orqali aniqlash mumkin emas. Shuning uchun iqtidorli o'quvchilarni bir vaqtda aniqlashdan ko'ra bosqichma - bosqich ularni ta'lim jarayonida, individual ta'lim jarayonida aniqlab borish zarur.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning axloqiy jihatlari bor.

O'quvchini «iqtidorli» yoki «iqtidorsiz» deb ajratish uchun oldindan sub'ektiv ko'rinishni inobatga olgan holda sun'iy ravishda o'quvchi hayotiga aralashish kerak. «Iqtidorli» va «iqtidorsiz» muvaffaqiyatlarini noto'g'ri prognozlash oqibatida kelib chiqadi. O'quvchilar iqtidori kattalar talantiga olib kelmasligi ham mumkinligini inobatga olish kerak. Shunga muvofiq har qaysi talantli kattalar o'quvchiligida iqtidorli bo'lmagan. (Mendelev misolida).

Yuqoridagilarni inobatga olib iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning quyidagi tamoyillarini ko'rsatish mumkin.


1. O'quvchi faoliyati va xulqini har tomonlama baholashning kompleks xarakterga ega ekanligi.
2. Uzoq muddatli kuzatish (o'quvchini turli vaziyatlarda kuzatish).
3. O'quvchining xulq - atvoridan maksimal darajada qiziqtiruvchi va moyilligi kuchli faoliyat sohasida xulq-atvorini tahlil qilish.
4. Rivojlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan trening usullarini qo'llash.
5. Iqtidorli o'quvchilarni baholash uchun ekspertlarni jalb qilish.
6. O'quvchi iqtidorini baholashda faqatgina uning psixologik taraqqiyotini aktual darajasini emas, taraqqiyotning yaqin zonasini ham inobatga

olish zarur.

7. Faoliyat mahsulini tahlil qilish « kuzatish, suhbat, ekspert bahosi, tabiiy eksperiment metodlarini qo'llash.

Iqtidorlilikni aniqlashda dastlabki bahoga tayanib bo'lmaydi. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash uchun kompleks yondashuv kerak. Bunda turli metodlarning keng ko'lami qo'llanilishi mumkin: o'quvchini kuzatishning turli variantlari psixodiagnostik treninglar o'quvchi xulqini ota-ona, o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan ekspert bahosi maxsus dastur asosida. «Sinov» darslarini o'tkazish, shuningdek o'quvchilarni maxsus o'yinli va predmetga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga jalb qilish o'quvchi ijodiy faoliyatini maxsus mutaxassislar tomonidan baholanishi intellektual olimpiadalarni tashqil qilish musobaqalar, tanlovlar uyushtirish orqali ularning xulq-atvorini kuzatish va tahlil qilish mumkin.

Ta'lim krassvordi.



Bo'yiga .

2. Ta'lim-tarbiya haqidagi fan.
3. Yuklash.
5. Muallim.
8. Qadimgi Gresiyada o'qituvchi nomi.
12. Pedagogika so'z.
14. Psixologik s.

Eniga

1. «...—yoshlar qo'lida».
4. «bola» - grek tilida.
6. U bollarni sevishi kerak.
7. «agogeyn» - o'zbek tilida.
9. Ta'lim nazariyasi.

10. Qobiliyatni o'stiradigan jarayon.


11. Chex pedagogi.

13. Pedagogika bilan aloqadagi fan.

15. 1-3 yoshlik davr.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomondan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Darslardagi interaktiv faoliyat beshta asosiy elementlardan tashkil topadi:



Interaktiv metodlarga ko'p tadqiqotchilar turlicha ta'rif berganlar. Jumladan, taniqli texnolog O'tkir Tolipov shunday ta'rif beradi, "Interaktiv usullar har bir kishining fikri chiqishlarini boshqalarnikidan ustun qo'yilishini inkor etadi. Har bir shaxsning o'ziga xos qarashi, fikri xulosasi borligini inobatga oladi va o'zaro hurmat qilishni ta'minlaydi"¹. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlaga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

V.YA.Lyaudis o'qitishning faol metodlarini quyidagi guruhini ajratadi:

- 1) dasturlashtirilgan o'qitish metodi;
- 2) muammoli ta'lim metodi;

¹ Tolipov.O'.Q. "Oqituvchilar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar". T.Sharq 1998y

3) interaktiv ta'lim metodi.

Interaktiv o'qitish metodlari shaxslarning o'zaro hamkorligi va munosabatlariga qurilgan bo'ladi. Ta'lim ijtimoiy jarayon sifatida ko'riladi.

Mazkur metodlarning har birida o'ziga xos ko'rsatma vositalari mavjud:

- 1) dasturlashgan ta'lim - dastur algoritmlar
- 2) muammoli ta'lim - muammoli vaziyatlar, evristik dasturlar
- 3) interaktiv ta'lim - guruhliy munozara, o'quv-rolli o'yinlar, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat.

Interaktiv metodlarning afzalligi, samaradorligi shundaki, darslarda o'quvchilar g'oyalar, qarashlar va berilgan baholarga o'z fikrlarini bildiribgina qolmay, balki o'quvchilarning ulkan ma'lumot salohiyatlarini faollashtirish va o'quv jarayonidagi ijobiy vazifaga taalluqli musobaqada o'z kuchidan to'la foydalanishni taqazo etadi: guruhning intellektual kuchi 1 ta o'quvchining intellektual kuchi miqdoridan doimo yuqori bo'ladi.

Interaktiv o'qitish metodi auditoriyada sheriklik muhitini yaratish uchun aniq, imkoniyatlarga ega. U yaxshi dars o'tishning tayyor retsepti bo'lmasdan, mazkur o'qitish metodiga asoslangan ta'lim texnologiyasi o'qituvchini tinglovchilarining ijodiy muallifdoshi tartibida ishlashga o'rgatadi. Natijada o'quvchi hayotning, ishlab chiqarishning har qanday o'zgarishlariga ko'ra o'zini standart bo'lmagan xulosa va qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish malakasini egallaydi.

Interaktiv o'qitish metodi o'qituvchiga:

- dars mavzusiga o'quvchilarini qiziqtirish;
- o'quv materialini birmuncha mustahkam o'zlashtirilishiga erishish;
- analitik fikrlashni rivojlantirish;
- a'loqa o'rnatish, muloqotga kirishish malakasini shakllantirish;
- barcha o'quvchilarni o'quv faoliyatida faol qatnashishlari uchun sharoit yaratish;
- o'quv guruhida yoqimli, ma'qul ruhiy iqlim yaratish imkonini beradi.


F. S. M. U metodi

O`quvchilar jo`ja she`ri bilan tanishib bo`lgandan so`ng, ularni uch guruhga bo`lib, yangi mavzu bo`yicha tasavvurlarini aniqlab olaman.


I guruh	II guruh	III guruh
F- fikringizni bayon eting		
S- sabab ko`rsating		
M- misol keltiring		
U- umumlashtiring		

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Baliq skeleti” metodidan foydalanaman;


“BALIQ SKELETI” 1-gurux:



2-gurux:



3-gurux:



O'quvchilarning o'tilgan mavzuni yanada mustahkamroq egallashlari uchun quyidagi "Toifali charh" metodini qo'llayman.

Daryolar	Dengizlar	Irmoqlar
Sirdaryo, Amudaryo, Norin daryo, Temza daryo	Orol dengizi, Qora dengiz, O'rta yer dengizi	Ko'llar, kanallar, ariqlar, soylar, zovurlar.
XULOSA		

Biroq, iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga kompleks yondashuv ham kamchiliklardan xoli emas. Natijada tahlilda iqtidorli o'quvchi «tushib» qolishi yoki buning aksi, iqtidorsiz o'quvchi iqtidorlilar qatoriga kirib qolishi mumkin.

«Iqtidorli» yoki «iqtidorsiz» larni diagnostika qilishda ehtiyot bo'lmoq lozim, chunki birgina so'z o'quvchi shaxsiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ijtimoiy muhitning rolini inobatga olgan holda, iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning maxsus metodini yaratish talab etiladi.

Demak: iqtidorli o'quvchilarni aniqlash juda murakkab jarayon bo'lib, mutaxassislardan yuqori malakani talab qiladi.

Iqtidorni pedagogik diagnostika qilish muammosi. Zamonaviy pedagogikada iqtidorlilikni diagnostika qiluvchi yagona metodikaning o'zi yo'q. Kelajakda ham bunday metodikani bo'lishi ehtimoli kam, chunki shaxs iqtidori - bu serqirra fenomendir. U yoki bu metodning qo'llanilishi diagnostikaning aniq maqsadiga, iqtidorlikning kelib chiqish manbaiga bog'liqdir. Bu tasavvurlar kundan-kunga boyib, takomillashib boradi.[2.23.720]

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash metodlarini ishlab chiqish o'quvchilar intellektual taraqqiyotini individual farqlari psixodiagnostikasi doirasida olib borila

boshlangan. O'shanda shaxs intellektual taraqqiyotidagi darajalarni aniqlash va ularga ta'sir etuvchi faktorlarni farqlash uchun intellektning asosiy modellari ishlab chiqilgan.

Biroq, bir faktorli model mualliflari universal bo'lmagan va tor doira bo'lmagan faktorlar guruhini ham ko'rsatib o'tishadi. Keyinchalik esa intellektual taraqqiyotga turlicha ta'sir etuvchi ko'p faktorlar keng qo'llanilib, nazariyalar ishlab chiqildi.

Angliyalik psixolog Sh. Spirmen tomonidan shaxsning barcha qobiliyatlari umumiy va faqatgina bir faoliyat ko'rinishida yaqqol namoyon bo'luvchi maxsus faktorlar orqali aniqlanishi ta'kidlangan. Ushbu nazariyaga muvofiq psixologik testlarning maqsadi ushbu umumiy faktorlarni o'lchash bo'lishi zarur (m, Raven matrisalari).

Masalan, verbal omil so'z boyligini aniqlovshi testlarda ko'p so'zlar analogiyasini aniqlovchi testlarda kam va fazoviy munosabatlarni aniqlovchi testlarda umuman ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ayrim mualliflar intellektual qobiliyatlarni aniqlovchi asosiy faktorlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatadilar: fazoviy munosabatlardagi, sonlardagi, nutqiy materiallardagi harakat, qolaversa xotira va harakat tezligi, mazmunni simvolik tasvir va natijalarni sinflar, munosabatlar, tizimlar, xulosalar. Bunday klassifikatsiya o'zida 120 ta kategoriyaning har bir kategoriya esa bir yoki bir necha faktor yoki qobiliyatlarni mujassamlashtiradi. Gilford testining tuzilishi va tizimi shunga muvofiqdir: har bir yacheykada muayyan bir topshiriqlar beriladi.[2.12.77]

O'rta asrlarga kelib psixologik testlar yo'nalishida ijodkorlikni o'lchash avj oladi. Ko'pgina psixologlar shaxs ijodkorligi uning qobiliyati bilan sinonim emasligini va IQ shtlarida kamdan-kam holda aks etishini tan oladi. Shuning uchun ham o'quvchi va o'quvchilardagi iqtidorni aniqlash uchun ijodiy qobiliyatlarni baholash muhimdir. Uzoq yillar mobaynida ijod san'at asarlari yaratuvchilarning asosiy xususiyati sifatida qaralgan bo'lsa, hozirda ilmiy ishda, boshqaruvda, bank ishida va qator sohalarida uning roli ortib bormoqda.

Biroq, ijod tushunchasi va uning mezonlari haligacha noaniq va bahs

munozaralardir. Amaliyotda Dj.Gilford tomonidan asos solingan ijod xarakteristikasini, ya'ni intellekt strukturasini konvergent va divergent tafakkurga ajratish keng tarqalgan.

Agar konvergent tafakkur – bu uzviy mantiqiy jarayon, ya'ni qat'iy tartibda bosqichma-bosqich amalga oshuvchi va yagona to'g'ri yechimga olib keluvchi jarayon bo'lsa, divergent tafakkur esa – bu bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda muammoni hal qilish, aniq faktlar, isbotlar bilan cheklanib qolmaslik va o'z yo'lini bir necha bora o'zgargirish, mantiqiy uzviylik bo'lmagan hamda kutilmagan va bir necha muqobil variantlardagi echimini topish jarayonidir.

Ijodkorlikni aniqlovchi ko'pgina testlar divergent tafakkurga nisbatan qobiliyatni aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda aniq va to'g'ri javob emas, gayrioddiy, kutilmagan, ajabtovur javoblar muhim. Dj.Gilford o'zining intellekt modeliga muvofiq intellektni va divergent tafakkurni testlashtirish tizimini ishlab chiqdi. Ushbu tizimning keng qo'llaniladigan testlaridan biri - «Noyob tarzda qo'llash» testlar bo'lib, uni P.Torrens o'zining kreativlik testlari batareyasida ham qo'llagan. Shu bilan birga testdagi ko'rsatkichlar: verbal ijodiy tafakkurning tezligi, egiluvchanligi va originalligini P.Torrens, Dj.Gilford tadqiqotlarida ko'rsatilganidek tasniflaydi.[2.12.103]

Tezlik shakllangan og'zaki g'oyalar miqdoriga nisbatan qobiliyatlarda aks etadi va test talablariga mos keluvchi javoblar miqdori orqali o'lchanadi. Tezlik turli testlarda va bir testlarning turli topshiriqlarida turlicha bo'lishi mumkin va tafakkurdagi ijodiylikni xarakterlaydi.

Ijodiylik ijodiy tafakkurning ko'rsatkichlari bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, uning yuqori ko'rsatkichlari kreativlikning yuqori darajada ekanidan dalolat beradi. Yechim qidirish jarayonida qanchalik ko'p muqobil variantlar ko'rib chiqilsa, muammoni to'g'ri hal qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Tezlik ko'rsatkichida eng avvalo boshqa ko'rsatkichlar nimani anglatishini tushunish olish muhim; impulsiv, ahmoqona javoblar ham ushbu shkala bo'yicha yuqori ball olishini ta'minlaydi, lekin bunday javoblar egiluvchanlik, originallik shkalalari bo'yicha past ko'rsatkichga olib keladi. Shuning uchun ham

egiluvchanlik va originallik ko'rsatkichlarini tezlik ko'rsatkichi ajratib olib, har bir javobni alohida baholash maqsadga muvofiqdir. Tezlik ko'rsatkichi tormozlanishi yuqori inert, yetarlicha motivatsiyalangan sinaluvchilarda uchraydi.

Egiluvchanlik ko'rsatkichi muammoning bir jihatidan boshqasiga o'tishda turli g'oyalarni ilgari sura bilishda, qaror qabul qilishda turli strategiyalarni qo'llay olishda ko'rinadi. Ushbu ko'rsatkichning tezlik ko'rsatkichiga nisbatan munosabatini baholash maqsadga muvofiq, chunki turli- tumanlikning aynan bir ko'rsatkichi ilgari surilgan g'oyalar miqdorini bir xil emasligi bilan kuzatilishi mumkin. Tafakkurning ushbu tomonlari bir-biridan mustaqil bo'lishiga qaramay tezlik egiluvchanlik uchun yuqori chegara hisoblanadi.

Egiluvchanlikning past ko'rsatkichi tafakkurligidan kam ma'lumotlilikdan, intellektual taraqqiyotning pastligidan yoki past motivatsiyadan dalolat beradi. Yuqori ko'rsatkich esa buning aksini ifodalaydi, lekin egiluvchanlikning haddan ortiq yuqori bo'lishi tafakkurdagi yagona chiziqni ushlab tura olmaslikdan, sinaluvchining biridan boshqasiga sakrab yurishidan dalolat beradi.

Originallik hammaga ma'lum qat'iy o'rnatilgan g'oyalardan farqlanuvchi g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati bilan harakterlanadi. Originallik bo'yicha yuqori intellektual faolliklar va nokonformliklari bilan ajralib turadilar. Ular muammoni yechimini topishda katta aqliy «sakrashlar» yoki «kashfiyotlar» qilishlari mumkin, lekin bu impulsivlikni bildirmaydi. Chunki, yechimning originalligi xayratlanarli javoblarni yuzaga kelishini tormozlana olish qobiliyati bilan ham farqlanadi. Haddan tashqari original yechimlar javoblarning «antiqa»ligi ayrim psixik yoki nevrotik buzilishlardan dalolat beradi.[2.13.70]

2.2. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash darajasini aniqlashning pedagogik va psixologik diagnostika metodlari

Muammoning dolzarbligi va ahamiyati shundaki, iqtidorli o'quvchilar bilan «oddiy» o'quvchilar singari emas, ulardan farqli ravishda ishlash lozim-ki, bu ulardagi qobiliyatlarni yanada rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsin.

P.V.Tyulenev iqtidorli o'quvchilar muammosini dolzarb ekanini aniq ko'rsatib bergan: «...ushbu muammoni xal qilish o'quvchining kelajagini va oilaning baxtini belgilab beradi. Ota-onalar haqiqatni bilishni istamaydi va u berkitilgan bo'lishiga qaramay ular haqiqatni bilishlari zarur».[2.17.246]

1909-1910 yillarga kelib esa G.I.Rossolimo tomonidan iqtidorli o'quvchilarni diagnostika qilish tizimi yaratildi. Bu tizim o'zining to'liq va aniqligi bilan ajralib turardi. Bu tizim quyidagi asosiy funksiyalarni tadqiq qilishga qaratilgan:

- a) diqqat;
- b) iroda;
- v) idrokning yaxlitligi;
- g) eslab qolish;
- d) assotsiativ psixologiyaning tafakkur haqidagi qarashlariga muvofiq keluvchi assotsiativ jarayonlar.

Assotsiativ jarayonlarni diagnostika qilish quyidagi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi:

- 1) fikrlash;
- 2) kombinatsiyalashgai qobiliyatlar;
- 3) fikr tezligi;
- 4) tasavvur;
- 5) kuzatuvchanlikni baholash.

Bu jarayonlarni o'rganish uchun eksperimental psixologiyaning asosiy

manbalariga tayangan holda diagnostik masalalar ishlab chiqildi. Ushbu metodika yordamida iqtidorlilik darajasining dastlabki grafigi taqdim qilindi. Shunday qilib, bilish jarayonlarini diagnostika qilish va ularning darajasini baholash asosida XX asrga kelib iqtidorlilik darajasini baholashga urinishlar boshlandi.[2.29.70]

S.L. Rubinshteyn: «Iqtidorlilikni o'rganuvchi ko'pgina ishlar mavjud. Biroq, olingan natijalar bu ishga sarflangan vaqtni oqlamaydi. Bu ko'pgina tadqiqotlarning noto'g'ri ekani va ularda qo'llanilgan metodikalarning qoniqarsizligi bilan tushuntiriladi», deb yozadi. O'tgan ko'p yillar mobaynida ushbu muammo yuzasidan ko'pgina nazariyalar yaratildi.[2.25.209]

G.I. Rossolimo o'quvchilarda psixosomatik tadqiqotlar olib boriladigan o'quvchilar psixologiyasi va nevrologiyasi institutini tashkil qiladi. Uning rahbarligi ostida «Psixologiya va o'quvchi» jurnali nashr qilina boshlandi. 1912 yil G.I. Rossolimo Lomonosov jamiyatiga a'zo o'quvchilar orasidan yuqori iqtidorli o'quvchilarni saralab oladi.[2.7.128]

XX asr boshlariga kelib iqtidorlilik muammosini rus pedagoglari ham tadqiq qila boshladilar, ularning ilmiy-metodik maqolalarida qobiliyatlarning «yetishmasligi» yetakshi sifatining «tormozlanishi» ni yetishmasligi haqidagi g'oyalar ilgari suriladi. Keyinchalik esa ularning tadqiqot muammolari qatoridan quyidagi jarayonlar o'rin egallay boshladi:

- iqtidorlilarni rivojlanishning ijtimoiy shartlari;
- iqtidorlilik tushunchasini aniqlashtirish;
- iqtidorlilikni kelib chiqish va tuzilishi.

Rus olimi V.M. Ekzemplarskiy iqtidorli o'quvchilarni o'rganish uchun diagnostik metodika qo'llangan. U iqtidorli o'quvchilar uchun maxsus maktablar yaratish hamda ularni o'qitish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish lozimligini taklif qilgan. 1920- yillarning boshlarida tadqiqotchilar, ya'ni bu muammoni o'rganuvchilar faqatgina yaxshi taraqqiy etgan qobiliyatlarnigina o'rganishga moyil bo'lib, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qilishganligini ta'kidlagan. U iqtidorlilikni faqatgina intellektual soha bilan bog'langan tadqiqotlarga o'z tanqidiy munosabatini bildirgan. U o'z ishlarida shaxs iqtidorlilikini diagnostika

qilish muammosiga asosiy e'tiborini qaratgan.[2.2.203]

1920-yillar oxiri 1930- yillarning boshlarida iqtidorlilik muammosini o'rganishga doir ishlar birmunsha jonlanganligi kuzatiladi. Jumladan, katta xajmdagi psixologik diagnostik metodikalar, iqtidorlilikni aniqlovshi testlar ishlab chiqildi va amalga tadbiq qilindi. Bularning barchasi Yevropa, Amerika tadqiqotlari asosida amalga oshirildi.

Agar bu tushuncha Rossiyada og'zaki o'rganilgan bo'lsa, XX asrga kelib Amerika, Angliya, Germaniyada bu muammo chuqurroq o'rganilgan. Pedagog va psixologlar orasida iqtidorlilikni tuzilish komponentlarini o'rganish kuchaydi. Masalan, Germaniyada psixikaga ko'nikish va moslashishning eng yuqori shakli sifatida qaralib, aqliy iqtidorning muhim tarkibi sifatida qaraladi.

V. Shtern buni quyidagisha izohlagan: Aqliy iqtidor - bu tafakkurni yangi talablarga ongli yo'naltirish va yangi topshiriqlar va hayot sharoitiga moslashish qobiliyatidir. Bu izoh muammoni mohiyatini oshib bergan va iqtidorlilikni yangi topshiriq sharoitlariga moslashish sharti sifatidagi muammoni yechimini topib bergan. Ushbu tavsifnoma iqtidorlilik darajasini ajratishga imkon berdi.

V. Shtern ko'shimcha qilib: « Turli sharoit va sohalardagi yangi talablarga tez moslasha oladiganlar aqliy iqtidor egalaridir». Iqtidorlilikni aqliy faoliyat bilan bog'lash natijasida bilish jarayonlarini rolini ortishga irodaviy emotsional sohalar kabi individual tavsifnomalarni rolini cheklanishiga olib keldi.

1912 yilda V. Shtern o'quvchining xronologik yoshidan qat'iy nazar uning tengqurlari kabi «oddiy» o'quvchi ekanini isbotlovshi matematik tenglikni ishlab chiqdi. Natijada u oddiy hisob- kitoblar orqali xronologik yosh va aqliy yosh o'rtasida aloqa borligini isbotladi: u bu ko'rsatkichni intellekt ko'effitsienti deb nomladi (IQ).

U o'quvchining intellektual taraqqiyotidagi rivojlanishi yoki orqada qolishini inobatga olib, intellekt va intellektual farqlarni o'quvchi intellektual taraqqiyotini intensivligi va tempini tekshiradi.

Formula quyidagisha bo'lib, $IQ = (AYOL[YO] - 100) \cdot \frac{a}{b}$ aqliy yosh (AE) va (XE) xronologik yosh orasidagi muvofiqlik aniqlanadi.

Iqtidorlikni aniqlash uchun aqliy taraqqiyot shkalalari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri Bine-Simon shkalasidir.

Ushbu diagnostik shkalaning 2 ta muhim tamoyili uni yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Birinchisi, diagnosik topshiriqlar yordamida aniqlanuvchi barcha bilish jarayonlariga integral ekvivalentlarning topilganidan iborat. Ikkinchi tamoyil esa o'quvchining intellektual imkoniyatlarini, intellektual taraqqiyot bilan muvofiqligini o'z ichiga oladi.

Bu esa o'z navbatida iqtidorlikni bir qator faktorlar bilan bog'lab o'rganish imkonini berdi. 30- yillar boshlariga kelib, shkala L. Termen tomonidan modifikatsiyalangan Stenfor-Bine shkalasi Moskva, Kursk, Voronejlarda qo'llanilib sinovdan o'tkazilgan.[2.36.131]

Iqtidorlikni tadqiq qilish L.Termen izlanishlari orqali 1920- yillardan boshlangan bo'lsa ham, unchalik uzoq tarixga ega emas. Iqtidorli va talantli o'quvchilar bo'yicha butunjahon ittifoqining 1- yig'ilishidan keyingi 20- yillik nashr qilingan ilmiy ishlarni tahlil qilib shunday xulosaga keldik. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bir yoki bir nechta yosh davrlarni saralab olish metodi orqali amalga oshirilgandir. Bu metod sinaluvchilardagi iqtidorlik va shaxs sifatlarini yuqori darajadagi ishonchlilik bilan ko'rsatib beradi. Biroq ushbu metodga muvofiq iqtidorlikni individualligining hayot ta'sirida rivojlanishini o'rganish cheklangandir. Hujjat ma'lumotlariga ko'ra sinaluvchilarning va yaqinlarining xotiralari ko'pincha ma'lumot berishi mumkin. Bu metod longityud ma'lumotlar yig'ishga asoslangan bo'lib, iqtidorliklarning eksperimental guruhini osonlik bilan ajratib olinishi mumkin. Hujjatlarni tahlil qilish va xotiralar bir tomondan, individ iqtidorining maxsus xususiyatlarini boshqa tomondan uning muhitga, ta'lim- tarbiyaga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Yana bir tadqiqotchi L. Termen o'zining izdoshlari bilan birgalikda yuqori IQ ga ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilar bilan 40 yil davomida longityud tadqiqotini olib bordi. Bu va boshqa tadqiqotlar longityud metodining nazariy va amaliy muammolarni qayta ishlash uchun juda ahamiyatli ekanini ko'rsatdi.[2.29.58]

Iqtidor muammosini tadqiq qilish uchun olib borilgan izlanishlarda

longityud keng qo'llanilmokda. Qoidaga muvofiq bir yoki bir nechta sinaluvchi o'zoq yillar mobaynida uzluksiz kuzatiladi.

Longityud metodining yutug'i shundaki, u orqali iqtidorlilikning potentsiali sifatida namoyon bo'lib, aynan shu potentsialni qanday rivojlanishi, qaysi davrda qanday namoyon bo'lishini qayd qilib borish, unga ta'sir etuvchi turli omillarni o'rganish mumkin. Qolaversa, longityud metodi tadqiqotlarda eksperiment guruhidan o'zining iqtidorlilik ko'rsatkichi bilan farqlanuvchi nazorat guruhini bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Longityud metodining shuncha imkoniyatlari bo'lishiga qaramay iqtidorlilik muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning atigi 10% ida ushbu metod qo'llanilgan. Bu eng avvalo eksperimentlardan boshqa metodlarga qaraganda ko'p vaqt va kuch sarf qilganligi bilan bog'liq. Longityud metodini qo'llash uchun sinaluvchilar soni juda ko'p bo'lishi zarur, chunki yillar mobaynida ayrim sinaluvchilar turli sabablarga ko'ra guruhdan chiqib ketishi yoki eksperiment oxirida kutilgan natijani bermasligi mumkin, oxir-oqibat kam sonli sinaluvchilarning ko'rsatkichlari ahamiyat kasb etadi.

Longityud tadqiqotlarining birinchi va eng muhim vazifasi sinaluvchilarning iqtidorlisini ajratib olishdir. Ilgarigidan farqli ravishda hozirda IQ ni o'lchashda intellektning faktorliligi bo'yicha ishlab chiqilgan psixologiya konsepsiyalarida tan olinmoqda. Bu bilan bog'liq holda iqtidorning ham ko'p faktorliligi tan olinmoqda. Ko'pgina psixologlarning fikricha, kognitiv ahamiyatga ega bo'lmagan, shu bilan birga intellektga bog'liq bo'lmagan kreativlik iqtidorlikning faktori deb qabul qilinmokda. Qolaversa, ayrim psixologlar ijtimoiy muhit omillarini oilaviy sharoit, ta'lim dasturini inobatga olish muhim ekanini ta'kidlashmoqda.

Turli nazariy konsepsiyalar longityud tadqiqotlarning turli eksperiment shakllariga asos bo'lib xizmat qiladi va natijada ushbu nazariya qanchalik haqiqatga yaqin ekanligi, uni o'zgartirishga zarurat bor yoki yo'qligi aniqlanadi.

Longityud tadqiqot uchun iqtidorli o'quvchilarni saralashning eng mashxur mezon, bu jamiyat tomonidan uning imkoniyatlarini tan olinishidir: masalan, maktabni bitirishda yoki qandaydir ko'rik- tanlovda yutuqni qo'lga kiritib,

rag'batlantirilishi. Saralab olingan sinaluvchilar 8-15 yil mobaynida turli so'rovnoma va interv'yular orqali kuzatib boriladi. (1-4 yilda 1 marta). Qo'lga kiritilgan yutuqlar har doim ham iqtidorlilikdan dalolat bermaydi. Shuning uchun yuqoridagi saralash mezoni psixometrik metodlar: intellektual testlar, ijodiy va maxsus qobiliyatlar orqali to'ldirib, o'zgartirilib boriladi.[2.42.77]

Iqtidorli o'quvchilarni diagnostika qilishning asosiy tamoyili iqtidorlilik konsepsiyalari va yondashuvlarning o'zgarishi bilan o'zgarib borgan.

Hozirgi kunda iqtidorlilikni diagnostika qilish uchun ko'pgina testlar ishlab chiqilgan: intellektual qobiliyatlarni o'rganish uchun - Dj.Raven «Progressiv matritsalar»ning murakkablashtirilgan varianti iqtidorli o'quvchi uchun bilish qobiliyatlarining ko'p darajali testi (KRT) (K.Xeller va izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan), intellektual qobiliyatlarini ekspess - diagnostikasi metodikasi (MEDIS-6-7) (E. I. Sheblanova, I. Averina, E. N. Zadorina,). Kreativlikni o'rganish uchun Dj. Gilfordning «Noyob qo'llash ijodiy tafakkurning verbal testi» (Averina, Sheblanova,), P. Torrensning ijodiy tafakkur testi (TTST) (Sheblanova,)maxsus qobiliyatlarni aniqlash uchun testlar matematik, musiqiy, texnik, sensor, motorika uchun testlar va boshqalar(E. M. Borisova, 1987).[2.25.213]

Iqtidorning serqirra va sermazmunlilikini inobatga olgan holda kompleks psixodiagnostika o'tkazish lozim, ya'ni shaxsdagi intellektual qobiliyatlar maxsus qobiliyatlar va ijodiy tafakkur bilan birga shaxsning shaxsiy va motivatsion xususiyatlarini o'rganish zarur.

K.Xeller, K. Perlet, V.Siervalod iqtidorlilikni kompleks tarzda tadqiq qilish uchun quyidagilarni o'rganishni taqlif qiladilar:

- Intellektlar (kognitiv qobiliyatlar testi va o'qituvchining bahosi yordamida).
- Kreativlik (Dj. Gilford testi bo'yicha noyob usullarni, P.Torrens buyisha kreativlikni verbal iqtidorni aniqlovshi testlar va o'qituvchining bahosi yordamida).
- Ijtimoiy kompetentlik (so'rovnoma va o'qituvchining bahosi yordamida).

- Psixomotor qobiliyat (kompyuter testlari va o'qituvchining bahosi yordamida).
- San'at sohasidagi qobiliyat (o'qituvchining bahosi yordamida).
- Kognitiv bo'lmagan shaxs xususiyatlari (so'rovnomalar: bilimga tashnalik, omadga umid qilish, omadsizlikdan qo'rqish, xavotir, o'ziga-o'zi baho, o'quv uslubi).
- Muhit xarakteri (oilaviy va maktab muhitini o'rganuvchi so'rovnomalar yordamida).
- Intilish (turli sohalaridagi faollikni aniqlovshi, turli fandagi o'zlashtirishni ko'rsatuvchi so'rovnoma).

Longityud tadqiqotlarini qayta o'tkazish, olingan ma'lumotlarni to'ldirish va kengaytirish imkonini beradi.

Longityud metod orqali o'quvchilar iqtidorini uzoq yillar davomida o'rganilganligi tufayli uning yosh xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Ushbu tadqiqotlar doirasida iqtidorli o'quvchilarning intellektual ijodiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqildi.[2.27.16]

Iqtidorlilik muammosi bo'yicha jahon va xorij tadqiqotchilarining ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtidorli shaxsni ijodda o'zini universal, potensial imkoniyatlarini namoyon qilish deb tasavvur qilish keng tarqalgan. Demak:

- 1) Iqtidor tug'ma va intellektual voqelik deb tushuntiruvchi konsepsiya yangisi bilan almashdi.
- 2) Iqtidor yuqori intellektual bilan bir narsa emas, vaholanki yuqori intellekt iqtidorlilikning muhim shartidir.
- 3) Iqtidorlilikni muhim komponenti kreativlikdir.
- 4) Iqtidor insonning barsha shaxsiy sifatlarida ko'rinadi: qiziqishlari, motivlari, hislari, irodaviy xususiyatlari va boshqalar.
- 5) Shaxsning ijodiy potentsiali iqtidorlilikni asosini tashqil qiladi. Shu bilan birga u hayot tarzi ijtimoiy muhitning ta'sirisiz avtomatik tarzda namoyon bo'lmaydi.
- 6) Iqtidorli o'quvchilarni o'rganish uchun aqliy iqtidorning asosiy

komponentlarini, rivojlanishi dinamikasini o'rganishga imkon beruvchi- longityud metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir.[2.19.35]

Psixodiagnostika metodlari. Har bir shaxs, ayniqsa o'qituvchi iqtidorli o'quvchi haqida tushunchaga egadir, bu tasavvurlarni shakllanishiga bizning turli o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishimiz, ularni kuzatishimiz va o'zaro qiyoslashimiz asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu tasavvurlar sub'ektivlikdan yiroq emas. Qolaversa, iqtidorlilik haqidagi tasavvurlar jamiyat ehtiyojiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Turli tarixiy davrlarda iqtidorlilikning turli ko'rinishlari bo'lgan: qadimda jangovor qobiliyatlar qadrlangan. O'rta asrlarda g'arb falsafasida mantiqiy fikrlovshi e'zozlangan bo'lsa, bizning davrimizda muammoni hal qilishda yangilikka, noan'anaviylikka intilish, hayotiy shigalliklarni esha olish qobiliyati tushuniladi.

Agar biz 4 yoshli o'quvchini mustaqil kitob o'qiyotganini, 5 yoshli o'quvchini kompyuterda o'zining hikoyalarini terayotganini, 9 yoshli o'quvchini oliy matematika tenglamalarini yechayotganini ko'rsak, ularning iqtidorlilikiga shubha qilmaymiz.

Shunday ekan, diagnostika nima uchun kerak? Axir, hayratlarni isbotlash uchun emas-ku. Unutmaslik kerakki, o'quvchidagi iqtidorning namoyon bo'lishi uchun muayyan sharoit kerak va ular borasida eng muhimi - iqtidorni baholay oladigan, ko'ra oladigan, uni namoyon qilishga yordam beradigan insondir. Bu ilk o'quvchilik davridan muhim o'ringa egadir. Agar o'quvchi erta o'z tilida gapira boshlasa (gu-gu, ga-gu), qiziquvchan bo'lsa, muhitni faol o'rgansa, lekin bu intilishlar kengaymasa, to'xtab qolsa, bu odatda erta namoyon bo'lgan iqtidorning rivojlanmayotganidan dalolat beradi. Bunday hollar maktab yoshida ham kechishi mumkin.

Demak, o'quvchi iqtidori haqida gapirganda faqatgina faoliyat natijalariga u yoki bu sohadagi yutuqlariga qaramaslik kerak, chunki iqtidorli o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilish uchun imkon bo'lmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham iqtidorli o'quvchilarni izlash, ularning individual yosh, shaxsiy xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarur.[2.24.11]

Har qanday soha kabi psixodiagnostika ham yuqori malakani talab qiladi. Hozirda psixodiagnostika maktab amaliyotiga keng kirib borayotganligi bois, uning metod va yo'l-yo'riqlari bilan o'qituvchilar ota-onalarni tanishtirib borish zarur. Psixodiagnostika lotinsha so'zdan olingan bo'lib, shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish va o'lchash metodlarini ishlab shiquvchi sohasidir.

Kuzatish metodi. Iqtidorli o'quvchilarga yondoshishda ularning individual xususiyatlarini kuzatishimiz hesh napsara erishib bo'lmaydi. Kuzatish metodining yutug'i shundaki, u tabiiy sharoitlarda olib boriladi. Ob'ektni uni o'ziga bildirmasdan kuzatish mumkin.

Ushbu metodning yuzaga kelishida M.YA.Basovning xizmatlari katta. U kuzatish ob'ektiga nisbatan munosabatga ko'ra kuzatuvning 3 tip ustanovkasini ajratgan: 1 tip ustanovka - kuzatuv jiddiy maqsad asosida amalga oshirilib, faqatgina zarur sifatlarga inobatga olinib, qolganlariga e'tibor qaratilmaydi. 2 tip ustanovka - kuzatuvchi avvaldan qabul qilingan nuqtai nazardan holi bo'lib, kuzatiluvchi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish. 3 tip ustanovka - qandaydir tayyorgarlik bo'lmaganda va ob'ekt diqqat markaziga kelishi bilan kuzatuv boshlanadi Keyin esa olingan natijalar asosida iqtidorli o'quvchilarning dastlabki tavsifnomalari tuziladi.[2.18.38]

A.F.Lazurskiy ishlarida tavsifnomalarni rasmiylashtirishning 2 uslubini uchratish mumkin: ma'lum ketma-ketlik asosida ma'lumotlar tekshiruvi tuziladi, tavsifnoma oxirida - rezyume beriladi, tadqiqotchi avval keltirilgan sifatlarni emas, ayni vaziyatlarda yaqqol ko'ringan xislarni faktlar asosida isbotlab, ilgari surishi kerak.

Ekspert bahosi metodi. Tadqiqot jarayonida psixologik iqtidorli o'quvchilarni va nazorat guruhidagi o'quvchilarni baholash uchun ekspertlarni taqlif qilinadi: ota-onalar, tarbiyachilar, musiqiy xodimlar, sinf rahbari, fan o'qituvchilari ularga stimul varaqa beriladi, unda o'quvchi o'z talantini ko'rsatishi mumkin bo'lgan 10 soha xarakteristikalarini beriladi: intellektual, akademik o'zlashtirish, ijodiy, badiiy, artistik, musiqiy, texnik, harakatli, rassomlik, ij.

Ekspert har bir ko'rsatilgan xarakteristikalarini 5 balli tizimda baholaydi. Agar o'quvchiga qandaydir xarakter juda mos bo'lsa 5 ball, 2 ball - buning aksi bo'lsa qo'yiladi. (ballar 5,4,3,2).

Anketa metodi. Iqtidorli o'quvchilarning intellektual va ijodiy taraqqiyotini diagnostika qilish uchun ota-onalarga maxsus anketalar ishlab chiqilgan. Anketa savollarini tuzishda o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlanishi haqida turli-tuman ma'lumotlarni yig'ishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Anketa o'zida o'quvchining jismoniy rivojlanishi, bilish faoliyati rivojlanishi, o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari, o'quvchida ijodiy faoliyat va qiziquvshanlikning namoyon bo'lishi, muayyan bilim, ko'nikmalar, maxsus qobiliyatlarga ega ekanligi haqidagi savollarni mujassamlashtiradi. Anketa savollarida o'quvchi shaxsiga oid xususiyatlar borasida ham so'z yuritiladi. Muloqotshanlik, liderlikka intilish, maqsadga intilishda qat'iylik.

Anglangan ehtiyojlarni o'rganish uchun o'quvchiga V.S.Yurkevish tomonidan tuzilgan 2 ta anketa beriladi, ushbu anketa 5 ta savoldan iborat va anglangan ehtiyojlar yaqqol namoyon bo'luvchi, kuchsiz va juda zaif namoyon bo'luvchi kabi darajalarda ko'rinadi.

Test metodi. Test metodi boshqa metodlardan har qanday psixologik xususiyat yoki voqelikni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilishga yo'nalganligi bilan farqlanadi. Shuning uchun testlarga qo'yiladigan talablar muhimdir.

Standartlashtirish. Testlarni standartlashtirish, ularni o'tkazish va baholashga qo'yiladigan yagona normativdir. Standart: a) metodikani o'tkazish va natijalarni baholash jarayonini umumiy me'yorlarga keltirish; b) har bir tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini topish uchun zarur yangi shkalani ishlab chiqish. Diagnostik testlar yordamida olingan natijalarni talqin etish uchun bu natijalar muayyan me'yor, ya'ni standart bilan solishtirilishi kerak, standart bilan solishtirilgandagina tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini aniqlash mumkin. Miqdoriy ko'rsatkichlarni olishga, mo'ljallangan testlar ballariga nisbatan muayyan standartlarni aniqlashda quyidagi amallar bajariladi:

- barsha tekshiriluvchilarning ko'rsatkichlari asosida o'rtasha ko'rsatkich topiladi;

- maxsus matematik statistik amallar yordamida standart og'ishish, ya'ni o'rtasha kvadrat og'ishish ko'rsatkichi topiladi

- o'rtasha ko'rsatkichdan yuqoriga va pastga standart og'ishish ko'rsatkichiga mos tarzda qadam tashlab, test natijalarini solishtirish uchun zarur shkala - standart baholar tizimi ishlab chiqiladi.

Ishonchlilik – hech qashon absolyut bo'lmaydi. Ishonchlilik testlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, test yordamida olinadigan natijalarning qanchalik barqaror ekanini bildiradi.[2.29.64]

Psixodiagnostik testlarning ishonchliligini aniqlash uchun psixodiagnostik test sinalluvchilarning muayyan guruhi bilan bir necha marta mazkur test yoki uning ekvivalent shakli vositasida o'tkaziladigan tekshiruvlarda aniq bo'ladi. Ushbu tekshiruvlar turli vaqtlarda o'tkaziladi.

Agar har ikki safarda olingan natijalar to'liq mos tushsa, korrelyatsiya koeffitsientini 1,0 ga intiladi. Biroq, bu hesh qashon sodir bo'lmaydi va ko'pchilik testlar uchun korrelyatsiya koeffisienti 0,7-0,9 ni tashkil qiladi. Qolaversa, testning ishonchliligini aniqlash usuliga qarab parallel, retest, parshalanishiga asoslangan ishonchlilik turlari bor.

Validlik yoki yaroqlilik - psixodiagnostik testlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, metodika o'zi nimani o'rganishga mo'ljallangan bo'lsa, o'sha narsani o'rganishga qanchalik yaroqli ekanini bildiradi. Diagnostik testlarning validligi test diagnostik o'lshovini amalga oshira olishi yoki oshira olmasligini va o'lchovni amalga oshira olsa, buni qanchalik muvaffaqiyatli bajarishini ifodalaydi. Testning validligi qanchalik yuqori bo'lsa, u muayyan psixodiagnostik tekshiruv uchun shunchalik yaroqli deb hisoblanadi.

Biroq, qo'shma testlarning validligi odatda 0,60 dan past bo'ladi. Birinchidan, u test ishonchlilik darajasidan yuqori bo'lishi mumkin emas, ikkinchidan, maktab belgilari muvaffaqiyatli o'zlashtirishi mezoni sifatida unchalik ishonchli emas, uchinchidan, motivatsiya, intizom, ijtimoiy sharoit

ta'sirini o'tkazadi.[2.39.27]

Umuman olganda, yuqoridagi barcha metodikalar iqtidorli va ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni aniqlab topishga qaratilgandir.

Biz ham yuqoridagi metodikalardan foydalanib, avval iqtidorlilikka xos bo'lgan xususiyatli o'quvchilarni, keyin esa shu xususiyatlarni hisobga olgan holda iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda keng foydalandik va buni keyingi rejalarda yoritishga harakat qildik.

2.3. Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashda ijod haqidagi nazariyalar tahlili

Ijod, ijodiy jarayon, ijodkor shaxs, iqtidor, kreativlik tushunchalari haqida turli xil qarashlar mavjud.

Z.Freyd va K.Yung ijod jarayonining ikkita jihatini ajratib ko'rsatishgan: ijodning motivatsion aspekti va ongsizlik aspekti. Freydning fikricha, ijod motivlari meros(hayotga moyillik) bilan bog'liq bo'lib, bu jinsiy mayllardan holidir. Freyd nazariyasini mayllar nazariyasi deb ham ataydi. Ijod deseksualizatsiyadir-ya'ni seksual quvvatning ijodning yaratuvchilik qobiliyatiga o'tishidir. Ijod jarayonida intilish kechinmalarni siqib chiqaradi va bu sublimatsiyada o'z aksini topadi. Ijodning eng muhim manbai ong ostidir yoki ongsiz psixik jarayonlardir. Ongsizlik inson psixikasining eng ijodkor qismidir.

K.Yung fikricha, ongsizlik bo'lajak psixologik vaziyat, yangi fikr, g'oya, kashfiyot va ijod bilan to'liqdir. Isonda ikkita boshlang'ich nuqta mavjuddir. Ular: shaxsiyatlilik va ijodkorlikdan iborat.

Kognitiv psixologiya vakillaridan biri Jonn Kelli ijod tushunchasini qo'llamagan holda ijod va ijodkor shaxs haqidagi o'zining original nazariyasini ishlab chiqdi. U alternativ-gipotetik tafakkur nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, inson tashqi olam bilan o'zaro samarali ta'sirda bo'lib turuvchi tadqiqotchi olimdir. U dunyoni o'zicha sharhlaydi, axborotlarni qayta ishlaydi, voqealarning mohiyatini oldindan bashorat qiladi, farazlarni ilgari suradi. Dunyoni gipotetik

manzaraga ega ekanligi xuddi olimlar kabi har bir kishidan aqliy harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Hayot ijodiy tadqiqot jarayonidir.

Gumanistik psixologiya vakillari inson tabiati haqida eng optimal fikrlarni ilgari surgan bo'lib, ular ijod tabiatini tushunish uchun ham taalluqlidir. Ijod haqidagi gumanistik psixologiya qarashlarining yorqin ifodasi A.Adler qarashlarida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, har bir kishi ijodkor kuchga ega bo'lib, bu kuch unga o'z hayotini tashkil etish, hayotiy uslubini shakllantirish va boshqarish uchun xizmat qiladi. A.Adler nazariyasi ijodning kompensatsion nazariyasi deb nomlanib, unga ko'ra, fan, san'at kabi madaniyat sohalari insonning o'z kamchiliklarini to'ldirish usuli hisoblanadi. Insondagi ijodkorlik ya'ni men har bir kishida bo'ladi. U insonning har bir qirrasiga ta'sir etib, o'z shaxsiy hayotining arxitektori va shaxsining ijodkoriga aylantiradi.

E.Fromm va G.Olportlarning fikricha, ijod inson hayot tarzining muayyan muammoni yechishi emas, balki nostandart vaziyatlardan chiqib ketish, o'z hayotini yangilik bilan to'ldirish va tajribasini chuqur anglashi bilan bog'liqdir.

Gumanistik psixologiyaning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan Rodgers, K.S.Maslou, R.Mey, D.Moreno va boshqalarning ishlarida ham ijod haqidagi qarashlarni ko'rish mumkin. Ulardan biri ijod haqidagi shaxsiy yo'naltirilgan nazariyaning asoschisi K.Rodgers hisoblanadi. U o'z nazariyasining markaziy tushunchasi sifatida tajriba maydoni yoki "Fenomenal maydon" degan tushunchani kiritdi. O'z tarkibiga ko'ra bu maydon hodisalar, idrok, sezgi va ta'sirlardan tashkil topgan. Kishi ba'zan bilib, ba'zan bilmagan holda ular orasidan ayrimlarini ya'ni eng keragini tanlab oladi. Tajriba maydoniga insonning o'zligi ham kiradi. Unda kishining o'tmish tajribasiga asoslangan, o'zi haqidagi fikrini hozirgi kundagi bahosi va kutilayotgan kelajagi namoyon bo'ladi. Rodgersning fikricha, kreativ shaxslar hozirgi kunga yaxshi moslashgan, ko'plab yangilik va kashfiyotlar yaratishga moyil bo'ladilar. Ijod kishining dolzarblashtirishga bo'lgan ehtiyojining qondirilishidir. Rodgersning fikricha ijodning eng muhim motivi o'zini ko'rsatishdir. Rodgers ijodiy faoliyatning ikkita tomonini ya'ni ichki va tashqi tomonini ajratib ko'rsatadi.

Ijodiy faoliyatning ichki sharoitiga quyidagilar kiradi:

1. Ekstensionallik-yangi tajribaning hosil bo'lishi,
2. Baholashning ichki lokusi,
3. Odatiy bo'lmagan birikmalarga qobiliyat.

Ijodiy faoliyatning tashqi sharoitiga quyidagilar kiradi:

1. Psixologik xavfsizlik va himoyalanganlik,
2. O'zini ifodalashning psixologik erkinligi.

Rodgers ijodiy akt tarkibida estetik evristik va kommunikativ hislarini o'rni va ahamiyati borligini ta'kidlab o'tadi.

Maslou fikricha, ijod o'zini-o'zi ifodalashning barcha shakllarini universal funksiyasidir. Teller ijodning ifodalanuvchi ijod, texnik ijod, yaratuvchilik ijodi, novatorlik ijodi, noyob ijod darajasi. beshta darajasini ko'rsatgan.

Inson shug'ullangan faoliyatning xususiyatiga ko'ra ijodning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

1. Ilmiy ijod
2. Texnik ijod
3. Badiiy ijod
4. Musiqaviy ijod
5. Pedagogik ijod va boshqalar

Ilmiy ijod- shaxsnining borliq haqidagi yangi bilimlarini to'plash, kashfiyotlar yaratish bilan bog'liq faoliyatidir. Ilmiy ijod quyidagi muhim xususiyatlarga ega:

birinchidan, ilmiy tadqiqot muammolarini hal qilishda mavhum, so'z-mantiqiy tafakkurga asoslanishi,

ikkinchidan, ilmiy ijod mahsuli yangi bilimlar, tushunchalar, xulosalar, nazariyalar va mavhum g'oyalar hisoblanadi;

uchinchidan, ilmiy ijod jarayoni avvaldan mavjud bo'lgan, lekin bizning ongimizga yetib kelmagan qonuniyatlarni tadqiq etishdir (masalan, maqola). Ijodning natijasi biz uchun yangi bo'lgan bilimlar yoki kashfiyot bo'lishi mumkin;

To'rtinchidan, ilmiy tadqiqot jarayoni bir vaqtning o'zida ham empirik, ham nazariy bo'lishi mumkin. Empirik tadqiqot bevosita amaliyotda ob'yektlarni

kuzatish va tajriba asosida to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish va tushunish natijasidir. Nazariy tadqiqot esa ob'yektiv voqelikni vositali bilishga fanning nazariy ma'lumotlarini takomillashtirishga, empirik tadqiqot materiallari asosida yangi nazariyalar ishlab chiqishga qaratilgan;

 beshinchidan, ilmiy ijod har doim jamoaviy faoliyat mahsulidir.

 oltinchidan, ilmiy kashfiyotlar har doim jamiyat taraqqiyoti va ehtiyojlariga bog'liq holda tashkil etiladi.

 yettinchidan, har bir ijodiy, ilmiy g'oyalar o'z davridan ancha ilgariroq yuradi yoki namoyon bo'ladi.

 Texnik ijod-borliqni amaliy jihatdan texnologik qayta qurish bilan bog'liq. Texnik ijod quyidagi xususiyatlara ega:

 birinchidan, ko'rgazmali obrazli va ko'rgazmali harakat tafakkuriga asoslanadi.

 ikkinchidan, texnik ijod jarayoni ixtirochilik, loyihalashda namoyon bo'lib, uning natijasida mexanizmlar, qurilmalar ishlab chiqariladi.

 uchinchidan, texnik ijod natijasida yaratilgan narsalar o'zigacha bo'lgan texnikaviy bazaga muvofiq yaratiladi.

 Badiiy ijod -borliqni estetik jihatdan o'zlashtirish va estetik ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. Uning o'ziga xos xususiyatlari:

 birinchidan, ko'rgazmali obrazli tafakkurga asoslanadi (ko'rgazmali harakat va ko'rgazmali obrazli va so'z - mantiqiy tafakkur birga bo'ladi).

 ikkinchidan, badiiy ijodning eng muhim tarkibiy qismi inson tomonidan kechiriladigan emotsional holatlar, katarsis va salbiy emotsiyalardan tozalanish. (Pikasso san'at 4-asarlarini tomosha qilish emas, balki uni emotsional his qilish kerak deydi)

 uchinchidan, badiiy ijod ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida amalga oshiriladi va u materiallashgan ob'yektlarda (suratlar, haykallar, badiiy asarlarda) namoyon bo'ladi.

 To'rtinchidan, badiiy ijodning eng muhim tomoni uni yashirin holatda bo'lishi ko'pincha pedagogik masalan, yasalgan haykalni hammaga tadbiiq etilmaganiday)

beshinchidan, badiiy ijod ko'plab odamlar tomonidan borliqni turlicha aks ettirish imkonini beradi va insonlardagi sub'yektiv idrok hamda didning rivojlanishiga ta'sir etadi. (masalan, to'rtta rassomga bitta rasmni chizinglar deyilsa, ular to'rt xil chizishi mumkin)

Hamkorlikdagi ijod- ijod mahsulini idrok qilayotgan kishining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Pedagogik ijod - pedagogik faoliyatda yangiliklarni topish va izlash jarayonidir.

birinchidan, o'zi uchun yangi nostandart usullarni topish va pedagogik muammolarni hal qilishda ulardan foydalanishdir. Bu usullar qaysidir manbalarda keltirilgan, lekin pedagog tomonidan qo'llanilmagan bo'lishi mumkin. Bu yerda yangiliklar sub'yektiv ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonda yangiliklarni tadbqiq etish va foydalanish innovatsiya (yangilik) deyiladi.

ikkinchidan, nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham yangilik bo'lgan usul va uslublarni yaratish bo'lib, u novator(yangilik yaratuvchi) deyiladi. Bu ta'limning yangi metodlari, u yoki bu fanni o'qitishning eng zamonaviy shakllari va vositalarini ishlab chiqarish bo'lishi mumkin. Pedagogik ijodning eng muhim tarkibiy qismi improvizatsiya (lotincha *improvisus* so'zidan olingan bo'lib, kutilmagan, tasodifiy degan ma'nolarni anglatadi) pedagogik jarayonda kutilmagan, to'satdan qarorlar qabul qilish, "shu yerda" va "hoziroq" amalga oshirishda namoyon bo'ladi. (favqulotda, oldindan puxta o'ylanmaydi, masalan, darsda kuzatuvchilar kirib qolsa, o'qituvchilarning xatti-harakatlari). Improvizatsiya jarayoni o'z ichiga to'rtta bosqichni oladi:

1. Pedagogik ilhom, ruhlanish.
2. Qisqa muddatli, intuitiv tarzda paydo bo'lgan pedagogik g'oyalarni tushunish, mulohaza yuritish va uni amalga oshirish yo'llarini tanlash.
3. Bu g'oyani ommaviy tarzda namoyon etish.
4. Amalga oshirilgan pedagogik g'oyalarni qisqa muddatda tahlil qilish.

Ijod darajalari- ijod turli darajada bo'lishi mumkin. Gizelin tomonidan ijodning ikkita darajasi : quyi va yuqori darajalari ajratib ko'rsatilgan. Quyi daraja

shu sohada mavjud va qo'llanilayotgan bilimlarni kengaytirishda namoyon bo'lsa, yuqori daraja umuman yangi nazariyalarni u yoki bu fandagi revolyutsiyalarni amalga oshiradi.

Kreativlik tushunchasini 1922 yili B.Simpson umumiy qobiliyatlarni ifodalash maqsadida ilk bor qo'llagan. Kreativlik tushunchasi lotin tilidan "creatio" so'zidan olingan bo'lib, yaratish degan ma'noni anglatadi. Umumiy olganda kreativlik ijodga bo'lgan umumiy qobiliyatlar yig'indisidan iborat. Kreativlik kishining an'anaviy tafakkur chegarasidan chiqib, g'ayrioddiy g'oyalarni, muammolarning noyob, betakror yechimini topishda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir.

Kreativlik haqida oltmishdan ortiq nazariyalar mavjud, ularni 1988 yili Teylor tomonidan olti guruhga birlashtirilgan.

1. Geshtalt yondashuvga ko'ra, kreativ jarayon yaxlit bir butun geshtalt tuzilmadir.
2. Innovatsion yondashuvga ko'ra, kreativlik oxirgi natijaning yangiligiga olib boradi.
3. Estetik nazariyalar - bu yondashuv ijodkorni kreativlik orqali o'zini-o'zi namoyon etishi-ekspressiya (tashqariga ifodalash) sifatida talqin etiladi.
4. Psixoanalitik(dinamik) yondashuvga ko'ra kreativlik ong tarkibidagi "u", "men" va "super men" qismlarini o'zaro munosabatidir.
5. Muammoli yondashuvga ko'ra kreativlik turli xil vazifalarni yechishning o'ziga xos usuli deb qaraladi. Ana shu yondashuv vakillaridan biri Gilford divergent tafakkur bo'lishi kerak deydi.
6. Hech bir guruhga kiritib bo'lmaydigan, yoki aniq yo'nalishga mos bo'lmagan guruh.

M.Xolodnayaning fikricha, kreativlik keng va tor ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Tor ma'nodagi kreativlik bu divergent tafakkurdir. Keng ma'noda esa, kreativlik tushunchasi ijodiy intellektual qobiliyatlarni namoyon bo'lishi hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo'yish va hal etishdagi betakror g'oyalarni tug'ilishi, muammoni hal etish vafarazlarni shakllantirishda qarama-qarshilik va uzilishlarni anglash tafakkurning stereotip

usullaridan voz kechish qobiliyatidir.

Kreativlik P.Torrens tomonidan jarayon yoki faoliyat sifatida talqin etiladi. Kreativlik muammolarga axborotlar yetishmasligiga, ularning nomuvofiqligiga va mantiqiy emasligiga bo'lgan sezuvchanlikning namoyon bo'lish jarayonidir.[]

Kreativlik S.I.Makshanov va N.Yu.Xryashevalar tomonidan berilgan tafakkurga xulq- atvor va tafakkurning nostandartligi va konstruktiv faoliyatga qobiliyatdir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlikka xos xususiyatlarni shunday ifodalash mumkin: ijodga qobiliyat, aqliy ijod, noyob, betakror, yangi, o'ziga xos xususiyatlar, yaxlit tuzilmalarni restrukturalash, axborotlarni g'ayrioddiy tarzda kodlashtirish, divergent tafakkur, shaxsni ichki nizolarini natijasi, mavjud bilimlar chegarasidan chetga chiqish, no'ananaviy tafakkur.

Ijod jarayonini o'rganish san'at va ilmiy faoliyatini o'rganish bilan chegaralanmaydi. Bugungi kunda ijod mehnatning ajralmas qismi degan nuqtai nazar tarqalib bormoqda. Ijodga taalluqli barcha masalalar bir asosiy masala atrofida jipslashadi. Bu – ijodkor, yaratuvchi shaxs masalasi.

1. Ijodiy imkoniyat va ruhiy sog'lomlik. Har bir inson o'z ijodiy qobiliyatlariga ega. Ijodiy imkoniyatdan foydalanish insonni ruhan yengil qiladi. Ba'zi afsonalarda geniallik va ruhiy barqarorlik, hayotdan qoniqmaslik va nimanidir kutish (frustratsiya) bir obrazda gavdalanishi bejiz emas. Psixonevrologlarning fikriga ko'ra, har qanday psixoterapiyadan maqsad, nevrozni bemorning ijodiy kuchini uyg'otish yo'li bilan davolashdir. Ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash xulq-atvorni ishlab chiqish (shakllantirish) psixoterapevtik muolajasiga tenglashtiriladi, bu nevrotik sub'ektlarning (ruhan ezilgan odamlarning) ular uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarni yengishlariga yordam beradi. Hayotiy vazifalarni yechish strategiyasini ishlab chiqish mashg'ulotlari inson ruhiy barqarorligini oshiradi. Bunda, muhimi, olingan bilimlar emas, balki taktikani o'zgartirishga sabab bo'luvchi va shu bilan birga, xulq-atvorni normallashtiruvchi aql egiluvchanligidir. Demak, «ijodiy iqtidorli shaxs» va «ruhan sog'lom odam» tushunchalari bir-biriga juda yaqin.

Ijodiy iqtidorli odamlar odatda yuqori intellektga ega bo'ladilar. To'g'ri, intellekt va talant o'rtasida bevosita bog'liqlik yo'q. «Intellekt darajasining chegarasi» mavjud bo'lib, u 120 IK ga teng. Undan past bo'lsa, ijodiy qobiliyatlardan foydalanib bo'lmaydi. IK ning 120 dan oshib ketishi ham inson ijodiy imkoniyatlariga qo'shimcha samara bermaydi.²

2. Ijodkor shaxs xususiyati – xato qilish xavfiga tayyorlik. Ijodkor shaxs o'z g'oyalarini ochiq aytishdan qo'rqmaydi. Xulosa va qarorlar chiqarishda axborotlarning yetishmasligi tufayli u ko'pincha xato qilish xavfiga duch keladi. Mutlaqo to'g'ri dalillar bo'lmaganda ham ijodkor shaxs tomonidan «erkin fikr» aytiladi. Qobiliyatsizlik esa bexavotirlikni, faqat barqaror malakalar shakllantirilgan vazifalarni yechishni talab qiladi. Talant o'zini bir kasb, bir mavzu, bir fan yoki bir janr bilan chegaralamaydi, u odatdagi chegaradan chiqishga qo'rqmaydi.

Impulsivlik, ishga bor kuch bilan kirishish, fikr va baho berishda erkinlik ham ijodkor shaxs belgilaridir. Bunday shaxslar talabalik davrlarida o'qituvchi va o'quv dasturlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladilar, qaysi fan va qaysi mavzu bilan shug'ullanishni o'zlari hal qiladilar.

I.P. Pavlov «Avtobiografiya»sida eslashicha, u o'qigan diniy seminariyada barcha fanlardan besh bahoga o'qish eng zo'r muvaffaqiyat hisoblanmagan. Bu odatiy hol bo'lib, ko'pchilik yaxshi o'qigan. Ammo, seminarist bir-ikki fandan zo'r o'qib, boshqalaridan yomon o'qisa, «Balki bu talantdir?» - deb, unga darhol e'tibor berishgan. Chunki ijodkor shaxsining yana bir xususiyati – o'zi qiziqqan sohada katta mehnatsevarlik ko'rsatishdir.

O'yinga moyillik ham iqtidorlilik xususiyati. Fikr erkinligi, assotsiatsiyalashning yengilligi, dadil «g'oyalar o'yini» ijodkor shaxsga xos.

U yumorga moyil. Yumor hissi kuchli aql va ijodiy tafakkur hosilasidir. Temir intizom va qat'iy reglamentlangan hukm chiqarishga moyil odamlar o'zlarining nozik fahmi va kashfiyotchiligi bilan o'ta kam taassurot qolidiradilar. Har qanday ongli faoliyatning birinchi sharti erkinlik deb qabul qilingandagina fikr ham ijodiy

bo'ladi. Fikr aynan ichki erkinlikdan keladi, busiz ijodning bo'lishi mumkin emas.

Psixologiyada xayol insonning ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlari vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, hech qachon xayol ijodiy faoliyat dasturining yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lmaydi, balki uning ayrim o'rinlarini to'ldirish va almashtirish timsollarini yaratadi, xolos.

Xayolning muhim tomonlaridan biri — uning ijod va shaxs munosabatining yaxlit holda talqin qilish xususiyatidir. Ijod shaxsning ichki imkoniyatlari va zaxiralarining ro'yobga chiqishining asosiy shartlaridan biridir. Shu sababdan shaxs o'zining ijodiy faoliyati bilan, birinchidan, yaratuvchilik qudratini amaliyotda namoyish qiladi. Ikkinchidan, u ijod ta'sirida yangi fazilatlarni egallaydi, nafosat, badiiy ijod, tex-nik qobiliyat, kashfiyot, ijtimoiy muammolarni integratsiya qilib, differensiallashtiradi. Uchinchidan, jahon faniga o'z hissasini qo'shadi va sivilizatsiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchisiga aylanadi. Ijod davomida shaxs motivatsion, emotsional, irodaviy barqa-rorlik, xarakterning mustahkamligi va boshqa individual-tipologik xususiyatlari samaradorligiga, sifatiga munosib ravishda ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ijod xususiyatlari bilan shaxsning xususiyatlari o'rtasidagi uyg'unlikning yuzaga kelishi ikki yoqlama ta'sir o'tkazish mexanizmi sifatida muhim rol o'ynaydi, ya'ni faoliyatda shaxs o'zining yangi qirralarini ochadi, uning fazilatlari esa ijodiy izlanishlarning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi.

BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalash, Respublikamizda kadrlar tayyorlashni davr talablari darajasiga ko'tarish ta'limning rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mexanizmini yaratish, uning mazmunini takomillashtirish, ota-onalar, o'quvchi va o'qituvchilarda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha munosabatni, qarashlarni shakllantirish kabi masalalarni qamrab olgan «Kadrlar tayorlash milliy dasturi» bosqichma-bosqich amalga joriy etilmoqda.

Iqtidorli o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni takomillashtirish, qobiliyatlarini rivojlanish bosqichlari, pedagogik mexanizmlari, dars jarayonida ta'lim metodlari, pedagogik texnologiyalarni tahlili, bu esa o'qitish jarayonini samarali tartibda amalga oshirish, boshqarish, ko'zlangan maqsad asosidagi natijalarga erishish imkoniyatini yaratish, shaxs qiziqishlarini shakllantirib, qobiliyat, iqtidor, iste'dod darajasigacha ko'tarish markaziy o'rinni egallaydi. Xususan, tadqiqotchi SH.S.SHaripov tomonidan olib borilgan tadqiqot kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi tadqiq etilgan bo'lib, kasb-hunar kollej iqtidorli o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni takomillashtirishni bilish muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shularni hisobga olgan holda, iqtidorli o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni takomillashtirish yo'llarini belgilab oldik va ular quyidagilardan iborat:

- Dars jarayonida o'quvchilar bilan individual ish olib borishni takomillashtirish;
- dars rejalarini tabaqalashtirish asosida tuzilishini rejalashtirish;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar iqtidorini muntazam ravishda takomillashtirish.
- Fan to'garaklarini muntazam ishlashini ta'minlash.

III BOB IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASHGA OID TAJRIBA – SINOV ISHLARINING UMUMIY MOHIYATI

3.1. Tajriba – sinov ishlari metodikasining mazmuni va mexanizmi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29-fevraldagi PQ 805-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlar yili ” Davlat dasturida o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi tizimi o'quvchilarini qobiliyatlarini va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy maxoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda o'quvchilarning tanlagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirish vazifalari belgilangan .

Mazkur vazifalarni ijrosini ta'minlash, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishni tashkil qilish uchun umum ta'lim va maxsus fanlardan to'garaklar tashkil qilish ishlarini tartibga solish, ularni ommaviy sport va jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb etish o'quvchilar turizmini rivojlantirish, madaniy , musiqiy, estetik talablarini qondirish, xalq hunarmandchiligining milliy turlari va shakllarini o'rganish uchun to'g'ri tanlash ko'nikmalarini hosil qilish, olgan bilimlarini amaliyotga joriy etish, mavjud o'quv-texnologik jihozlardan samarali foydalanishga erishish hamda kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oiliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 14 noyabr 2008 yili 205 – sonli qaror ishlab chiqildi. Unga ko'ra:

- O'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi muassasalarida to'garaklar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

- o'rta maxsus, kasb- hunar talimi muassasalarida to'garaklarni tashkil etish tartibi belgilandi.

- to'garak dasturini tuzish bo'yicha namunaviy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

- har bir to'garak rahbarligi uchun 40 soat vaqt meyori belgilandi.

- to'garaklar faoliyatini ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda

yoritib borilmoqda.

- Nizomga ko'ra har oyda talim muassasalarida to'garaklar faoliyati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi yozma ma'lumotni markazga taqdim etilmoqda.

- To'garaklar faoliyati yuzasidan taxliliy hisobotlarni ilmiy pedagogik kengashlarda muhokama etish, yuqori ko'rsatkichlarga erishgan pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish tizimini joriy etildi.

To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimini tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga, ularning umumta'lim fanlariga, kasb hunarga, ommaviy sport va jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish tadbirlariga, badiiy havaskorlik estetik talablarni qondirishga qaratilgandir.

To'garaklar qiziqishlari bir hil bo'lgan bir guruh o'quvchilarning ma'lum bir fan yoki kasb bo'yicha o'qituvchi va kasbiy ta'lim ustalari yordamida bilim va mahoratlarini oshirish uchun xizmat qiladi .

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida to'garaklarni tashkil qilishni asosiy maqsadi, o'quvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularning qobilyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda tanlagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir.

Kasb-hunar kolleji Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash o'rganish maqsadida Namangan shahar pedagogika kollejida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotga kollejning boshlang'ich ta'lim yonalishi 301,302,303-guruh o'quvchilari jami 68 nafar o'quvchi jalb qilindi.

Tadqiqot metodi sifatida aqliy zakovat tashhisining sotsiometrik usullaridan biri «Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash metodikasi»dan foydalanildi.

Metodikaning asosiy g'oyasi Dj.Morening «Sotsiometriya» metodikasidan olingan bo'lib, o'zbek milliy muhitida, guruh o'quvchilari orasidan

eng zukkolarini, ularning ayrim fanlarga moyilliklarini so'rab bilish maqsadida, B.R.Qodirov tomonidan to'la qayta ishlangan. [2.42.15]

Umumiy aqliy rivojlanganligi, intellektual salohiyati bilan ajralib turadigan yoshlarni aniqlashga qaratilgan ushbu sotsiometrik metodika

o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari guruhida o'tkazishga mo'ljallangan. Metodikaning yutuq'li tomonlaridan biri shundaki, uni o'quvchilarda o'tkazishdan oldin maxsus javob varaqalarini ko'paytirish talab etilmaydi va oddiy bir varaq qog'ozda, anonim tarzda o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar o'zlari bilan bir guruhda tahsil olayotgan o'quvchilarning qaysi sohalarga qiziqish va iqtidori borligini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholashlari so'raladi:

- 1 - savolda aniq fanlarga;
- 2 - savolda tabiiy fanlarga;
- 3 - savolda gumanitar fanlarga;
- 4 - savolda badiiy did sohasiga;
- 5 - savolda ijtimoiy sohaga;
- 6 - savolda tillarga;
- 7 - savolda boshqaruv sohasi, pedagogikaga bo'lgan layoqatini baholash so'raladi.

Metodikani o'tkazish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi.

Maqsad: zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash.

Tajribaning bosqichlari:

1-bosqich. Ishning maqsadi tushuntirildi.

2-bosqich. Olingan natijalar tahlil qilindi.

Natijalar bir necha bosqichda tahlildan o'tkazildi.

Dastlab, birinchi savolga berilgan javoblar alohida ishlandi, ya'ni birinchi savolga guruh bo'yicha qayd qilingan barcha familiyalar alohida jadvalga (matritsaga) ko'chirildi. Agar bir familiya har xil o'quvchilar tomonidan qayta-qayta ro'yxatga olingan bo'lsa, ikkinchi martadan boshlab, o'sha familiya

qarshisida navbatdagi javob varaqasidagi uning tartib raqami qo'yiladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin. Jadvallarda 301, 302, 303- guruhning eng ko'p ovoz olgan 5 nafardan o'quvchilarining ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

1-jadval.

301- guruhning iqtidorli o'quvchilari

G/r	Ismi va familiyasi	Ko'rsatkichlar	«N»	“M”	“K”
1.	Barnoev Sarvar	1,1,2,1,1,1,1,1,1	10	11	1,1
2.	Salimova Saida	2,1,2,3,1,1,1,1	8	10	1,2
3.	Usmonova Laylo	1,1,2,3,1,2,1	7	11	1,6
4.	Muslimov Sarvar	2,1,1,3,1,1	6	9	1,5

2- jadval 302- guruhning iqtidorli o'quvchilari

G/r	Ismi va familiyasi	Ko'rsatkichlar	«N»	“M”	“K”
1.	Sultonov Ilxom	1,1,2,1,1,2 ,1,1,3,1	10	14	1,4
2.	Asqarov Adxam	2,1,2,3,1,2,1,1	8	11	1,4
3.	To'lashev Abror	1,1,2,3,1,2,1, 2	7	12	1,7
4.	Nozimov Salim	2,1,1,3,1,1	6	9	1,5

3- jadval 303- guruhning iqtidorli o'quvchilari

G/r	Ismi va familiyasi	Ko'rsatkichlar	«N	“M”	“K”
1.	Sobirova Odina	1,1,2,1,1,2 ,1,1,	8	10	1,2
2.	Mirzayeva Jamila	2,1,2,3,1,2,1,	7	10	1,4
3.	O`sarova Tanzila	1,1,1,2,1, 2	6	8	1,3
4.	Nasimova Zarifa	2,1,1,3,1,2,1	6	11	1,8

Yuqoridagi tartibda boshqa savollarga berilgan javoblar maxsus varaqalarga, ya'ni matritsalariga ko'chirildi. Shunday qilib, etti savolga berilgan javoblar usnun ettita birlamchi matritsalar tuzildi. Shu bilan birinchi bosqich tugadi.

2-bosqich: matritsalarida guruhdan ko'pchilikning nazari tushgan faol o'quvchilar ro'yxati va ular olgan ovozlar miqdori ko'rinib turibdi. So'ngra bu ovozlarga tartib bilan ishlov berildi, istalgan ma'lumotlar olindi.. Yuqoridagi jadvallarda keltirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida, uning davomida quyidagi amallar bajarildi: jadvalda keltirilgan har bir o'quvchilarning olgan ovozlarni sanab chiqdik va bu son «N» ni, ya'ni mazkur o'quvchining guruh o'quvchilari tomonidan tilga olinish sonini tashkil etadi.

So'ng o'quvchi olgan ovozlarning tartib o'rinlari yig'ildi. Yig'indi «M» ko'rsatkichini beradi. Bu ko'rsatkich yaxlit holda biron bir mazmunga ega emas, bu to'plagan ballarni ko'rsatadi xolos. Endi «M» ko'rsatkichining «N» ko'rsatkichiga nisbatidan «K» ko'rsatkichini topamiz. Ya'ni «M» ni «N» ga bo'lamiz. Shunda bo'linma «K» mazmunga ega bo'ladi. Ravshaniki, bu ko'rsatkich qanchalik 1-soniga yaqin bo'lsa, ya'ni kichik bo'lsa, demak bu o'quvchi yuqori darajada tan olingan, yakdillik bilan ovoz berilganlar, degan xulosani beradi. Aksincha, «K» natija Z ga yaqin bo'lsa- unda shu familiyali o'quvchining mavqeyiga nisbatan guruh a'zolari barqaror fikrda emas va demak, ishonarli fikrniig yo'qligidan darak beradi.

Shu tarzda har bir jadvaldagi ahamiyatga sazovor, o'quvchilarning ma'lumotlariga ishlov beriladi, ya'ni N, M,K ko'rsatkichlari chiqariladi.

Shunday qilib, ettita birlamchi jadval ma'lum tartib bilan barcha o'quvchilardan olingan ma'lumotlarni kiritdik va har bir matritsaning oxirida N,M,K ko'rsatkichlarni chiqarib ularning orasidan 50 va undan ortiq foiz ovoz olgan o'quvchilarning «N» ko'rsatkichlarini belgilab qo'ydik.

Shu bilan ikkinchi bosqich ishlovlari tugaydi.

3-bosqich buning uchun yana bitta jadval tuziladi. Ushbu javdalga yettita jadvalning har birida iqtidorli deb tan olingan, yani faqat 50 va undan ortiq foiz olgan o'quvchilarning N.M.K. ko'rsatkichlari ko'chiriladi.

4-jadval

	I			II			III			IV			V			VI			VII			Jami		
	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	K	M	N	M	K	N	M	K	N	M	K

1	10	11	1,1	10	14	1,4	10	11	1,1	8	10	1,2	10	14	1,4	10	11	1,1	8	10	1,2	66	95	8,4
2	8	10	1,2	8	11	1,4	8	10	1,2	7	10	1,4	8	11	1,4	8	10	1,2	7	10	1,4	54	72	9,2
3	7	11	1,6	7	12	1,7	7	11	1,6	6	8	1,3	7	12	1,7	7	11	1,6	6	8	1,3	47	53	10,8
4	6	9	1,5	6	9	1,5	6	9	1,5	6	11	1,8	6	9	1,5	6	9	1,5	6	11	1,8	42	67	10,3
5	6	8	1,3	6	10	1,7	6	8	1,3	6	10	1,7	6	10	1,7	6	8	1,3	6	10	1,7	42	64	10,7
6	10	14	1,4	8	10	1,2	10	11	1,1	10	14	1,4	8	10	1,2	10	11	1,1	10	11	1,1	68	81	8,5
7	8	11	1,4	7	10	1,4	8	10	1,2	8	11	1,4	7	10	1,4	8	10	1,2	8	10	1,2	54	72	10,4
8	7	12	1,7	6	8	1,3	7	11	1,6	7	12	1,7	6	8	1,3	7	11	1,6	7	11	1,6	48	73	10,8
9	6	9	1,5	6	11	1,8	6	9	1,5	6	9	1,5	6	11	1,8	6	9	1,5	6	9	1,5	42	47	11,1
10	6	10	1,7	6	10	1,7	6	8	1,3	6	10	1,7	6	10	1,7	6	8	1,3	6	8	1,3	42	64	10,7
11	8	10	1,2	10	11	1,1	8	10	1,2	10	14	1,4	10	11	1,1	8	10	1,2	10	14	1,4	64	100	8,6
12	7	10	1,4	8	10	1,2	7	10	1,4	8	11	1,4	8	10	1,2	7	10	1,4	8	11	1,4	43	72	9,4
13	6	8	1,3	7	11	1,6	6	8	1,3	7	12	1,7	7	11	1,6	6	8	1,3	7	12	1,7	46	70	10,5
14	6	11	1,8	6	9	1,5	6	11	1,8	6	9	1,5	6	9	1,5	6	11	1,8	6	9	1,5	42	69	11,4
15	6	10	1,7	6-%	8	1,3	6	10	1,7	6	10	1,7	6	8	1,3	6	10	1,7	6	10	1,7	42	66	11,1

Jadvaldagi ma'lumotlarda keltirilgan o'quvchilarning ekspertlar bahosi, ya'ni guruhning ularni iqtidorli deb tan olganligini haqiqatga qanchalik mos ekanligini, mazkur o'quvchilarning intellektual ko'rsatkichini aniqlash maqsadida J.Raven va A. Pertrouzar tomonidan ishlab chiqilgan hamda "Raven matritsalari" nomini olgan metodikadan foydalandik.[2.39.45]

"Raven matritsalari" metodikasi rasm-jadval shaklidagi topshiriqlardan iborat bo'lib, u har bir kishidan uning yechimini topishda mantiqiy fikr-mulohaza yuritishni talab qiladi. Mazkur test-topshiriqni bajarish muddati 20 minut. To'g'ri topilgan javoblar natijasiga ko'ra – IQ – intellest ko'rsatkichining darajasi aniqlandi.

1-daraja (95-100%- 34 tadan ko'p tog'ri javoblar) –o'ta yuqori darajadagi

intellektual qobiliyat;

2-daraja (75-94% 27 tadan ko'p tog'ri javoblar) –o'rtacha yuqori darajadagi intellektual qobiliyat;

3-daraja (25-74% 9 tadan ko'p tog'ri javoblar) –o'rtacha darajadagi intellektual qobiliyat;

4-daraja (5-24% 2tadan-8 tagacha tog'ri javoblar) –o'rtacha past darajadagi intellektual qobiliyat;

5-daraja (0-4 % 2 tadan kam tog'ri javoblar) –past (nuqsonli) darajadagi intellektual qobiliyat.

Shundan so'ng o'quvchilar bilan fanlar bo'yicha tuzilgan test sinovlari o'tkazildi (test savollari ilovada keltirilgan).

Tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilarning “Raven matritsali” metodikasi bo'yicha natijalari va ‘Pedagogika’ fanidan berilgan 36 ta test savollariga bergan javoblari umumlashtirilgan holda navbatdagi 5- jadvalda keltirilgan.

5-jadval

T/r	O'quvchilarning ismi va familiyasi	“Raven matritsasi” bo'yicha natijalar			Test bo'yicha ko'rsatkichlari
		To'g'ri javoblar soni	Foizi	darajasi	
1	Barnoev Sarvar	31	86,1	O'rtacha yuqori	33
2	Salimova Saida	28	77,8	O'rtacha yuqori	32
3	Usmonova Laylo	26	72,2	O'rtacha	27
4	Muslimov Sarvar	30	83	O'rtacha	34
5	Sultonov Ilxom	25	69,5	O'rtacha	28
6	Asqarov Adxam	29	80,3	O'rtacha yuqori	31
7	To'lashev Abror	27	75	O'rtacha yuqori	30
8	Nozimov Salim	26	72,2	O'rtacha	29
9	Sobirova Odina	25	69,5	O'rtacha	27

10	Mirzayeva Jamila	25	69,5	O'rtacha	25
11	O'sarova Tanzila	17	47,3	O'rtacha	28
12	Nasimova Zarifa	21	58,4	O'rtacha	24

Jadvaldagi ma'lumotlar iqtidorli o'quvchilarning intellektual ko'rsatkichlari va pedagogika fani bo'yicha o'zlashtirish darajasi ularni to'garakka jalb qilingunga qadar bo'lgan natijalardan keskin farq qiladi. Biz o'quvchilarning to'garakkacha va to'garakda shug'ullangandan keyingi natijalarinig qiyosiy tahlilini jadvalda ifodaladik .


Aniqlovchi va shakllantiruvchi tajriba natijalarining qiyosiy tahlili
6- jadvalda keltirilgan.

6- jadval


Tadqiqot bosqichi	Intellekt darajasi (foiz hisobida)					Pedagogikadan o'zlashtirish ko'rsatkichi		
	O'ta yuqori	O'rtacha yuqori	O'rtacha	O'rtachadan past	past	A'lo	Yaxshi	O'rta
Aniqlovchi	-	26,5	73,5	-	-	26,5	54,6	19,9
Shakllantiruvchi	13,4	66,7	19,9	-	-	86,6	13,4	-

6-jadvaldagi ma'lumotlar uchun diagramma tuzamiz. U quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashda iqtidorli o'quvchilarni intellekt darajasi (foiz hisobida) 1-diagramma



Pedagogikadan o'zlashtirish ko'rsatkichi (foiz hisobida) 2-diagramma



6-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aniqlovchi tajriba bosqichida iqtidorli deb ko'rsatilgan o'quvchilar orasida o'ta yuqori darajadagi

zamonaviy ilm-fan intellektiga egalari kuzatilmagan bo'lsa, o'rtacha yuqori darajadagilar 26,5 % ni, o'rtacha daraja esa 73,5 % ni tashkil etadi. Fanlar bo'yicha o'tkazilgan test natijalari bo'yicha esa "a'lo" natijaga erishganlar- 26,5% ni, "yaxshi"- ko'rsatkich 54,6 ni "o'rta" baholar esa 19,9 %ni tashkil etadi.

Shakllantiruvchi tajribada- ya'ni to'garaklarda shug'ullangan va maxsus dastur asosida mashg'ulotlarda ishtirok etgach esa bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshganligini ko'rish mumkin. Bunda zamonaviy ilm-fan intellektning o'ta yuqori darajasi 13,4 % o'quvchilarda, o'rtacha yuqori darajasi- 66,7 % o'quvchilarda va o'rtacha daraja esa 19,9 % o'quvchilarda aniqlandi.

Shakllantiruvchi tajribadan keyin o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarida ham o'sish kuzatildi. Masalan, pedagogika fani boyisha tuzilgan testlarni 86,6 % o'quvchi "a'lo" baholarga, 13,4 % esa "yaxshi" baholarga yechishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarni nafaqat auditoriyadagi mashg'ulotlar orqali, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish, ayniqsa fan to'garaklari faoliyatini to'g'ri va izchil tashkil etish orqali tarbiyalash va iqtidorini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishish va samaradorlikni oshirish mumkin

Biz o'z tadqiqotimizda o'quvchilarning zamonaviy ilm- faniga iqtidori yoki intellektual ko'rsatkichlari va o'zlashtirish darajasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni aniqlash maqsadida matematik-statistik metodlarga murojaat qildik. Buning uchun K.Pirson formulasiga murojaat qilindi.Korrelyatsion aloqalarni aniqlashda quyidagi jadvalda foydalahildi:

8-jadval

t/r	X	Y	R_x	R_y	d	d^2
1	34	34	1,5	2,0	0,5	0,25
2	32	32	5,0	8,0	-3,0	9
3	30	31	10,0	11,5	-1,5	2,25
4	33	34	2,0	2,0	0	0
5	30	31	10,0	11,5	-1,5	2,25

6	31	32	7,5	8,0	-1,0	1
7	30	33	10,0	5,0	5,0	25
8	29	31	12,0	11,5	0,5	0,25
9	25	30	14,5	14,5	0	0
10	32	33	5,0	5,0	0	0
11	26	30	13,0	14,5	-1,5	2,25
12	31	32	7,5	8,0	-0,5	0,25
Σ	369	383				61,75
M	30,6	32				

Dispersiyani topish uchun quyidagi formuladan foydalandildi:

$$D = \frac{\Sigma d^2}{N} = \frac{62,75}{15} = 4,11$$

Demak, dispersiya 4.11 ga teng.

Endi olingan ma'lumotlar uchun standart kvadratik chetlashishni topamiz:

$$\sigma = \sqrt{D} = \sqrt{4,11} \approx 2$$

K.Pirson formulasi bo'yicha korrelyatsion koeffitsiyentni hisoblash quyidagicha amalga oshirildi:

$$r = 1 - \frac{6 \cdot \Sigma d^2}{N(N^2 - 1)} = 1 - \frac{6 \cdot 62,75}{15(15^2 - 1)} = 1 - \frac{190,5}{3360} = 1 - 0,05 = 0,95 \quad r = 0,95$$

Korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,95 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'quvchilarning iqtidori va ularning o'zlashtirish darajasi o'rtasida ijobiy aloqadorlik mavjudligini, ya'ni intellektual salohiyat ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilarning zamonaviy ilm- fanga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'lishidan dalolat beradi.

Demak, kasb-hunar kollejlari Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash fan to'garaklariga jalb qilish ularda o'quv predmetlariga bo'lgan qiziqishni, ijobiy motivatsiya, ya'ni o'qish xohishini, qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishga erishish mumkin.

BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Demak, Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash dagi tajriba-sinov ishlari tahliliga ko'ra quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash maqsadida amalga oshirilgan ko'p yillik tajribani qo'llanilish usullarining samarali va ishonchli ekanligi tasdiqlandi;

- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash darajasini o'rganish uchun qo'llanilgan tuzilmadan olingan natijalarning haqqoniyligi va ijobiy tavsifdaligini tasdiqladi;

- tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashni amalga oshirishning ishlab chiqilgan texnologiyasini ta'lim tizimi amaliyotiga tadbiq qilish mumkin deb hisoblaymiz.

Magistrlik dissertatsiyamizning uchinchi bobini “ Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashga oid tajriba – sinov ishlarining umumiy mohiyati deb nomladik

Mazkur dissertatsiya ishini bo'yicha quyidagi yo'nalishlarni taklif qilish mumkin:

1. Barcha ta'lim turlarini qamrab oluvchi yagona tizim bo'yicha.
2. Dars jarayonida individuallashtirishni joriy etish.
3. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni qamrab oluvchi yo'nalish.

Bu yo'nalishlar III bobning mazmunini yoritib berilishiga asoslanadi.

Tajriba sinov ishlari:

Namangan pedagogika kollejining “Boshlang'ish ta'lim” yo'nalishi 2-kursning 301-302-303 guruhlarida olib borildi.

Kuzatuv ob'yektida ham tajriba ob'yektida ham fanlar bo'yicha testlari tarqatilib, Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash masalasi aniqlab olindi.

Tadqiqot davomida o'quvchilar qobiliyatlarini, iqtidorini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldik va iqtidorli o'quvchilarni «yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasining namunaviy nizomini ishlab chiqib, ularni jalb qildik.

III bobni yoritishda biz shaxs sifatlarini baholash, ularning qiziqishlarini inobatga olish va iqtidorini namoyon qilishda muassasaning rahbari, har bir pedagog, psixolog va ota-onaning tutgan o'rni kabi g'oyalarni himoyaga olib chiqdik.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalari kasb-yunar kollejlarda Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash aniqlashda bir necha metodikalarning ahamiyati yoritildi va ularni qo'llab, taqqoslash ishlarida ham unumli foydalanildi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Hozirgi zamon fan va texnikasining rivojlanishi borgan sari yuqori darajada sifat jihatidan yangi masalalarni hal etish, ya'ni ijtimoiy amaliyotda tub yangiliklarni tadbiq xal etish, ularni amalga oshirish jarayonlarini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularni yetuk kasb egasi qilib yetishtirishdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni ziyrak, tashabbuskor, qiziquvchan, o'z fikrini to'liq izohlay oladigan, tirishqoq, mehnatsevar kabi shaxsiy sifatlarni takomillashtirish lozim.

Shaxsning iqtidorini, qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ta'lim-tarbiyaning tutgan o'rnini izohlashda Sharq xalqlarining boy ma'naviy merosi va qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kolleji iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash, hozirgi davrning eng dolzarb mavzusi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy talablarga ham hamohangdir.

Biz o'z tadqiqot ishimizda pedagogik-psixologik tomonlarini tadqiq qilishda shunday xulosaga keldik:

shaxsning qiziqishlari dars jarayonida inobatga olinsa,

ularga individual yondashilsa,

darsdan tashqari mashg'ulotlarga,

fan to'garaklariga jalb qilinsa, ko'rik-tanlov, sayohatlar tez-tez uyushtirilsa, zamonaviy pedagogis texnologiyalardan keng miqyosda foydalanilsa,

ta'lim turlarini qamrab oluvchi tizim bo'yicha tadqiq qilinsa, iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'ladi deb o'ylaymiz.

TAVSIYALAR

Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Kasb-hunar kollejlarida Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash dars jarayoni bilan bir qatorda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim:
- Iqtidorli o'quvchilarni saralash va ta'lim berish ishlari samaradorligini oshirish zarur:
- Fan to'garaklariga o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlariga mos holda jalb etish kerak
- Har bir fan bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarda shu fan dasturiga qo'shimcha materiallarni berish, iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashning ortishiga sabab bo'ladi:
- Iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlash noan'anaviy tarzda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda tashkil etilsa o'quvchilar aqliy taraqqiyotining yuksalishiga erishish mumkin:
- O'quvchilarni mustaqil ishlashga, izlanuvchanlikka, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish ular iqtidorini rivojlantirishga xizmat qiladi:
- O'quvchilarning ijodiy faoliyati natijalarini muntazam rag'batlantirib boorish, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashga erishish lozim .

Yuqoridagi taklif-mulohazalarga rioya qilish iqtidorli o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga tayyorlashga zamin yaratadi. Zero, iqtidorli va yuksak salohiyatli yoshlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi katta kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1.1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Vazirlar Mahkamasining 2010 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi". 22 yanvar 2011 yil

1.2. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi 2010 yil 12 noyabrdagi ma'ruzasi

1.3. Karimov I.A., «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir», «Xalq so'zi», 2010 yil 8-dekabr.

1.4. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishda so'zlagan nutqi "Xalq so'zi" 7 dekabr 2010 yil

1.5. Karimov I.A., «Barkamol avlod yili» davlat dasturi T. 2010-yil.

1.6. Karimov I.A., Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etish yo'llari va shoralari, T. 2009.

1.7. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, T. 2008 yil.

1.8. Karimov I.A., Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T. 1997 yil.

1.9. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil 29 avgust.

1.10. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim vazirligi ta'lim markazining "04" Noyabr 2008 yildagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida to'garaklar faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 205-sonli vuyruq

1.11. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2002 yil 26 sentyabrdagi "Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va ular bilan ishlash to'g'risida"gi 268-sonli buyrug'ining 1-ilovasi " Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va ular bilan ishlash to'g'risida nizom"

II. Ilmiy- uslubiy adabiyotlar:

- 2.1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent.1993y.
- 2.2. Abulxanova- Slavskaya K.A. Deyatelnost i psixologiya lichnosti. M.,Nauka, 1980. -203 s.
- 2.3. Akramova F. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari.// Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. - T.: O'zPFITI. 2006. 205-209 betlar.
- 2.4. Alimov F.N. Yosh davrlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - T: 2003. 5-26 betlar.
- 2.5. Anan'ev B.G. Formirovanie odarennosti – sklonnosti i sposobnosti. To'plamida. LGU nashriyoti, 1962y.
- 2.6. Anan'ev B.G. Izbrannnye psixologicheskie trudy. - M.: Pedagogika, 1980, 1-tom.
- 2.7. Andrianov P.N. O'quvchilarning texnik ijodkorligi. - T.: O'qituvchi,1989.- 128b.
- 2.8. Asamova R.Z. Komil inson orzusi.// Guliston j. № 4, 2001. 8-9 betlar.
- 2.9. Asamova R.Z., Do'squlova. N.A. Iste'dod, aql-zakovat millat ko'zgusidir.// Bakalavriat va magistratura talabalarining «Qishloq va suv xo'jaligi muammolari» ilmiy konferensiyasining materiallari.-T.: 2004. 118-119 betlar.
- 2.10. Asamova RL., Masharipova N.R. Shaxsning intellektual taraqqiyoti va unga ta'sir qiluvchi omillar.// Bakalavriat va magistratura talabalarining «Qishloq va suv xo'jaligi muammolari» ilmiy konferensiyasining materiallari.// -T.: 2004. 120-121 betlar.

- 2.11. Ahmedov M., Ibragimov M. O'quvchi shaxsining shakllanishida o'quvchilik davri xususiyatlari. //Uzluksiz ta'lim// 2002y.№3, 93 - 97betlar.
- 2.12. Gilford.Dj. Tri storony intellekta. Psixologiya mishleniya. - M.: Progress, 1969
- 2.13. Davletshin M.G. Problema sposobnostey v psixologii. T.: O'qituvchi nashriyoti, 1972 yil.
- 2.14. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. T.: 1979yil.
- 2.15. Davletshin M.G. O'quvchilarda kobiliyatlarni tarkib topishi. T.: O'qituvchi, 1965 yil, 48 bet.
- 2.16. Davletshin M.G., Alimqulov YO., Ubaydullaev A., Umarov U. Psixologiya (qiskasha izoxli lug'at).-T.: 1998.-46 b.
- 2.17. Dyui D. Psixologiya i pedagogika mishleniya. - M.: 1998. - 246 s.
- 2.18. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. - T : 2002. - 205b.
- 2.19. Klimov E.A. Individualniy stil deyatelnosti psixologii individualnix razlichiy. Teksty.-M.: 1982 g.
- 2.20. Kuzmina N.V. Formirovanie pedagogicheskix sposobnostey. LDU izdat. 1959 g
- 2.21. Mavlonova P., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. Darslik. - T: O'qituvchi, 2001.26-36 betlar.
- 2.22. Musaeva M.E. O'quvchilarning qobiliyatini o'stirishga integrativ yondashuv. // Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. - T.: O'zPFITL. 2006. 318-322 betlar.
- 2.23. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya / Sost. E.S. Rapasevish-Mn.:Minsk, 2005.-720 s.
- 2.24. Rasulov A.I. //Ta'lim jarayonida shaxsni o'rganishning psixodiagnostik asoslari. Kasb-hunar ta'limi. 2006.№3, 11-13b.
- 2.25. Rubinshteyn S.L. Oshovy obshey psixologii. M.: 1998 g.
- 2.26. Sayidahmedov N.Yangi pedagogis texnologiyalar. - T.:2003. 3-14 betlar.
- 2.27. Sog'inov N.A., Asadov.Y.M. Psixodiagnostik metodikalar (o'quvchilarning

- kasb-hunarga moyilliklari, qiziqishlari va qobiliyatlarini o'rganish). -T.: 2001.- 16 b.
- 2.28. Teplov B.M. Sposobnost i odarennost // xrestomatiya.- M.: 1981. - 32s.
 - 2.29. Halilova N. Iqtidorli talabalar psixologiyasi. - T.: 2009. 3-75 betlar.
 - 2.30. Hayrullayev M., Zunnunov A., To'xliyev B., Hotamov N. Pedagogika tarixi. - T.: Sharq. 2000. 7-155 betlar.
 - 2.31. Xudoyberganova O'. Iqtidorli o'quvchilarni, tanlash va ularga ta'lim berish istiqbollari.// Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. - T.: O'zPFITI. 2006. 411—415 betlar.
 - 2.32. Choriev .3. Iqtidorli talabalar maskani. Ta'lim va islohot. // Turkiston//2002 yil 30 noyabr.
 - 2.33. Sharipov Sh.S. Maktab o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish. Xalq ta'limi.j. 2003 y. №4. 34 - 36 betlar.
 - 2.34. Sharipov Sh.S. Kasb - hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. T.: Fan nashriyoti, 2005 y. 3 - 13, 25 - 55 betlar.
 - 2.35. Sharipov Sh.S Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari. Ped. fan.nom. diss. - T.: O'zPFITI. 2000 yil.
 - 2.36. Shumakova N.B. Obusheniye I razvitiye odaryonnix detey. M.: MPSI.2003. 93-195 s.
 - 2.37. Yusupov N. Iqtidorli talaba izlab topilmaydi. Ta'lim va islohot//Turkiston - 2002, 19 noyabr.
 - 2.38. Qodirov B.R. Izushenie sklonnostey podrostkov. T.: 1996. 36 b.
 - 2.39. Qurbonova Z. Psixodiagnostika. - N.: 2008.27-48 betlar.
 - 2.40. Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Metodik qo'llanma, T.: 2003 yil.
 - 2.41. Qodirov B.R. Qiziqishlar xaritasi. Metodik ko'llanma. Respublika Iste'dod Markazi. Toshkent, 1999 yil
 - 2.42. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi. Metodik qo'llanma.

Respublika Iste'dod Markazi, Toshkent. 1998 yil

- 2.43. G'oziev E.G', Usmonova SH. Intellekt psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: 1996 yil.

III. Internet saytlari:

3.1. www.bilimdon.uz

3.2. www.de.uz

3.3. www.tatu....uz

3.4. www.referat.uz

3.5. www.google.ru

Ilovalar

1-ilova

. IQTIDORLI O'QUVCHILARNI IZLASH, ANIQLASH VA ULAR BILAN ISHLASH TO'G'RISIDA

N I Z O M

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va unda iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash tartibi hamda ular bilan maqsadli ishlashning shakl va uslublari belgilangan.

Iqtidorli o'quvchilar – O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi.

1.2. Iqtidorli o'quvchilar turli ko'rik tanlovlar, fan olimpidalari va musobaqalari, konferensiya va boshqa anjumanlarda, shuningdek, maxsus psixologik, pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Ular maqsadga intilish, qat'iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagi bilan ajralib turadilar.

1.3. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va ular bilan maqsadli ishlashning asosiy maqsadi – respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual elitani tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga shiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdir.

1.4. Iqtidorli o'quvchilar bilan maqsadli ishlash vazifalari:

- iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyatini o'stirish, chuqur bilim olish va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
- professor-o'qituvchilar, olimlar va tajribali pedagoglarni iqtidorli

o'quvchilar bilan individual ishlashga jalb etish;

- ilm-fan taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli o'quvchilarni keng jalb etish;
- iqtidorli o'quvchilar respublika banki va monitoringini shakllantirish;
- maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- iqtidorli o'quvchilarning xalqaro fan olimpiadalari va musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning ilmiy-konstruktorlik byurosini tashkil etish, ularni asbob-uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar, ixtirolar yaratishga jalb qilish.

II. Iqtidorli o'quvchilarni izlash va aniqlash hamda ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari

2.1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida iqtidorli o'quvchilarni izlash o'qishning dastlabki kunlaridan doimiy ravishda amalga oshiriladi.

2.2. Iqtidorli o'quvchilar boshlang'ich bilimlari hisobga olingan holda, psixologik va pedagogik testlar, yozma ish va turli tanlovlar o'tkazish orqali qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi.

2.3. Aniqlangan iqtidorli o'quvchini maqsadli tayyorlash quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;
- kengaytirilgan o'quv reja va chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish;
- darsdan bo'sh vaqtlarda qo'shimsha mashg'ulotlar tashkil qilish;
- o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish;
- xalqaro va respublika miqyosida fan olimpiadalari va musobaqalari, konferensiya va ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish uchun tayyorgarlik ishlarini tashkil qilish;

2.4. Iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturlarida quyidagi

omillar nazarda tutiladi:

- fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish;
- kompyuter bilimdonligini oshirish;
- chet tillaridan birini puxta egallash;
- ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr va mulohazalarni bildirish, amalda tadbiq etish;
- qiziqqan fani bo'yicha chuqur bilim olishga yo'naltirish va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni tezkorlik bilan egallash xususiyatlarini shakllantirish;
- ilmiy-konstruktorlik ishlarni tashkil etish;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson etib shakllantirish.

III. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlovshi rahbar va professor-o'qituvchilarni tanlash

3.1. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash va ularga ilmiy rahbarlik qilish uchun homiy oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining ilmiy darajali, yoshlar bilan ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga hamda o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha yuqori malaka va o'quvchini maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha etarli bilimga ega bo'lgan professor-o'qituvchi va mutaxassislar jalb etiladi.

3.2. Iqtidorli o'quvchilar ilmiy rahbarlarining asosiy vazifalari:

- iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturini tuzish va uni amalga oshirishga rahbarlik qilish;
- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha etakchi xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni o'z faoliyatida qo'llash;
- ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlarining ilmiy laboratoriyalarida iqtidorli o'quvchilar bilan ilmiy ishlar olib borish;
- yangi pedagogik texnologiya, kompyuter texnologiyasi va video-audio texnikalarini o'quv jarayonida keng qo'llash;
- iqtidorli o'quvchilarni xalqaro fan olimpiadalari va musobaqalari,

respublika miqyosida o'tkaziladigan konferensiya, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishlarini ta'minlash uchun tayyorlash.

IV. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etish

4.1. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning shakl va uslublari:

- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quvchilarning intellektual salohiyati va qobiliyat imkoniyatlarini bilim olishga yo'naltirish;
- o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirish uchun maksimal shart-sharoitlar yaratish.

4.2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida «Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazi» tashkil etiladi va uning faoliyatini ilmiy-uslubiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari boshqaradi.

4.3. «Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazi» qoshida o'quvchilarning «Ilmiy-konstruktorlik byurosi» tashkil etiladi.

4.4. Psixologik va pedagogik testlar asosida iqtidorli o'quvchilar aniqlanib, ularning ro'yxati tuziladi hamda ilmiy rahbar va maslahatshilar belgilanadi.

4.5. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maqsadida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida quyidagi ish qog'ozlarini yurtish tavsiya etiladi:

- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazining Nizomi;
- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazining ish rejasi;
- o'quvchilarning ilmiy-konstruktorlik byurosi Nizomi;
- o'quvchilarning ilmiy-konstruktorlik byurosining ish rejalari;
- yillik xisobotlar;
- iqtidorli o'quvchilarga oid direktorning buyruqlari;
- iqtidorli o'quvchilar ro'yxati;
- o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bo'yicha bergan tavsiyalari va unga ilova qilingan hujjatlar va fotosuratlar;

- konferensiya, olimpiada, ko'rik-tanlov o'tkazilishiga oid hujjatlar;
- iqtidorli o'quvchilarni izlash va ularni maqsadli tayyorlashga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining buyruqlari, Hay'at va Boshqaruv Kengash qarorlari;

- xat va arizalarini qayd etish kitobi.

4.6. Maqsadli tayyorlashning dasturi turli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy rahbarlar tomonidan ishlab chiqiladi va o'quvchi tomonidan ixtiyoriy tanlanadi, uning bajarilishi bo'yicha nazorat muddatlari ko'rsatilgan shaxsiy reja tuziladi hamda Ilmiy-pedagogik Kengash tavsiyasiga binoan ta'lim muassasasining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

4.7. Ilmiy rahbar iqtidorli o'quvchi va chuqurlashtirilgan holda o'rganilishi nazarda tutilgan fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda qo'shimcha ishchi dastur va taqvim-mavzu rejasini tuzadi.

4.8. Iqtidorli o'quvchilar o'quv yilining oxirida o'zlari olib borgan ilmiy-ijodiy ishlari va uning natijalari to'g'risida hisobot beradi.

4.9. Har o'quv yilining yakunida iqtidorli o'quvchining qobiliyati, o'quv - ilmiy faoliyati va sifatlarining reytingi aniqlanadi hamda uning shaxsiy hujjatlariga tikiladi.

V. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'limining vazifalari:

- iqtidorli o'quvchilarni izlash va aniqlashni tashkil etish;
- ta'lim olayotgan iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyatini muntazam ravishda aniqlab borish;
- chet tili va kompyuterlarni mukammal egallash maqsadida mashg'ulotlar tashkil etish;
- iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy to'garaklar, ilmiy-konstruktorlik ishlari va mualliflik jamoalariga jalb qilishni uyushtirish;
- ilmiy-konstruktorlik byurosida turli xil asbob-uskuna, qurilma,

mexanizm va maketlar yaratishni yo'lga qo'yish;

- iqtidorli o'quvchilarni ilmiy maqolalarni chop etishda hamda ularning ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishda ko'maklashish;
- iqtidorli o'quvchilarni respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan fan olimpiadalari va musobaqalari, ilmiy anjumanlarda ishtirok etishni ta'minlash;
- iqtidorli o'quvchilarni ilm va fan arboblari, ishlab chiqarish korxonalarining rahbarlari va yirik mutaxassislari bilan uchrashuvlarni tashkil etish;
- iqtidorli o'quvchilar o'rtasida muntazam ravishda sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish;
- marketing tadqiqotlari, buyurtmachilar talablarini chuqur o'rganish va tashkil qilayotgan ta'lim xizmatlari banki asosida iqtidorli o'quvchilarga bozor kon'yukturasini belgilovshi fanlarni tanlashda yordam ko'rsatish;
- zamonaviy axborot tizimidan foydalanishga shart-sharoitlar yaratish.
-

VI. Iqtidorli o'quvchilar va ularning rahbarlarini rag'batlantirish va taqdirlash

6.1. Iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturiga sarflanadigan xarajatlar ta'lim muassasasi hisobidan amalga oshiriladi.

6.2. Yuqori ko'rsatkichlarga erishgan, ilmiy ishlar bo'yicha shaxsiy rejani namunali bajargan iqtidorli o'quvchilar, ularga biriktirilgan rahbarlarning tavsiyalariga muvofiq o'quv yili yakuni bo'yicha oliy o'quv yurtlari rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilishlari va taqdirlanishlari mumkin.

6.3. Iqtidorli o'quvchilarni qo'shimcha ravishda rag'batlantirish va taqdirlash turlari ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kengaytirilishi mumkin.

6.4. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda yuqori natijalarga erishgan (olimpiada, ko'rik-tanlov, konferensiyalarda g'olib chiqqan, ilmiy maqolalari chop etilgan va hokazo) ilmiy rahbar, konsultant va o'qituvchilar «Iqtidorli o'quvchilar

bilan ishlash markazi» tomonidan quyidagi rag'batlantirish va taqdirlashga tavsiya etiladilar:

- vazirlik, markaz va ta'lim muassasasining buyrug'i bilan tashakkurnoma e'lon qilish;
- qo'shimsha oylik maosh belgilash (agar umumiy reyting ham yuqori bo'lsa);
- o'quv yili yakunida tejalgan mablag'lar hisobidan mukofotlash;
- faxriy unvonlarga tavsiya etish;
- chet elga stajirovka va tajriba almashishga yuborish;
- dam olish maskanlari va sanatoriyalarga yo'llanma berish.

6.5. Iqtidorli o'quvchilar va ularning rahbarlarini rag'batlantirish va taqdirlash maqsadida korxonalar, muassasalar, turli davlat va nodavlat tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar, jamoat tashkilotlari homiy sifatida jalb qilinishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2002 yil 26 sentyabrdagi 268-sonli buyrug'iga 1-ilova.
Ushbu nizom Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2001 yil 23 martdagi 65 - sonli buyrug'iga 3 – ilova sifatida ham dastlab qabul qilingan.

2-ilova

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi markazining
2008-yil "04 "noyabrdagi 205-sonli buyrug'iga
1-ilova

**O'rta maxsus kasb –hunar ta'limi muassasalarida
to'garaklar faoliyatini tashkil etish to'g'risida**

NIZOM

I. Umumiy qoidlar

1. Ta'lim muassasalarida umumta'lim va maxsus fanlar hamda havaskorlik to'garaklari, sport sektsiyalari va to'garaklari(keyingi o'rinlarda "To'garaklar"deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining qaror va buyruqlari hamda mazkur nizom asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi.

2. To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimini tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga, ularning umumta'lim fanlariga, kasb hunarga, ommaviy sport va jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish

tadbirlariga, badiiy havaskorlik estetik talablarni qoldirishga qaratilgandir.

3. To'garaklar qiziqishlari bir hil bo'lgan bir guruh o'quvchilarning ma'lum bir fan yoki kasb bo'yicha o'qituvchi va kasbiy ta'lim ustalari yordamida bilim va mahoratlarini oshirish uchun xizmat qiladi .

4.O'rta mahsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarida to'garaklarni tashkil qilishni asosiy maqsadi, o'quvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarida mazmunli tashkil qilish ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishga ke'g imkoniyatlar yaratish hamda tanlagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir.

5. To'garaklar turini tanlash va qatnashish o'quvchilar uchun ixtiyoriy bo'lib, uning to'garaklarga ishtirok etishi haqidagi og'zaki bildirishi yetarlidir.

6. To'garaklar mazmunan o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlari hisobga olingan xolda tashkil etiladi, ularga majburiy topshiriqlar berilmaydi.

7. To'garaklar o'quv yili davomida faoliyat ko'rsatadi.

8. To'garak mashg'ulotlarining jadvali o'quvchilarning jamoat ishlarida ishtirok etishi va dam olishlarini e'tiborga olgan holda, ularning yoshi, fiziologiyasining o'ziga hosligi, sanitariya – gigiena

9. o'quvchilarning to'garak ishlariga keng jalb qilish va qiziqtirish maqsadida ta'lim muassasasi ilmiy pedagogig kengashi qarori ostida to'garaklarga qatnashuvchi o'quvchilar o'rtasida tanlovlar tashkil qilinadi .

10. To'garaklar mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda buyurtmashi korhona , tashkiloti muassasalar hamda o'quvchilar ota-onalari ta'lim olayotgan yo'nalishlariga turdosh ta'lim yo'nalishlaridan chuqur bilim va ko'nikma berishi maqsadida xam tashkil etilishi mumkin

II.To'garak a'zolarining huquq va burshlari.

11. To'garak a'zolari quyidagi huquqlarga ega :

a) qiziqishlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar shaklini tanlash va uning ishida ishtirok etish;

b) ta'lim muassasasi o'quv – texnologik jihozlari axborot resurs markazi jamg'armasi va jihozlaridan foydalanish ;

v) kasbiy va nazariy bilimlarini muntazam oshirib borish;

g) konkurs va tanlovlarda ishtirok etish ;

d) to'garak mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan barsha darslik, o'quv qo'llanma va daftarlarni olib kelish .

texnika havsizligi va sanitar – gigienik me'yorlarga qilish.

III. To'garak ishini tashkil etish va xabarlik qilish.

13. Ta'lim muassasasining ilmiy- pedagogik kengashi qarori asosida to'garaklar tashkil etiladi.

14. Ta'lim muassasalarida tashkil qilingan to'garaklar ishini nazorat qilish talim muassasasi direktorining ma'naviy ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

15. Ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog yoki ishlab chiqarish ta'lim ustasi ilmiy pedagogik kengash qarori asosida fan to'garagini tashkil etadi.

16. Har bir to'garakdagi o'quvchilar soni 5-nafardan kam bo'lmasligi kerak.

17. To'garak yo'nalishini o'ziga hosligiga ko'ra (cholg'u ansambli, hor, raqs, sport turlari va boshqalar)chuqurlashtirilgan mualliflik dasturlari mavjud bo'lganda, alohida istedodga ega bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda mashg'ulotlar olib borilishi mumkin

18.To'garak rahbarlari ta'lim muassasasining asosiy shartidagi o'quvchilar tarkibidan ilmiy pedagogik kengash qarori bilan ta'lim muassasasi direktori buyrug'i bilan ta'minlanadi.

19. To'garak rahbari to'garak ishiga javobgar shaxs hisoblanadi va o'z faoliyat yuzasidan ilmiy pedagogik kengashga hisobot berib boradi.

20. To'garak rahbari zimmasiga:

a) O'z bilimi, ma'naviy-ahloqiy fazilatlari va kiyinish odobi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lish;

b) To'garak obro'si, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish yo'lida

faollik ko'rsatish ;

v) O'quvchilarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari , ota-onalar hamda manaviy , tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

g) iqtidorli o'quvchilarni izlab topish va ularni to'garaklarga jalb qilish;

d) fanlardan o'zlashtirish darajasi nisbatan past bo'lgan o'quvchilarni mazmunan shu fanlarga mos bo'lgan to'garaklarga jalb qilish;

e) to'garak o'tkaziladigan o'quv honasini to'garak yo'nalishiga mos ravishda jixozlash bilan ta'minlashni tashkil etish;

j) to'garak azolari orasidan qobilyatli o'quvchilarni taqdirlash va rag'batlantirish to'g'risida ilmiy pedagogik kengashga taklif kiritishi;

k) to'garak faoliyati bo'yicha yarim yillik va yillik hisobotlarni tayyorlash;

l) to'garak ishini xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena me'orlari asosida tashkil qilishi vazifalari yuklatiladi.

21.To'garak rahbarlariga quyidagi me'oriy –xuquqiy xujjatlar bo'lishi lozim:

a) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida to'garaklarni tashkil qilish nizomi ;

b) o'rta mahsus kasb- hunar ta'limi muassasalarida to'garakni tashkil etish tartibi;

v) to'garak dasturini tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ;

g) ilmiy pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan to'garakning yillik ish rejasi ;

d) o'quvchilarning davomatini qayd qilish jurnali;

e) to'garak ishi jadvali ;

j) to'garakka qatnashuvchi o'quvchilarning ro'yhati .

IV T o'garaklar faoliyati moliyalashtirish.

22. To'garakni tashkil qilish va uni yuritish bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar o'rnatilgan tartibda ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi .

23. Korhonalar tashkilotlar yoki jismoniy shahslarning to'g'arak tashkil qilish va uni moliyalashtirish to'g'risidagi takliflari amaldagi qonunshilik asosida hal qilinadi .

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi markazining
2008-yil "04 "noyabrdagi 205-sonli buyrug'iga

2-ilova

O'rta mahsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida to'garaklarning tashkil etish tartibi

1. Ta'lim muassasasi ilmiy pedagogik kengash qarori asosida direktorning buyrug'i bilan to'garak tashkil etiladi.
2. To'garaklar jadvali raxbariyat tomonidan tasdiqlanadi va maxsus joyga osib qo'yiladigon ikkinchi jadvalga kiritildi .
3. To'garak mashg'ulotlarining o'quv yili rejasi to'garak rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va ta'lim muassasasi ilmiy pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.
4. Talim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan 2-ikkinchi jadval asosida to'garak mashg'ulotlari o'tkazish honasi belgilanadi. Mazkur hona ta'lim muassasa rahbariyatining amaliy yordami bilan to'garak yo'nalishiga oid jihozlanadi hamda zarur hom-ashyo (material) lar bilan ta'minlanadi
5. To'garak raxbari talim muassasasi o'quvchilari to'garak ishi va uning mazmun- mohiyati bilan tanishtiradi hamda istak bildirgan o'quvchilarni to'garakkga jalb etadi .
6. To'garak ishtirokshilari soni 5 nafar o'quvchidan kam bo'lmasligi kerak (sport , musiqa to'garaklari bundan mustasno) .
7. To'garak mashg'ulotlari har haftada kamida bir marta o'tkaziladi.
8. O'quvchilar davomati to'garak jurnalida muntazam qayd qilib boriladi .
9. To'garak raxbari to'garak ishiga javobgar shahs bo'lib , u mashg'ulotlarni sanitariya-gigiena meyorlari , hafsizlik texnika qoidalariga rioya qilgan holda tashkil qiladi .
10. To'garak a'zolari orasida iqtidorli, qobiliyatli o'quvchilarni taqdirlash bo'yicha to'garak raxbari ilmiy pedagogik kengashga takliflar kiritiladi.
11. To'garak a'zolari va ko'rik tanlovlarda , fan olimpiadalarida , sport

musobaqalarida muntazam ishtirok etishlarini ta'minlash, maqsadida muntazam ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida ma'muriyat barcha zaruriy shart sharoitlarni yaratadi, moddiy qo'llab quvvatlash shoralarini ko'radi

12. To'garak rahbarining ilmiy pedagogik kengashda o'quv yilida ikki marta to'garak faoliyati bo'yicha belgilangan muddatda hisobot taqdim etadi.

13. To'garak rahbari o'quv yilida ikki marta pedagog hodimlar uchun oshiq mashg'ulotlar o'tkazadi.

14. Tashkil etilgan to'garaklar faoliyatini nazorat qilish:

a) umumta'lim fanlar to'garaklari – o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari;

b) maxsus fanlar to'garaklari kasbiy tayyorgarlik bo'yicha direktor o'rinbosari;

v) badiiy xavaskorlik va sport to'garaklar –ma'naviy –ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

3-ilova

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi markazining
2008-yil "04 "noyabrdagi 205-sonli buyrug'iga

To'garak dasturini tuzish bo'yicha namunaviy uslubiy tavsiyalar

To'garaklar dasturi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari talablari asosida ishlab chiqilib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- to'garakning maqsadi ;
- fanlar aro bog'lanishi ;
- mavzular rejasi;
- mavzular bo'yicha soatlar taqsimoti;
- adabiyotlar ro'yxati

Umumta'lim, sport, badiiy havaskorlik va maxsus fanlardan tashkil etiladigan to'garaklarga soatlar o'quv rejadagi turdosh fanlar uchun umumiy o'quv yuklamada ajratilgan soatlarning 15-25 foizi miqdorida belgilanadi.

To'garakning maqsadi: O'quvchilar ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, milliy va umumbashariy qadiryatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash bilan o'z Vatani va halqiga nisbatan sadoqatni shakinlantirish, huquqiy ongini tarbiyalashdan iborat.

3-ilova

Iqtidorli o'quvchilar uchun «Pedagogika» to'garagining namunaviy dasturi

Respublikamizda taraqqiyot va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Mustaqil O'zbekistonning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan kasb- hunar ta'limi faoliyatining muhim vazifalaridan biri o'quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishdan iborat. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllanishi ta'minlanadi.

«Pedagogika» to'garagining tavsiya etilayotgan o'quv dasturida o'quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, ularning faolligini oshirish, o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash, kasbiy sifatlarni shakllantirish, iqtidorini rivojlantirishdan iboratdir.

Dasturning maqsadi: O'quvchilarning kelgusi faoliyatida «Boshlang'ish ta'lim» yo'nalishida olgan bilim, ko'nikma va malakalari asosida ijtimoiy foydali unumli mehnatini tashkil qilish, kasbiy mahoratlarini rivojlantirish, amaliy ishlab shiqarish faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

Dasturning vazifalari:

- Kasb-hunar kollejlari iqtidorli o'quvchilariga ta'lim qonuniyatlari va xususiyatlari bilan amaliy tanishtirish.
- O'quvchilarda ta'lim – tarbiya sohasi bilan bog'liq bo'lgan xossalarini pedagogik va psixologik jihatdan bog'lagan holda tushuntirish.
- O'zbekistonda pedagogik texnologiyalarining rivojlanishi turkumidagi o'rni va ahamiyati.
- To'garak a'zolariga ta'lim jurnallaridan foydalanib, so'nggi fan yangiliklari bilan tanishtirish.
- O'quvchilarga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil etishga o'rgatish.
- To'garak a'zolariga berilgan nazariy bilim va tushunchalarni, amaliy

o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida anketa so'rovlari o'tkazish

- Yuqori natijalarni ko'rsatgan o'quvchilarni ko'rik- tanlov musobaqalariga tayyorlash.

4-ilova

«Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasi to'g'risida

NIZOM 1. Umumiy qoidalar.

1.1. O'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy tarbiya va ta'lim berish, kasbini sevishga yo'naltirish, o'quv dasturidagi bilimlari orqali ularning iqtidorini, qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarning maqsadida «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasining faoliyati ta'limning 5 ta yo'nalish asosida o'quvchilar tanlagan tavsifga mos ravishda tashkil etiladi.

1.2. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasi kafedraning buyrug'iga muvofiq tashkil etiladi va o'z faoliyatida kafedraning qaror, buyruq va ko'rsatmalari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

1.3. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasi o'quvchilar faoliyatining asosiy xususiyati, ularning iqtidorlilik masalalarini hal qilish bilan birgalikda, u bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, rejalashtirish va boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etadilar.

1.4. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasi a'zolariga anketa – so'rovnomalardan o'tgan o'quvchilar qabul qilinadi. Bu o'quvchilar o'zlari va qiziqqan sohalari bilan shug'ullanadi.

2. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasining asosiy vazifalari

2.1. O'quvchilar iqtidorlilikining yangi shakl va uslublarini rivojlantirish;

2.2. O'quvchilarda jamoa bilan ishlash, o'zaro hamkorlik hamda mas'uliyat hissini tarbiyalash;

2.3. O'quvchilarning zamonaviy asbob - uskunalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

2.4. Tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib etishishi uchun keng imkoniyatlar yaratish;

2.6. O'quvchilar iqtidorini o'sishini qo'llab-quvvatlash, yutuqlarini keng tashviqot - targ'ibot qilish;

3. Bo'limlar bo'yicha faoliyat taqsimoti

«Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasining faoliyati quyidagi ushta bo'lim orqali amalga oshiriladi.

1. Buyurtmalarni bajaruvchi bo'lim.
2. Buyurtmalarni loyihalash bo'limi.
3. Tashkiliy bo'lim.

Buyurtmalarni bajaruvchi bo'limda ishlar o'quv rejasida o'quv ustaxonasi amaliyoti va “yosh iqtidorli o'quvchilar” to'garagi uchun belgilangan soat hisobidan o'quv ustaxonalarida o'quvchilar bilan olib boriladi. Bunda ular shartnomalar asosida ish olib boradilar.

Buyurtmalarni loyihalash bo'limida o'quvchilarning darsdan keyingi faoliyati asosida tashkil etilib, uning faoliyati o'quvchilar qiziqishlari asosida tashkil etiladigan to'garaklar asosida tashkil etiladi. Bu bo'lim buyumlarni loyihalash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi tajriba ishlarini amalga oshiradi.

Tashkiliy bo'lim o'quvchilar o'rtasida olimpiada, konkurs, anjumanlar va ilmiy amaliy ishlar ko'rgazmalarini tashkil qiladi va o'tkazadi, o'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi yangi ish shakllarini ishlab chiqish, ilg'or tajribalarni targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Shu bilan bir qatorda iqtidorli o'quvchilarni to'garaklarga jalb qilish bilan shug'ullanadi.

4. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasining ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

4.1. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasi kafedraning tashkiliy tuzilmasi hisoblanadi va kafedra muoviniga bo'ysunadi. Kafedra tomonidan tayinlanadigan rais tomonidan uyushma faoliyati boshqariladi.

4.2. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushma raisi va uning a'zolari uyushma faoliyatini jamoatshilik asosida yuritadilar. Imkoniyatlardan kelib chiqqan holda,

uyushma raisi va uning faol a'zolari rahbariyati tomonidan ma'naviy va moddiy rag'batlantiriladi.

4.3. «Yosh iqtidorli o'quvchilar» uyushmasi yig'ilishi uch oyda bir marta o'tkaziladi. O'quv yili yakunida kafedra pedagogika kengashiga hisobot beradi.

5. Moliyaviy ta'minoti

5.1. Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan ajratilgan mablag', xo'jalik hisobidagi ishlab chiqarishdan tushadigan mablag' va tashkilotlar va ota-onalar tomonidan ajratilgan homiylik mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatadi.

5-ilova

O'quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun namunaviy test savollari

1. Pedagogika fani nimani o'rgatadi?

A. Pedagogika grekcha so'z bo'lib "pauyne (o'quvchi) agogeuy (etaklayman)" ma'nosini bildiradi, jamiyatning insonni tarbiyalash kabi eng muhim vazifasini bajaruvini o'rgatadi;

V. Pedagogika talabalarining ta'lim va tarbiya qonunlariga, printsiplariga hamohang maqbul yo'l tanlash qobiliyatini shakllantiruvchi fan;

S. Ta'lim-tarbiya va ma'lumot bilan qurollantiruvchi fan;

D. Ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini o'rgatadi:

2. Pedagogika fani metodologiyasi deganda nimani tushunasiz?

A. Butun dunyo va sharq allomalarining pedagogik qarashlarini;

B. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda Farobiy, Ibn Sino, A. Navoiy, A. Avloniylarning nazariy merosini;

S. Pedagogika fani bu uning asosi hisoblanadi;

D. Butun dunyo, Sharq va Markaziy Osiyo olimlari yaratgan falsafani;

3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?

A. Ta'lim-tarbiya;

B. Tarbiya, ma'lumot;

S. Ma'lumot;

D. Ta'lim-tarbiya, ma'lumot

4. Pedagogika fanlari tizimiga qanday fanlar kiradi?

A. Pedagogika tarihi, gigiena, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, metodika;

B. Pedagogika tarihi, maxsus pedagogika, metodika

S. Maktab pedagogikasi, maxsus pedagogikalar, metodika;

D. Maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, maktabgacha tarbiya

pedagogikasi, metodika, gigiena;

5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini ko'rsating?

A. Ko'rsatish, suhbat, anketa, reyting, eksperiment, nazariy tadqiqot metodlari:

B. Kuzatish, suhbat, anketa, eksperiment, o'quvchilar ijodini o'rganish, statistika ma'lumotlarini tahlil qilish;

S. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish, suhbat, hujjat va arhiv;

D. Kuzatish, suhbat, anketa, eksperiment, o'quvchilar ijodini o'rganish, statistik hujjat va arhiv ma'lumotlarini tahlil qilish, kibernetika va hokazo;

6. Umumiy pedagogikaning asosiy vazifasini aniqlang?

A. Respublikamizda yashovshi turli millat va ellatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berish;

B. Yosh avlodni dunyoqarashini shakllantirish;

C. Yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omil bo'lgan erkin fikrlash tarzini yo'lga qo'yish;

D. Yoshlarga aqliy, ahloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, politehnik, iqtisodiy, ekologik tarbiya berish;

7. Pedagogika necha bo'limdan iborat?

A. 2 bo'limdan;

B. 3 bo'limdan;

C. 4 bo'limdan;

D. 6 bo'limdan;

8. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanang?

A. Irsiyat, ota-ona, bobo-buvi;

B. Ijtimoiy muhit, insoning mustaqil faoliyati;

- C. Sog'lom va qobiliyatli shaxsning aqliy faoliyati;
- D. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya hamda shaxs faoliyati:

9. O'qituvchiga xos bo'lgan asosiy sifatlarni sanab bering?

- A. O'quvchilarni o'qita bilish, o'qitish usullarni bilish;
- B. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, tashkilotchilik;
- C. Ota-onalar bilan ishlay olish, o'quvchilarning ruhiy holatini bilish;
- D. Ilmiy-tadqiqot ishlarni olib bora olish.

10. Ta'lim turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A. Maktabgacha, umumiy, maxsus, kasb-hunar, oliy;
- B. O'rta, maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim;
- C. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim;
- D. Maktabgacha, kasb-hunar, maxsus talim;

11. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 1992 yil 7 iyunda, 6 bo'lim, 44 modda;
- B. 1997 yil 31 avgustda, 5 bo'lim, 34 modda;
- C. 1997 yil 29 avgustda, 5 bo'lim, 34 modda
- D. 1997 yil 2 sentyabrda, 8 bo'lim, 40 modda;

12. O'qitish metodi bu-

- A. talim usullari, pedagogning qanday usulda dars o'tishi, talimni tashkil etishi;
- B. talim jarayonida pedagog o'z tarbiyalanuvchilarining kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikda faoliyat usullari;
- C. o'qitish usuli va vositasi, intuktiv metod, mustaqil ish usullari,

nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish;

D. talimda dedaktiv metod, muammoli, ko'rgazmali, og'zaki bayon qilish usullari;

E. kitob bilan ishlash, maruza, amaliy, laboratoriya, reproduktiv, o'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari:

13. Didaktika nimani o'rgatadi?

A. Didaktika grekcha so'z bo'lib "didaskol" o'rgatuvchi degan ma'noni bildiradi;

B. "Didako" o'qitish, ya'ni talim nazariyasini o'rgatadi;

C. Talim nazariyasini va metodlarni o'rgatadi;

D. Didaktika pedagogikaning talim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rgatuvchi qismidir;

E. Didaktika talimning asosiy kategoriyalarini o'rganadi va taminlaydi.

14. Ta'lim nazariyasi qaysi masalalarni o'z ichiga oladi?

A. Ta'lim haqida barcha tushunchalarni;

B. Ta'lim printsiplarini, maktab talim mazmunini;

C. O'qitish metodlari hamda tashkiliy shakllarini;

D. Talim jarayoni uning mohiyati, mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, metodlari, uning tashkiliy shakllari va talimga taalluqli barcha kategoriyalarni.

15. Talim mazmuni deb nimaga aytiladi?

A. Aqliy tarbiya bilan bog'liq barcha vazifalarga aytiladi;

B. O'qituvchilarni bilimlar bilan qurollantirishiga aytiladi;

C. Talim xujjatlari o'quv rejasi, dasturi va darsliklarga aytiladi;

D. O'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olish lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasiga aytiladi;

E. Aqliy tarbiya, bilim, ko'nikmalar yig'indisiga aytiladi.

16. O'quv rejasi nima?

- A. O'quv rejasi asosida o'qituvchi ishlab chiqadigan soatlar;
- B. Yil mobaynida o'tiladigan soatlar;
- C. O'quvchiga beriladigan ilmiy bilim va malaka hajmi;
- D. Davlat xujjati, unda har bir o'quv fanining mazmuni oshib beriladi;
- E. Amaliy laboratoriya mashg'ulotlar mazmunini belgilaydigan xujjat.

17. Talimni tashkil qilishning noan'anaviy shakllarini aniqlang?

- A. Muloqot;
- B. Baxs-munozara;
- C. Didaktik o'yinlar;
- D. Trening va boshqalar;
- E. Muloqot, baxs-munozara, didatik o'yin, trening: